

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYA

MA'NAVIYAT ASOSLARI

Ma'ruzalar kursi

Toshkent – 2013

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining
Tahririyat-noshirlik hay’atida ma’qullangan*

T a q r i z c h i l a r:

Mirzo Ulug‘bek nomli O‘zbekiston Milliy universitetining professori,
falsafa fanlari doktori **V. Alimasov**;

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi O‘zbekiston tarixi kafedrasining
dotsenti vazifasini bajaruvchi, tarix fanlari nomzodi **A. V. Narbekov**

M–39 **Ma’naviyat asoslari:** ma’ruzalar kursi / Sh.O.Mamadaliyev,
R.U.Ernazarov, A.Erkayev va boshq.; Mas’ul muharrir falsafa fanlari
doktori, professor Sh.O.Mamadaliyev. – T.: O‘zbekiston Respublikasi
IIV Akademiyasi, 2013. – 146 b.

Ushbu ma’ruzalar kursining nazariy va metodologik asoslarini Prezident Islom Karimovning ma’naviyat va ma’rifatga oid asarlari, risolalari va nutqlari tashkil etadi. Unda O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarida erishgan ulkan yutuqlari, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shib kelayotgan munosib hissasi, davlatlar orasida tobora ortayotgan nufuzi va salohiyati, o’tmishdagi boy tarixiy, ma’naviy merosiga tayanib, barkamol avlod tarbiyasini olib borish, shuningdek ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy axloqi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga doir masalalar yoritilgan. Xalqimiz ma’naviy hayotiga solinayotgan tahdidlarga qarshi ilmiy-nazariy tahlillar ham bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimidagi oliy ta’lim muassasalarining tinglovchi va o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, shuningdek sohaga qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

BBK 87.7ya73

«Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iyomon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir».

Islom Karimov

SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston xalqi mustaqilligini qo‘lga kiritib, suveren demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishni oliy maqsad qilib belgilab oldi.

Demokratik davlat xalq tomonidan saylovlar yo‘li bilan shakllantiriladigan, uning vakillik organlari orqali boshqariladigan, fuqarolik jamiyati institutlari yordamida nazorat qilinadigan davlatdir. Demokratik davlat xalqning yuksak ma’naviyatiga asoslanadi. Demokratiyani ma’naviyatsizlik va tarbiyasizlik yemiradi. Demokratiya va ma’naviyat bir-birini taqozo etuvchi ijtimoiy hodisalardir.

Demokratiyani ma’naviyatga qarama-qarshi qo‘yish boshboshdoqlikka olib kelib, jamiyat boshqaruvini izdan chiqaradi. Demokratik boshqaruv qonun, axloq va uchinchi shaxs huquqlariga rioya etishni talab etadi. Davlat hokimiyatini noqonuniy yo‘llar bilan qo‘lga kiritish (inqilob, harbiy to‘ntarish, suiqasd uyuştirish, ma’naviy evrilish, axloqsizlik ma’naviy qashshoqlik ko‘rinishlaridir) ma’naviyatsizlikdir.

O‘zbekistonda demokratiya va ma’naviyatning o‘zaro aloqadorligi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Prezident Islom Karimovning «Ma’naviyat insonning, xalqning, davlatning kuch-qudratidir», «Yuksak ma’naviyat – buyuk kelajak poydevori», «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» kabi shioriy fikrlari ma’naviyatga davlat siyosati darajasida qaralayotganining dalilidir. Mustaqillik yillarida Islom Karimovning asarlarida milliy ma’naviyat nazariyasi va amaliyotining asoslari yoritib berildi.

Yurtboshimizning ma’naviyatga oid quyidagi farmon va qarorlari e’lon qilindi: 1994-yil 23-aprelda «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi qaror, 1999-yil 3-sentabrda «Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmon, «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-

ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2006-yil 25-avgust PQ-451-sonli qaror.

Bundan ko'rindaniki, O'zbekistonda ma'naviyatga oid davlat siyosati izchillik bilan hayotga tatbiq etilmoqda. Ma'naviyat sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

- ma'naviy merosni tiklash va uni chuqur o'rganish;
- O'zbekistonning eng yangi tarixini yaratish;
- ta'lif tizimini rivojlantirish;
- fan va texnika taraqqiyotini ta'minlash;
- komil insonni tarbiyalash kabilar.

1997-yildan umumiy o'rta ta'lilda «Ma'naviyat asoslari va milliy g'oya», oliy ta'lif tizimining bakalavriat bosqichida «Ma'naviyat asoslari» fani o'qitilmoqda.

Harbiylashgan oliy ta'lif muassasalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining tinglovchilari, ichki ishlar idoralari xodimlarining kasbiy tayyorgarligi yo'nalishida o'qitilayotgan «Ma'naviyat asoslari» fani bo'yicha ushbu ma'ruzalar kursi ixtisoslikni inobatga olib, kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan maxsus nashrga tayyorlandi.

Ma'ruzalar kursini tayyorlashda falsafa fanlari doktori, professor *Sh. O. Mamadaliyev* (so'zboshi, 1-mavzu), falsafa fanlari nomzodlari, dotsentlar *A. Erkayev* (8-mavzu), *R. U. Ernazarov* (3-mavzu), *V. B. Xaqliyev* bilan hammualliflikda 2-mavzu), tarix fanlari nomzodlari, dotsentlar *V. B. Xaqliyev* (7-mavzu), *M. T. Tojiboyev* (4, 6-mavzular) va katta o'qituvchi *S. N. Berdikulov* (5-mavzu) qatnashdilar.

Mualliflar ma'ruzalar kursi haqida bildiriladigan barcha tanqidiy fikr-mulohaza va takliflarni mammuniyat bilan qabul qiladilar, kelajakda ulardan unumli foydalanadilar.

I bo‘lim. «MA’NAVIYAT ASOSLARI» FANINING VUJUDGA KELISHI VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

1-mavzu. «MA’NAVIYAT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, KATEGORIYALARI VA VAZIFALARI

KIRISH

«Ma’naviyat asoslari» – O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng paydo bo‘lgan ijtimoiy fanlardan biri. Albatta, hech bir fan o‘z-o‘zidan mutlaqo bo‘sh joyda paydo bo‘lmaydi. Har qanday fan ijtimoiy zaruriyat asosida shakllanadi va rivojlanadi. «Ma’naviyat asoslari» fani bir qancha ijtimoiy zaruriyatlar asosida shakllangan. Ularga batafsilroq to‘xtalamiz.

Birinchisi – O‘zbekiston xalqi mustaqillikni qo‘lga kiritib, demokratik siyosiy tanlovnini amalga oshirganligi.

Demokratik siyosiy tizim insoniyat tomonidan kashf etilgan jamiyat boshqaruvining eng oliy shaklidir. Bugungi ijtimoiy taraqqiyot demokratik siyosiy tizim sharoitidagina inson huquq va erkinliklarini ta’minalash, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan yuksalish mumkinligini isbotladi. Demokratik siyosiy tizim esa fuqarolarning yuksak ma’naviyatiga tayangan siyosiy-huquqiy madaniyat asosida boshqariladigan tizimdir. Shu bois O‘zbekiston jamiyatni ma’naviy yuksaltirishni totalitar-avtoritar tizimdan demokratik siyosiy tizimga o‘tishning eng muhim shartlaridan biri deb e’tirof etadi. Jamiyatni ma’naviy yuksaltirish esa ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni ilmiy tadqiq etishni hamda barkamol insonni tarbiyalashni taqozo etadi. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – kelajak poydevori» degan purma’no fikrga shioriy mazmun berdi.

«Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandalrimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy

xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraq-qiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin»¹.

Ikkinchisi – jahonda inson ongi va qalbi uchun kurashning kuchayib borayotgani hamda insoniyat hayotiga xavf soluvchi ma’naviy tahdidlar xuruji.

Ma’lumki, hozirgi zamonda manfaatlar to‘qnashuviga barham berilgan emas. Manfaatlar to‘qnashuvi esa aksariyat holatlarda inson ruhiyatida amalga oshirilmoqda. Shu bois insoniyat lug‘at boyligiga ilgari mavjud bo‘lmagan «psixologik urush», «axborot urushi» kabi tushunchalar kirib keldi. O‘zbekiston Prezidenti hozirgi zamon manfaatlar to‘qnashuviga xos xususiyatlarni ifodalab, quyidagi purma’no hikmatlarni ilgari suradi:

- «G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirishish mumkin»;
- «Eng dahshatlisi – fikr qaramligi, tafakkur qulligi»;
- «Milliy mafkura millatni birlashtiruvchi bayroqdir»;
- «Mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotadi»;
- «Ma’naviyatimiz qo‘limizda yengilmas kuchga aylansin»;
- «Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchlidir»;
- «Ongli turmush – jamiyat taraqqiyotining bosh mezoni»;
- «Maqsadimiz – erkin shaxsni tarbiyalash»;
- «Jaholat – ma’rifatning kushandas»;
- «Jahonga o‘z so‘zimizni aytaylik».

Yuqoridagi hikmatli fikrlardan anglanib turibdiki, har qanday ma’naviy tahdidga qarshi faqat yuksak ma’naviyatni qarshi qo‘yish mumkin, ma’naviy barkamol avlodgina ma’naviy tahdidlarni bartaraf etishga qodirdir.

Uchinchisi – jamiyatni iste’molchilar jamiyatidan ishlab chiqaruvchilar jamiyatiga aylantirish, qullik psixologiyasini bartaraf etish, o‘zlikni anglash, fuqarolarning siyosiy-huquqiy madaniyatini yuksaltirish zaruriyati.

1. «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti va kategoriyalari

Insoniyat yaratgan, o‘qib o‘rganayotgan har bir fanning predmeti va kategoriyalari mavjud. O‘zining aniq izlanish, ilmiy tadqiqot o‘tkazish sohasiga ega bo‘lmagan birorta ham fan yo‘q. Demak, fan predmetsiz va kategoriyalarsiz bo‘lmaydi. Bu barcha fanlarga xos universal qonun. Bu gap «Ma’naviyat asoslari» fani uchun ham o‘rinlidir. Ayrim tadqiqotchi

¹ Qarang: *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч.* – Т., 2008. – Б. 4.

mutaxassislar «Ma’naviyat asoslari»ni fan emas, maxsus o‘quv kursi deb atashni ilgari suradilar.

Bizning fikrimizcha, bunday munosabat to‘g‘ri emas. Sababi: birinchidan, «Ma’naviyat asoslari» fanining izlanish obyekti mavjud, shuning uchun ushbu fan oldiga davlat rahbari tomonidan aniq vazifalar qo‘yildi. 1994-yili respublika ma’naviyat va ma’rifat faollari bilan o‘tkazgan uchrashuvda «Prezident – ma’naviyat homiysi» deb, o‘zining ushbu jarayonlarga mas’ulligini uqtirib o‘tgan edi. Ma’naviyat massalalariga panja ortidan qarovchi, qoldiq prinsipi asosida yondashuvchi hokim va quyi daraja rahbarlarni tanqid qilib, yuqorida keltirilgan farmonlarni chiqardi. Endi o‘zingiz o‘ylang, davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalani bitta mavsumiy maxsus kurs darajasida o‘rganish mumkinmi? Albatta, yo‘q. Qolaversa, fanning maxsus kursdan farqi, izlanish, ilmiy tadqiqot o‘tkazish, anglab olinmagan narsalarni anglash, ilmiy bilimlarni ishlab chiqish va uni ko‘pchilikning intellektual mulkiga aylantirishdan iboratdir. Maxsus kursslarni ta’lim tizimiga joriy etishdan maqsad esa, bir necha fanlar tomonidan ishlab chiqilgan, kunning dolzarb masalasiga aylangan mavzuga oid bilimlarni muayyan tartibda tinglovchilarga yetkazishdan iborat. U doimiy emas, mavsumiydir.

Taniqli olim T. Mahmudov: «Ma’naviyatni ham alohida fanlar, ijod turlari va faoliyatları orqali o‘rgatish va o‘rganish uni mavhum holda tasavvur etishdan ko‘ra, ming marta foydaliroq va maqbulroqdir»¹, – deb yozadi. Bu borada faylasuf A. Begmatovning fikrlari ham alohida e’tiborga molik².

Ikkinchidan, qanday qilib o‘ziga xos kategorial apparatiga ega fanni kurs deb atash mumkin, ma’lumki, maxsus kurslarda kategorial apparat mavjud bo‘lmaydi. Yuqoridagi tanqidiy fikrlardan xulosa shuki, maxsus kurslar fan emas, maxsus kurslarning ayrimlari fanga aylanishi ham, aylanmasligi ham mumkin. «Ma’naviyat asoslari» esa fan sifatida tarixan shakllanib ulgurgan. U tarixan fan sifatida mavjud bo‘lgan. Sobiq Sovetlar davrida lisovchilik, marksizm, ateizm bayroqlari ostida «qataq‘on qilingan» «Ma’naviyat asoslari» Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan boshqa fanlar qatori³ xalqqa qaytarildi, xolos. Bu tarixiy haqiqatni unutmasligimiz lozim.

¹ Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Т., 2001. – Б. 9.

² Бегматов А. Маънавият фалсафаси ёхуд Ислом Каримов асарларида янги фалсафий тизимнинг яратилиши. – Т., 2000. – Б. 12–25.

³ Mustaqillik yillarda ta’lim tizimiga kiritilgan siyosatshunoslik, dinshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar kabi.

Endi «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti nima, degan savolga quyidagicha ta’rifni keltirish mumkin: «Ma’naviyat asoslari» fani inson ruhiyatining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini ilmiy tadqiq etuvchi, komil insonni tarbiyalash jarayonlarini o’rganuvchi ijtimoiy fandir. Demak, «Ma’naviyat asoslari» fani inson, uning kamoloti bilan bog‘liq barcha munosabatlarni o’rganuvchi insonshunoslik fanidir. Ushbu fanni «Ma’naviyat», «Ma’naviyatshunoslik», «Insonshunoslik» deb ham atash mumkin. Ammo, rasmiy «Ma’naviyat asoslari» deb nom qo‘yildi. Bu nomning qo‘yilishida o‘ziga xos ma’no bor. Ma’naviyat asoslari deyilishining boisi xalqimizning chuqur ma’naviy ildizlarga ega qadimiy xalq ekanligiga ishora, urg‘u berishdir. Prezident Islom Karimov aytganidek, «ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilishi va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»¹.

Ma’naviyatning asoslari quyidagilardan iboratdir:

Birinchi asos – xalqimiz tomonidan yaratilgan yozma va og‘zaki ijodiyot namunalari (bunda «Avesto», «Fozil odamlar shahri», «Devon ul lug‘otit turk», «Qutadg‘u bilig», «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li» kabi asarlar nazarda tutiladi).

Ikkinci asos – xalq ma’naviyatining sarchashmalari bo‘lgan milliy an’analar, urf-odatlar, hikmatlar, askiya va boshqa ijod turlaridan komil insonni tarbiyalashda unumli foydalanish.

Uchinchi asos – umuminsoniy qadriyatlarga aylangan jahon intellektual mulki (Biz Aristotel, Pushkin, Shekspir, Gegel kabi mutafakkirlarning ijodiyotini ham puxta o‘zlashtirishimiz kerak). Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik bizni milliy biqiqlikdan saqlab qolib, milliy ma’naviyatni boyitishga undaydi.

To‘rtinchi asos – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari. Ushbu asarlarda Islom Karimov milliy ma’naviyat nazariyasini yaratdi. Prezident asarlarini o’rganish, ularni amaliyot dasturiga aylantirish nazariy va amaliy nuqtai nazardan o‘ta muhim vazifadir.

Beshinchi asos – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Prezidentning farmon va farmoyishlari, hukumatimizning qarorlari va tegishli normativ-huquqiy hujjatlar.

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б .4.

Har qanday qonun xalq ma'naviyatining ko'zgusidir. Shunday ekan, qonunlarning sifati, ijrosi, qonunga itoatkorlik, qonun ustuvorligi kabi muammolarni bartaraf etish shaxs kamoloti bilan bog'liq hodisalardir.

«Ma'naviyat asoslari» fanining kategoriyalari. Har bir fanning kategoriyalari bo'lganidek, «Ma'naviyat asoslari» fanining ham maxsus kategoriyalari mavjud. Ularni substansional, funksional va aksiologik kategoriyalarga ajratib o'rghanish maqsadga muvofiqdir.

Substansional kategoriyalarga «ma'naviyat», «ma'rifat», «madaniyat», «adolat», «iyomon», «e'tiqod», «diyonat» kabi tushunchalar kirib, ular fanning mohiyatini ochib beradi.

Funksional kategoriyalarga «insonparvarlik» (gumanizm), «ma'rifatparvarlik», «haqgo'ylik», «adolatparvarlik», «fidoyilik», «vatanparvarlik», «jasurlik» kabi umumiy tushunchalar kiradi.

Aksiologik kategoriyalarga esa «komil inson», «orif inson», «fozil inson» kabi ma'nodosh tushunchalar, shuningdek, «adolatparvar», «insonparvar», «ma'rifatparvar», «fidoyi inson», «iyomonli inson» tushunchalari kiradi.

«Ma'naviyat asoslari» fani bo'yicha 8 ta mavzu mavjud. Ushbu mavzularda mazkur kategoriyalarning mazmun-mohiyati ochib berilishini inobatga olib, ularga tasnif berib o'tirmaymiz¹.

2. «Ma'naviyat asoslari» fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni

«Ma'naviyat asoslari» fani ijtimoiy fanlar tizimiga kiradi. Shu bois uning boshqa ijtimoiy fanlardan farqini anglash lozim. Fikrimizcha, «Ma'naviyat asoslari» fani boshqa ijtimoiy fanlardan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi.

1. Ma'naviyat insonning butun ruhiy olamini yaxlit tizim sifatida ifoda etuvchi ijtimoiy kategoriadir. «Ma'naviyat asoslari» fani esa ana shu butun, ya'ni ma'naviyat haqida yaxlit, umumiy tasavvurni shakllantiradi. Albatta, barcha ijtimoiy fanlar u yoki bu tarzda ma'naviyatni tadqiq etadi, uni boyitadi, ma'naviyatni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Biroq «Ma'naviyat asoslari» fanidan farqli o'laroq, ma'naviyatni yaxlit bir tizim sifatida o'rghanmaydi. Demak, «Ma'naviyat asoslari» fani butunni o'rgansa, boshqa ijtimoiy fanlar uning qismlarini tadqiq etadi.

¹ Izoh: Kategoriyalarning tasnifi «Ma'naviyat asoslari» fanidan yozilgan darsliklardan tashqari mavjud ijtimoiy-siyosiy lug'atlarda ham berilgan.

Madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyat yoki ma'naviyatga bo'linadi.

Ma'naviyat, o'z navbatida, quyidagi tarkibiy qismlarga bo'linadi: a) ma'naviyat; b) ma'rifat; v) g'oya; g) mafkura; d) amaliyot.

Ma'rifat bilan deyarli barcha fanlar shug'ullanadi. Albatta, ko'proq pedagogika fani shug'ullanadi. Jurnalistlar, shoir-yozuvchilar, kasb yo'nalishidan qat'i nazar, barcha sohalardagi olimlarni, hattoki jamoat va davlat idoralarining rahbarlarini ham ma'rifatchilar deyish mumkin.

G'oya, g'oyashunoslik ham ma'naviyatning tarkibiy qismi. Bunyodkorlik g'oyalari ma'naviy yetuklik mahsulidir. Ma'naviyat bo'limgan joyda g'oyaviy bo'shliq¹ paydo bo'ladi. G'oyaviy bo'shliqni esa faqat ilm, ma'rifat, ma'naviyat bilan to'ldirish mumkin. Shu bois Prezident Islom Karimovning 2001-yil 18-yanvardagi farmoyishiga asosan respublika ta'lim tizimiga yangi «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» o'quv fani kiritildi. Bundan ko'zlangan maqsad «g'oyaviy immunitet»ni shakllantirish, Prezident Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, «G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish»dir.

Mafkura ham milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismi. Mafkura yo'q joyda jamiyat yashay olmaydi. Bizning milliy istiqlol mafkuramiz «xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat qilsin», – deydi Islom Karimov. Jamiyatni birlashtiradigan, kuchiga kuch qo'shadigan, oliy maqsadlar sari yetaklaydigan, jamiyat hayotini inson manfaat va ehtiyojlari asosida o'zgartiradigan kuch mafkuradir.

Ma'naviyat mafkura orqali amaliyotga tatbiq etilganda moddiy kuchga aylanadi. Chunki ma'naviyat amaliyotda moddiylashadi. Haqiqatga, ma'naviy yuksaklikka intilishdan, komil insonni tarbiyalashdan asosiy maqsad ham oxir-oqibat olamni go'zallikka burkash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdir.

«Ma'naviyat asoslari» fani mustaqillik yillarda paydo bo'lgan «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» fani (1998-y.) bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimgi yunon faylasufi, «Siyosat» («Politika») asarining muallifi Aristotel aytganidek, «Demokratiya yuksak ma'naviyat, tartib va intizom, o'zaro burch va mas'uliyatga asoslangan boshqaruv tizimidir, ularsiz demokratiyadan xavfliroq narsa yo'qdir». Bundan ko'rindiki, demokratiya bo'lishi, u

¹ Qarang: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Т., 2000. – Б. 39.

insonlarga xizmat qilishi uchun eng avvalo jamiyatda yuksak ma’naviyat bo‘lishi zarur. Yuksak ma’naviyat – demokratiya poydevoridir. Boshboshdoqlik, so‘z mas’uliyatining yo‘qligi, haqiqatni xarxillashtirish, istalgan narsani qilish, umumiy mas’uliyatsizlik – antidemokratiyadir. Shunday ekan, ma’naviyatsiz jamiyatni demokratlashtirib, liberallashtirib (erkinlashtirib) bo‘lmaydi.

«Ma’naviyat asoslari» fani huquqshunoslik fani bilan ham bevosita bog‘liqdir. «Huquq – bu mustaqillikdir», – degan edi Islom Karimov taniqli huquqshunos olimlar bilan uchrashuvda. Darhaqiqat, mustaqillik – o‘z yurtiga egalik qilish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini o‘zi himoya qilish, asrash, mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishdir. Mustaqillik – o‘zlikni anglash, yuksak ma’naviyat belgisidir. Shu bois mustaqillikni mustahkamlash, uni siyosiy-huquqiy qadriyat sifatida baholash har bir O‘zbekiston fuqarosining ma’naviy burchidir. Har qanday huquq ma’naviyatga asoslanadi. Huquqiy munosabatlarning mezonidir. Jamiyatdagi qonunlarning sifati, xalqchilligi, adolatliligi ham oxir-oqibat ma’naviyatning (insonlarga foydalilik koeffitsiyenti) inson kamolotiga qo‘sghan hissasi bilan o‘lchanadi. Qisqa qilib aytganda, huquq ma’naviyatdan oziqlanadi, ma’naviyat esa huquqda o‘z himoyasini topadi.

3. «Ma’naviyat asoslari» fanining ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati

«Ma’naviyat asoslari» fanining ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi ahamiyatini quyidagicha izohlash mumkin. Birinchidan, ichki ishlar idoralari xodimlari «adolat posbonlari» deb tavsiflanadilar. Bu tasodifiy emas, balki anglab olingan mohiyatning amaliy ifodalananishidir. Prezident Islom Karimovning II chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasida qilgan ma’ruzasi sud-huquq idoralari islohotiga bag‘ishlangan bo‘lib, «Adolat – qonun ustuvorligida» deb nomланади. Ma’ruzada: «...sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so‘z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo‘lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o‘zgaryapti... Eng avvalo, jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikni adolat va insoniylik kabi

tamoyillarining kuchayishini va amalda qo'llanilishini ta'minlashimiz zarur»¹, – deb ta'kidlanadi.

Jinoiy jazolarning liberalallashtirilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida» qonun qabul qilindi². Prezident Islom Karimovning ma'ruzasi hamda ushbu qonunning mohiyat-mazmunini – jinoiy munosabatlarni «adolat tarozisi bilan o'lchash», insoniylik tamoyili asosida qayta ko'rib chiqish tashkil etadi (bu yerda jinoiy munosabatlarni liberalallashtirish nazarda tutilmoqda).

Ikkinchidan, «ichki ishlari idoralari xodimlari inson huquqlarining himoyachilaridir». Shu o'rinda, ichki ishlari idoralari xodimlari inson huquqlarini nimalardan himoya etadilar, degan tabiiy savol tug'iladi. Javob: insonniadolatsizlik, yomonlik, yovuzlikdan himoya etadilar. Ichki ishlari idoralari xodimlari yaxshilikni yomonlikdan himoya etadilar. Jamiyatdagi, insondagi barcha yomonliklarni qidiradi, topadi va ularni Jinoyat kodeksi asosida tasniflaydi hamda tegishli jazo belgilaydi. Agar davlat chegarachisi hududiy chegaralarni qo'riqlasa, uning daxlsizligiga qarshi tahdidlarga qarshi kurashsa, ichki ishlari idoralari xodimlari ma'naviyat chegaralarini qo'riqlovchilardir. Mohiyatan, ichki ishlari idoralari xodimlari «Ma'naviyat qo'riqchilaridir»dir.

Bundan, ma'naviyat ichki ishlari idoralari xodimlari faoliyatida bosh mezon, degan xulosa chiqadi. Demak, ichki ishlari idoralari xodimlari ma'naviyatli, ma'rifatli bo'lmasdan, haqiqiy kasb egalari bo'la olmaydilar. O'zbek pedagogikasining asoschilaridan biri Abdulla Avloniy aytganidek, «tarbiyachi tarbiyalashdan oldin o'zi tarbiyalangan bo'lmog'i lozim». Ichki ishlari idoralari xodimlari ham ma'naviyatni, adolatni qo'riqlashdan oldin, o'zlar yetuk ma'naviyatli, adolatparvar bo'lishlari shart.

Xulosa qilib aytganda, «Ma'naviyat asoslari» o'quv kursi emas, balki fandir. Avtoritar, totalitar tizim sharoitida «ma'naviyat» qatag' onga olindi. Sababi tobelik, erksizlik, mustamlakachilik, fikr qulligi, tafakkur qaramligi edi. Mustaqillik, ozodlik, hurlik «Ma'naviyat asoslari»ni o'rganishni

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10. – Т., 2002. – Б. 33.

² Ўзбекистон Республикасининг «Жиноий жазоларни либералластириш муносабати билан «Ўзбекистон Республикасининг Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ҳамда Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартериш ва қўшимчалар киритиш хақида»ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2001. – № 9–10. – 165-м.

ijtimoiy zaruriyatga aylantirdi. Milliy ma’naviyatning asoslarini O’zbekiston va jahon ma’naviy merosi, yozma hamda xalq og‘zaki ijodiyotining durdonalari, O’zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlari, Prezident Islom Karimovning asarlari tashkil etadi. Islom Karimov asarlarida milliy ma’naviyat nazariyasi yaratildi va amaliyotga tatbiq etilmoqda. «Ma’naviyat asoslari» fani barcha ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan chambarchas aloqadordir. Ichki ishlar idoralari xodimlarini yuqorida «ma’naviyat qo‘riqchilari», deb ta’rifladik. Shu bois ham ichki ishlar idoralari xodimlari ma’naviyatga o‘z faoliyatining «o‘zagi» deb qaramoqlari lozim.

4. Prezident Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiysi va uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati

Albatta, mustaqillik yillarida boshqaruvning yangi siyosiy tizimi yaratildi, hozirgi paytda uni takomillashtirish bosqichi ketmoqda. Biroq jahonda va respublikamizda yuz berayotgan voqealar sur’ati juda tez. Insoniyat ongi va shuurining o‘zgarishi esa voqe va hodisalar tezligidan ortda qolmoqda. Bunday sharoitda inson ongini jahondagi yangi borliqqa adekvat tarzda o‘zgartirish yangi zamon talabiga aylandi. Shu jihatdan Prezident Islom Karimovning 1995-yil 23- fevralda O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasi benihoya muhimdir. «Endigi asosiy vazifa – kishilarimizning mustaqil fikrlashga o‘rganishi, o‘ziga ishonchining orta borishidir. Chunki tafakkur ozod bo‘lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutulmasa, inson to‘la ozod bo‘la olmaydi»¹. Haqiqatan ham, uzoq va yaqin tarixdan ma’lumki, mustaqil fikrga ega, o‘zligini anglagan kishini hech kim, hech qachon yenga olgan emas. Bu – tarix haqiqati (eslang, Spartak, To‘maris, Shiroq, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va h.k.). Shuning uchun ham O’zbekiston mustaqilligining mustahkamlanishi, uning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishi, buyuk kelajagi fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligiga, ma’naviy yuksakligiga bevosita bog‘liqdir.

Taraqqiyot kelajagini ma’naviyati yuksak insonlar belgilaydi. Shu boisdan, davlat tuzumini, jamiyatni demokratlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish barobarida ma’naviyatga ham doimo alohida e’tibor talab etilishi zaruratdir. Umuman qayd etish joizki, O’zbekiston Prezidenti Islom Karimovning deyarli har bir ma’ruzasida ma’naviyat

¹ Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 34.

masalasiga e'tibor qaratiladi, har bir kitobida alohida bob ajratiladi. Ular jamlanib, 1994-yilda «Istiqlol va ma'naviyat» nomi bilan bиринчи мarta nashr etilgan bo'lsa, 1998-yilda yanada to'ldirilib, «Ma'naviy yuksalish yo'lida» nomi bilan mukammal holda nashr etildi. O'rni kelganda ta'kidlash joizki, Prezident Islom Karimov o'z asarlarida milliy ma'naviyat nazariyasini¹ ishlab chiqdi va uni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib berdi. Jumladan, 1994-yil 23-aprelda «Ma'naviyat va ma'rifat» respublika jamoatchilik markazini tuzish haqidagi farmon chiqdi. So'ng 1994-yil 8-iyunda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori, 1996-yil 9-sentabrda ushbu markaz faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida yana alohida farmon chiqdi va uning asosida 1998-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviy va ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choralari to'g'risida»gi maxsus qarori qabul qilindi. 1999-yil 3-sentabrda «Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmon qabul qilindi, markaz Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2006-yil 25-avgust PQ-451-sonli qarori Markaz rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Hozirgi murakkab va tahlikali davrda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, ularda yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi belgilab olindi.

Mazkur hujjatga milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish uchun jiddiy o'zgartishlar kiritildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining tashkiliy guruhi – ijroiya idorasi hisoblangan respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi respublika Ma'naviyat targ'ibot markaziga aylantirildi. Uning tarkibiy tuzilishida ham muayyan o'zgarishlar qilindi. Qo'shimcha ravishda yangi

¹ Каримов И. А. Маънавий юксалиш йўлида. – Т., 1998; Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008; Мамлакатимизда демократик ислоҳотларни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. – Т., 2010; Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011.

Targ‘ibotchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va malakasini oshirish bo‘limi ochildi. Ijtimoiy-siyosiy, huquqiy targ‘ibot bo‘limi – Ijtimoiy-siyosiy targ‘ibot bo‘limiga, Ijtimoiy-iqtisodiy targ‘ibot bo‘limi esa Huquqiy targ‘ibot bo‘limiga aylantirildi.

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi huzurida shu paytgacha faqat yutib olgan grantlari asosida faoliyat olib borgan Milliy mafkura ilmiy targ‘ibot markazi davlat budgetidan moliyalashtiriladigan Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markaziga aylantirildi, uning vazifalariga Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi huzuridagi «Ma’naviyat» nashriyoti, «Oltin meros» jamg‘armasi, «Tafakkur» va «Jahon adabiyoti» jurnallari faoliyatini muvofiqlashtirish ham kiritildi.

Shu tariqa Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi amalda ikki qanotga ega bo‘ldi: Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi (ilmiy-nazariy va uslubiy qanot) hamda Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi (amaliy targ‘ibot qanoti).

Prezident Islom Karimovning shaxsiy tashabbusi bilan 1997-yil «Ma’naviyat asoslari» maxsus fani respublika ta’lim tizimiga joriy etildi. Respublika oliy ta’lim muassasalari rahbarlarining birinchi o‘rnbosarlari ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi rahbar etib belgilab qo‘yildi. Oliy ta’lim tizimida haftada bir marta ma’naviyat-ma’rifat soatlari o‘tkaziladigan bo‘ldi. Mamlakatimizning taniqli olim va ma’rifatparvarlari qisqa fursatda «Ma’naviyat asoslari» fani bo‘yicha namunaviy o‘quv dasturi, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalar yaratdilar.

Respublika davriy matbuotida ilmiy-amaliy mazmundagi yuzlab maqolalar, radio va televideniyeda maxsus eshittirish va ko‘rsatuvalar tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat olib bormoqda. Qisqa davrda «Ma’naviyat asoslari» fanidan o‘quv mashg‘ulotlari olib boruvchi o‘qituvchi mutaxassislar yetishib chiqdi. Bularning hammasi Prezident Islom Karimov ta’kidlagan «Yuksak ma’naviyat kelajak poydevoridir» degan prinsipni amalga oshirishga qaratildi.

Mamlakatimiz o‘z milliy mustaqilligiga erishgan 1991-yil 31-avgustdan boshlab ma’naviyat va ma’rifatga e’tiborni eng muhim masalalardan biri deb bildi. Madaniy merosni baholashda, umuman madaniy siyosatning konseptual asoslarini yaratishda, quyidagi to‘rt mezonga tayanilmoqda: 1) insonparvarlik; 2) taraqqiyparvarlik; 3) xalqchillik; 4) vatanparvarlik.

Istiqlolning to‘rtinchchi yilda mamlakat ma’naviy taraqqiyoti uchun jiddiy hodisa yuz berdi – 1994-yil 23-aprelda Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi tashkil etildi. Markazning rivojlanish tarixini quyidagi uch bosqichga bo‘lish mumkin:

birinchi bosqich (1994-yil 23-aprel – 1999-yil 3-sentabr) – Markazning shakllanish davri;

ikkinchi bosqich (1999-yil 3-sentabr – 2006-yil 25-avgust) – Ma’naviyat va ma’rifat kengashi orqali ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarning o‘zaro muvofiqlashtirilishiga erishish davri;

uchinchi bosqich (2006-yilning 25-avgustidan keyingi davr) – Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga erishish davri.

Endi shu uch bosqich xususiyatlari, shu davrlarda amalgalashishga oshirilgan ishlarga to‘xtalsak.

1. 1994–1999-yillar Markaz uchun shakllanish yillari bo‘ldi. Markazda «Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati», «Umuminsoniy va milliy qadriyatlar», «G‘oyalar, fikrlar va dasturlar jamg‘armasi», «Sotsiologik tadqiqotlar» bo‘limlari tuzildi, ular yetuk kadrlar bilan ta’minlandi, ish faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

1996-yil 9-sentabrdagi mamlakat Prezidentining «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi.

Bu hujjatda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarga davlat siyosati darajasida e’tibor berildi. Mazkur hujjatning yana bir muhim jihat shundan iboratki, yosh avlodni buyuk an’analaramiz, yuksak ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik ruhida porloq kelajak egalari etib tarbiyalash maqsadida 1997-yildan boshlab 1-oktabr «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» deb e’lon qilindi.

Markaz faoliyatini yanada jondorish maqsadida 1998-yil 24-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori e’lon qilindi. Unda joylarda ma’naviyat va ma’rifat bilan bog‘liq ishlarning ahamiyatiga yetarli darajada e’tibor berilmayotgani, istiqlol g‘oyalarini keng targ‘ib qilishda mahalliy ziyorilar, adabiyot, san’at namoyandalari va obro‘-e’tiborli faollarni jalb etish izchil yo‘lga qo‘yilmayotgani ta’kidlandi. Ular o‘z faoliyatlarini «Nuroniy», «Kamolot», «Mahalla», «Navro‘z», «Oltin meros», «Sog‘lom avlod uchun» jamg‘armalari va ijodiy uyushmalar bilan muvofiqlashtirgan holda olib bormayotganlari qayd etildi.

2. Ma’naviyat va ma’rifat kengashi orqali ma’naviy-ma’rifiy, g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarning o‘zaro muvofiqlashtirilishiga erishish davri (1999-yil 3-sentabr – 2006-yil 25-avgust). Markaz o‘z faoliyatini har qancha kuchaytirmsin, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, yon-atrofimizda sodir

bo‘layotgan voqealar, dunyoda kechayotgan globallashuv jarayonlari targ‘ibot-tashviqot ishlarini yangi bosqichga ko‘tarishni talab etayotgan edi. Ana shunday zaruratdan kelib chiqib, bir qator maqsad va vazifalari ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot bilan bog‘liq davlat va nodavlat tashkilotlari, xususan, «Ma’rifatchilar», «Faylasuflar», «Tarixchilar» jamiyatlari, «Sog‘lom avlod uchun», «Mahalla», «Kamolot», «Nuroniy», «Navro‘z», «Oltin meros», ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari, Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» markazi, Yozuvchilar, Bastakorlar, «Tasviriy oyina» uyushmalari, Badiiy akademiya, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta’limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini ta’sis etdi (1999-yilga qadar).

1999-yil 3-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi. Shu tariqa amalda mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ikkinchi bosqichi boshlandi. Asosiy shiori «Jaholatga qarshi ma’rifat» g‘oyasi bo‘lgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi unga a’zo tashkilotlar, ya’ni «Ma’rifatchilar», «Faylasuflar», «Tarixchilar» jamiyatlari, «Sog‘lom avlod uchun», «Mahalla», «Kamolot», «Nuroniy», «Navro‘z», «Oltin meros», Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash, «Ustoz», «Umid», «Ulug‘bek», Imom al-Buxoriy, Ibn Sino, Amir Temur, Bobur, «O‘zbekmuzey», Xalqaro «Ekosan» jamg‘armalari, O‘zbekiston Bolalar jamg‘armasi, Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat», «Huquqiy ma’rifat targ‘iboti», Respublika «Oila», «Ijtimoiy fikr», Baynalminal madaniy markazlari, Yozuvchilar, Bastakorlar, «Tasviriy oyina», «Olima» uyushmalari, Badiiy akademiya, Xotin-qizlar qo‘mitasi, Oliy va o‘rta maxsus, Xalq ta’limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, Din ishlari bo‘yicha, Davlat fan va texnika qo‘mitalari, Matbuot, Milliy teleradiokompaniya, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Mudofaaga ko‘maklashuvchi «Vatanparvar» tashkiloti, «Ma’naviyat» nashriyoti, O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi, «Hunarmand» assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, «Jahon adabiyoti», «Tafakkur» jurnallari, «O‘zbekkino» va «O‘zbekturizm» kompaniya-larinining ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot yo‘nalishidagi imkon va salohiyatlarini birlashtirish, faoliyatlarini muvofiqlashtirishni o‘zining asosiy maqsadlaridan biri etib belgiladi.

3. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga erishish davri (2006-yil 25-avgustdan hozirgacha).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida» 2006-yil 25-avgustidagi PQ-451-son qarori Markaz rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi.

Milliy mustaqillik yillarda davlatimiz tomonidan quyidagi hujjatlar chiqarildi:

1) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari: «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida» (1994-yil 23-aprel); «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida» (1996-yil 9-sentabr); «Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida» (1999-yil 3-sentabr).

2) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori: «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida» (2006-yil 25- avgustdagi PQ – 451-son).

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari: «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida» (1994-yil 8-iyun); «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» (1998-yil 24-iyul).

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Ma’naviyat asoslari» fani qanday zarurat asosida vujudga keldi?
2. «Ma’naviyat asoslari» fani qachondan boshlab respublika ta’lim tizimiga kiritildi?
3. «Ma’naviyat asoslari» fanini nimalar tashkil etadi?
4. «Ma’naviyat asoslari» fanining kategoriylarini sanab bering.
5. Prezident Islom Karimovning ma’naviyatga bergan ta’rifini aytib bering.
6. Prezident Islom Karimovning ma’naviyat to‘g‘risidagi qanday farmon va farmoyishlari e’lon qilingan?

2-mavzu.

MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING MA’NAVIYAT HAQIDAGI TA’LIMOTLARI

1. Markaziy Osiyo qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari

Bizning eng qadimiy ajdodlarimiz ma’naviyat va ma’rifati haqidagi ma’lumotlar asrlardan asrlarga o’tib, hozirgacha saqlanib qolgan asotir, afsona va qadimiy yozuvlarda saqlanib kelayotir. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bo‘lgan. Chunonchi kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo‘lib, ularda yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo‘yilgan. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi kurash mifologik obrazlar – Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Elikbek va boshqa obrazlarda mujassamlashtirilgan. Mitra – Quyosh xudosi. U kishilarga nur, issiqlik, baxtsaodat baxsh etadi. Shu bilan birga, u yaxshi qurollangan bo‘lib, dushmanlarga dahshat soladi, kishilarni ofatdan qutqaradi. Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega pahlavon sifatida tasvirlangan. U dushmaniga qarshi shafqatsizlik jang qiladi va uni mahv etadi. Mitra o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q o‘tmas qahramon.

Kayumars yer yuzida paydo bo‘lgan birinchi odam bo‘lib, Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujud – ho‘kiz va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo‘lgan Aximan Kayumarsni o‘ldiradi. Kayumars tanasining ho‘kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o‘simlik, sigir va ho‘kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo‘ladi; tananing odam qismidan esa erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelgan deb tasvirlanadi.

Yima (Jamshid) haqidagi mifda kishilar uchun najotkor hukmron obrazi tasvirlangan.

Shunday qilib, yuqoridagi kabi xalq og‘zaki ijodi – miflarda xalq najotkori va xaloskori tasvirlanadi, kishilarning ma’naviy g‘alabasi va o‘z kelajagiga ishonchi tasvirlangan.

Qadim Markaziy Osiyo aholisi yaratgan og‘zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi katta va muhim o‘rin tutadi. Ularda

xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashi asosiy o‘rin egallagan. Chunonchi, To‘maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi xalq eposlarida vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratilgan.

«To‘maris» eposida Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga, xususan miloddan avvalgi VI asrda bu o‘lkaga bostirib kirgan Eron ahamoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilasining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo‘smini tor-mor etilib, uning o‘zi miloddan avvalgi 529-yilda jang maydonida o‘ldiriladi, boshi tanasidan judo etilib, qon to‘ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, Vatan va o‘z xalqi baxti-saodati yo‘lida fidoyilik qilishga shay turish kabi yuksak ma’naviyilik sak qabilasining cho‘poni Shiroq timsolida tasvirlangan.

To‘maris va Shiroq xalq qahramonlari bo‘lib, o‘z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamagan mislsiz mardlik va jasorat timsoli sanaladi.

Qadimiy turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklardan bizgacha O‘rxun-Enasoy yodgorliklari saqlanib qolgan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari V–VIII asrlarga mansub bo‘lib, ulardan Kul Tagin, Bilka Qoon, Tunyukuk qabr toshlariga o‘yib yozilgan matnlar ayniqsa ahamiyatlidir. Bu yozuvlar turkiy-run yozuvi deb ham yuritiladi. Run yozuvi – «yashirin», «sirli» yozuv demakdir. Chunki ularni ancha vaqtgacha o‘qishning iloji bo‘lmagan.

Kul Tagin Bilka Qoon – ulug‘ hoqonning ukasi bo‘lib, 732-yilda vafot etgan. U urushlarda zo‘r qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan. Kul Tagin qabr toshida o‘z ukasining vafotidan qattiq qayg‘uga tushgan Bilka hoqonning tilidan aytilgan judolik qayg‘usi – marsiyasi badiiy ifodalangan. Chunonchi: agar Kul Tagin bo‘lmasa edi, hammangiz halok bo‘lur edinglar. Mening inim Kul Tagin o‘ldi, men qattiq qayg‘urdim, ko‘rar ko‘zlarim ojiz bo‘ldi, aql-fahmim o‘tmas bo‘lib qoldi. Qismatni ko‘k samo (xudo) taqsim qiladi, odam bolasi o‘lish uchun tug‘ilgan kabi fikrlar yozilgan.

Kul Tagin qabr toshi yozuvi turk xoqonligining ijtimoiy-siyosiy hayoti, qabila va xalqlarining urchodatlari, tili va mafkurasi bilan tanishtiruvchi manbadir.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyo qadimiy madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat o‘choqlaridan

biri bo‘lgan, degan xulosa chiqara olamiz. Biz bu bilan faxrlanishimiz lozim.

«Avesto»da inson, uning ma’naviyati masalalari. «Avesto» – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Uning tarixiy ahamiyati haqida Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrni bildiradi: «Eng mo‘tabar, qadimgi qo‘lyozmamiz «Avesto»ning yaratilganiga 3000 yil bo‘lyapti. Bu nodir kitob bundan 30 asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma’naviy, tarixiy merosidir. «Avesto» ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi»¹.

Zardusht miloddan avvalgi 660-yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo‘lib, karomatgo‘y bo‘lgan ekan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakka xudolikni targ‘ib qilgan. 28 yoshida shuhrat qozonadi, lekin uning targ‘ibotlari mahalliy hukmdorlarga yoqmaydi. Uni osishga hukm etadilar. Zardusht o‘zi bilan 300 ga yaqin safdoshlarini olib, hozirgi Afg‘oniston tomon yo‘l oladi va o‘z g‘oyalarini targ‘ib etadi. U 77 yil umr ko‘rgan.

Zardushtiylikning paydo bo‘lishi miloddan avvalgi X asrga to‘g‘ri keladi. Uning muqaddas kitobi «Avesto» ham birdan yuzaga kelgan emas. U bir necha asrlar mobaynida yaratilgan. Zardusht «Avesto»ning qadimiylarini o‘rganib va to‘plib, bir kitob holiga keltirgan. U 30 ta kohin bilan uch yil davomida «Avesto»ning bilimlarini yig‘ib, bir tizimga solgan va 12 ming ho‘kiz terisiga zarhal harflar bilan yozdirgan.

«Avesto» quyidagi besh qismdan iborat:

1. Vendidod – 22 bobdan iborat bo‘lib, unda Axura Mazda yer yuzidagi barcha mavjudotlarning yaratuvchisi ekanligi bayon etiladi.
2. Visparad – 24 bobdan iborat bo‘lib, ibodat qo‘shiqlaridan tashkil topgan. Zulmatga qarshi kuchlar kuylanadi.
3. Yasna – 72 bobdan iborat bo‘lib, qurbanlik vaqtida, marosimida aytildigan qo‘shiqlardan tashkil topgan.
4. Yasht – 22 qo‘shiqdan iborat, unda zardushtiylik ma’budlari madh etilgan.
5. Xo‘rda Avesto – (Kichik Avesto) – Quyosh, Oy xudolari va boshqa ma’bulular sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 95.

Zardushtiylik va uning muqaddas kitobi «Avesto»ning ko‘p qismi Iskandar Zulqarnayn va arablar istilosini davrida yo‘qolib ketgan. Bizgacha yetib kelgan nusxasi 1374-yilda ko‘chirilgan bo‘lib, hozir Kopengagendagi kutubxonada saqlanib kelmoqda.

Zardushtning o‘zi tarixiy shaxs bo‘lgani ham munozarali masala. «Zardusht» – sariq tuya mingan, degan ma’noni anglatadi. «Avesto» ta’limotiga ko‘ra, olamda ikkita – yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik kabi qarama-qarshi kuchlar mavjud bo‘lib, ular hamisha murosasiz kurashib keladilar. Yaxshilik va yorug‘lik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qiladi. Bu kurashda yorug‘likning zulmat, yaxshilikning yomonlik ustidan g‘alabasiga ishonch bildiriladi.

«Avesto»da ma’naviyat va ma’rifat masalalariga katta e’tibor berilgan. Chunki «Avesto»ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan «ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» degan tamoyilni oladigan bo‘lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin»¹.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi, yaxshilik va moddiy boyliklar manbai deb hisoblanadi. Inson saxovatli bo‘lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o‘z qo‘li bilan noz-ne’matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. Unda: «Don ekkan kishi taqvodorlik urug‘ini ekadi, u Mazda ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, iymonni oziqlantirib turadi», – deyiladi. Bunga amal qilish o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish yerdagi yovuzlikni yo‘qotishga tenglashtiriladi. «G‘alla yerdan unib chiqqanida, – deyiladi «Avesto»da, – devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganida devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchilib un qilinayotganida ular mahv bo‘ladi...».

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma’naviyati quyidagi uchlikda: *Gumata* – yaxshi fikr, *Gugta* – yaxshi so‘z, *Gvarsha* – yaxshi ish ifodalananadi. «Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman», – deb ta’kidlaydi Axura Mazda.

Yaxshi fikr deganda, yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik, xavf-xatar ostida qolganda, yordam berishga shaylik, odamlar baxt-saodati uchun faol kurashga doim tayyor turish, hamma bilan ahil-totuv yashash kabilalar tushuniladi.

¹ Qarang: Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 32.

Yaxshi so‘z deganda, va’da vafo qilish, bergan so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lish, qarzini o‘z vaqtida uzish, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan tiyilish kabilar tushunilgan.

Yaxshi ishlar deganda, insonning o‘z xatti-harakatida, yaxshi fikr va yaxshi so‘zlarida ilgari surilgan barcha ijobiy yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilishi nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham shafqatli bo‘lishni talab qilgan. Hayvonlarni kaltaklash va qiyash gunoh hisoblangan. Kishilar foydali hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularni o‘z vaqtida oziqlantirib turishga, yirtqich hayvonlardan qo‘riqlashga da’vat etilgan.

«Avesto»da tozalik, poklikka alohida e’tibor qaratilgan. Hovuzdan iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra urish bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish qat’iyan qoralangan.

«Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan. Hozirgi tibbiyat fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi qudashilik munosabatlari naslga salbiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlagan. Ajdodlarimizga bu qadimdayoq ma’lumligi hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Shunday qilib, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimiy zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga muhim ahamiyat berilgan.

Insonningjismoniy va ma’naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridan. Oilava nikoh yaratganning talabiga mos kelgani bois, uni buzish taqiqlangan. Oilada er yoki xotinning axloqsizlik, ya’ni buzuqchilik sodir etishi tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar. Zardushtiylik ta’limotidan ko‘rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo‘l qo‘ymaganlar.

«Avesto»da aholining ko‘payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilib, beliga temir kamar bog‘lab yurish buyurilgan.

Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalikda bo‘lishi kerakligi, u yerlarda mevali daraxt o‘stirish mumkin emasligi, archa, qayrag‘och kabi mevasiz daraxtlar o‘stirish kerakligi ta’kidlanadi. «Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi bo‘lgan Ilon va jom tasvirlangan. Bu ham ma’naviyatimiz qadimiyligini ko‘rsatuvchi

dalillardan biridir. Kitobda ma'rifat, ilm va hunarni boshqalarga o'rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Xulosa shuki, «Avesto» kitobida ajdodlarimizning ko'p ming yillik ma'naviy merosi namunalari aksini topgan. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi illatlar qoralanadi, sof ko'ngilli bo'lish, xiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik kabi ma'naviy fazilatlar targ'ib etiladi.

Moniylik va mazdakizm ta'limotlarida ma'naviyat masalalari. Markaziy Osiyoda quldorlik jamiyati milodiy II–III asrlariga kelib inqirozga yuz tutishi va o'z o'rmini feodal munosabatlarga bo'shatishi zardushtiylik ichida yangi oqim – moniylik ta'limotining yuzaga kelishi va kuchayishiga olib keladi. Ushbu oqimning asoschisi bo'lgan Moniy (216–276-y.) tarixiy shaxsdir. Uning ta'limoti hukmron tabaqalar manfaatiga zid bo'lgani uchun 276-yilda vahshiylarcha o'ldirilgan. Moniyning ma'naviy-axloqiy qarashlari haqida «Sir ul-asror» (Suru asror kitobi), «Kitob ul-xudo-vost-tadbir» (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), «Shaburkan» va boshqa asarlarda ham bayon etib o'tilgan.

Moniy ta'limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta'limotiga asoslangan bo'lib, keng xalq ommasining manfaatiga mos kelgan. Moniylik ta'limotida dunyo ziyo (yorug'lik) va zulmat (qorong'ulik)ning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovuzlikni yo'q qilish uchun yaxshilik, ezgulikka ko'maklashish degan ma'naviy-axloqiy ta'limot ilgari suriladi.

Moniy ta'limotida inson soflikka, o'z gunohlaridan xolilikka faqat tarkidunyo qilib, hayot kechirish orqaligina erishishi mumkin, deb hisoblanadi. Moniylik axloqi dindorlardan imkoniboricha kam ovqat yejish, ro'za tutish, o'z turmushi, hayoti uchun keragidan ortiqcha mol-mulkka, boylikka ruju qo'ymaslik, dabdabasiz, o'rtacha hayot kechirishni targ'ib etadi. Moniy o'z muridlari, izdoshlarini dunyoviy ishlarda surbet bo'lmaslik va dunyoda ko'p narsalarga intilmaslikka da'vat qiladi. Boshqacha aytganda, inson hayoti davomida orttirgan boyliklarini o'zi bilan narigi dunyoga olib keta olmaydi, ularning hammasi undan keyin qolib ketadi. Moniy aytadi: «Men o'z umrimda ko'p hokimlarni ko'rdim, ular dunyoda axloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo oxirida g'am-alam, tubanlikka duchor bo'ldilar». Demak, Moniyning bu so'zlari hamma uchun taalluqli, ibratdir.

V asrning oxiri VI asr boshlarida Eronda «mazdakizm» deb atalgan boshqa bir diniy-falsafiy ta'limot yuzaga kelib, u Markaziy Osiyoda ham keng yoyildi. Mazdakizm feodal munosabatlarning rivoji bilan bog'liq

holda xalq ahvolining og‘irlashuvi, ikki o‘rtada ziddiyatlar va kurashning kuchayishi oqibatida yuzaga kelgan.

Mazdakizm moniylik ta’limotini to‘ldirib, uning zohidlik – noumidlik g‘oyalarini dunyoga umid bilan qarash g‘oyalariga almashtiradi.

Mazdak Eronning Nishapur shahrida tug‘ilgan. Dehqonlar qo‘zg‘oloniga yo‘lboshchilik qilganligi uchun 529-yilda Anushirvon tomonidan qatl etilgan. Mazdak feodal mol-mulkini umumiylashtirishni, feodallar hukmronligini yo‘qotishni talab etadi.

Mazdakizmda dunyoni tushunish asosida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat kurashi yotadi deb qaraladi. Bu kurashda yaxshilik yomonlik ustidan, yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, deb ishonch bildiriladi. Mazdakning aytishicha, yomonlik va zulmat kuchlari hukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo‘lmasliklari, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak.

Mazdakning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tengsizlik kishilar o‘rtasida ziqlalik, o‘g‘rilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turlituman falokat va baxtsizliklarni keltirib chiqaradi. Shu bois bunday yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi asosning o‘zini tugatish kerak, deb hisoblaydi. Alloh hammaga mol-mulkni teng bo‘lgan, ammo boylar xudbinlik qilib, barcha ne’matlarni o‘zlashtirish yo‘liga o‘tgan. Kambag‘allar ham mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega, shu bois boybadavlat kishilar mol-mulkining bir qismini kambag‘al, bechoralarga taqsimlab berishi odil ish bo‘ladi degan g‘oya ilgari suriladi. Albatta, Mazdakning bunday qarashlari hukmron tabaqa manfaatlariga zid bo‘lgan. Mana shuning uchun ham Mazdak va uning tarafдорлари ta’qib qilingan va shafqatsiz jazolangan.

Xulosa shuki, moniylik va mazdakizm Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy yuksalishi, ayniqsa, ularning adolatsizlik, zulm, zo‘rlik, shafqatsizlikka qarshi kurashlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

2. Uyg‘onish davri ma’naviyati (IX–XIX asrlar)

Endilikda jahon ma’naviyati va ma’rifati sultanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk allomalarimizni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash vaqt keldi. Afsuski, salkam 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik totalitar tuzum hukmronligi davrida, Prezident Islom Karimov aytganidek, xalqning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston

xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi¹.

Ajdodlarimiz e’zozlab kelgan, asrlar silsilasidan olib o‘tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasihatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko‘zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo‘ldi, e’tibordan chetda bo‘ldi. Bu esa yosh avlodning ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Vaholanki, Islom Karimov «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» kitobida ta’kidlaganidek, «O‘tmishdagi allomalarining bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta’sir ko‘rsatmoqda»².

Qur’oni Karim va Hadisi sharifda ma’naviyat masalalari. Islom dini jahonda keng tarqalgan dinlardan biridir. Bu dinga e’tiqod qiluvchilar – musulmonlar qariyb 1 milliard 600 milliondan ortiq kishini tashkil etadi.

«Islom» arabcha so‘z bo‘lib, «xudoga o‘zini topshirish», «itoat», «bo‘ysunish» ma’nolarini beradi. Shu bois bu dindagilar «muslim» deb ataladilar. Uning ko‘plik shakli «muslimun» bo‘lib, o‘zbeklarda «musulmon», qirg‘iz va qozoqlarda «musurmon» deb ataladi.

Islom dini Arabiston yarim orolida VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Uning asoschisi payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) (570–632) Makkada quraysh qabilasiga mansub bo‘lgan Hoshimiylar xonardonida tug‘ilgan. U 609–610-yillarda Makkada yakka xudoga e’tiqod qilish to‘g‘risida targ‘ibot boshlagan. Ammo zodagonlarning qarshiligiga uchragach, 622-yilda o‘z tarafдорлари bilan Madina (Yasrib)ga ko‘chgan (hijrat qilgan). Shu yildan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlanadi.

630-yilga kelib, Makka ham musulmonlar qo‘liga o‘tadi va musulmon davlati shakllanadi. Muhammad (s.a.v.) vafotidan keyin bu davlatni uning o‘rinbosarlari, ya’ni noiblari (xalifalar) boshqarganlar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda «Arab xalifaligi» deb nom olgan. Dastlab Arab xalifaligi katta hududni egallagan. Markaziy Osiyo yerlari – Movarounnahr arablar tomonidan istilo qilinishi natijasida, ular bilan birga islom dini ham kirib keldi. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda islom madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati o‘ziga xos ravishda shakllandı va taraqqiy etdi.

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 86.

² Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёsat, мафкура. Т.1. – Т., 1996. – Б.32.

Islom diniy ta’limotining asoslari Qur’on va hadis to‘plamlarida o‘z ifodasini topgan.

Qur’oni karim ilohiy kitob bo‘lib, farishta Jabroil alayhissalom tomonidan Muhammad (s.a.v)ga nozil etilgan. Bu muqaddas kitob Yer yuzi musulmonlarining diniy ahkomlar manbaidir. Qur’oni karim sahifalarini bir kitobga jamlash xalifa Abu Bakr davrida boshlanib, xalifa hazrati Usmon davrida yakunlangan va to‘rt nusxada ko‘chirilgan. Ulardan biri Mavarounnahr musulmonlari diniy idorasida saqlab kelingan, hozirda esa Toshkentdagi Temuriylar davri muzeyida saqlanmoqda. Bunday muqaddas kitobning yurtimizda bo‘lishi Allohning yurtimizga ko‘rsatgan inoyati deb bilmox lozim. Qur’oni karimda 114 ta sura, 6236 ta oyat bor. Mustaqillik sharofati bilan turli marosimlarimiz Qur’oni karim qiroatlaridan boshlanmoqda.

Ilohiyotda islom dini uch unsurdan – *iymon*, *islom*, *ehson* iborat deb e’tirof etilgan. Iymon talablari 7 aqidani – Allohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va o‘lgandan keyin tirilishga ishonish talablarini o‘z ichiga oladi. Islom talablariga, ya’ni din asoslariga Arkon ad-din deb nom olgan 5 ta amaliy marosim talablari kiradi. Bular – iymon (kalima) keltirish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish va imkoniyati topilsa, haj safarini amalga oshirish talablari. Ehson aqidalarga sidqidildan ishonish va marosimlarni ado etishdir.

Islomning kishilar ongi va turmush tarziga ta’sir etishi, ular hayotidan mustahkam o‘rin olishini ta’minlovchi diniy marosimlar – xatna, ro‘za hayiti, qurbanlik va qurban hayiti, mavlud, ashuro va boshqalar ham shakllangan. Bundan tashqari, mahalliy xalqlarda islomgacha mavjud bo‘lgan urf-odatlar, jumladan kinna soldirish, fol ochirish, dam soldirish, muqaddas joylarga, avliyolarga sig‘inish kabi odatlar ham islom marosimlariga moslashib ketgan.

Hadislar – islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba. Hadislar to‘plami sunnat deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so‘zlari, qilgan amallari va sahabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan.

Hadisi shariflarni yig‘ib kitob shakliga keltirish, asosan payg‘ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan.

Bu sharafli ish hijratning uchinchi asriga kelib keng avj oldi va hadisshunoslikning oltin davri deb ataladi. Islom olamining o‘scha davrdagi madaniy markazlaridan sanalgan Bag‘dod, Kufa, Basra, Damashq, Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz kabi shaharlarda hadis ilmi bilan

shug‘ullanuvchi olimlar – muhaddislar ko‘p bo‘lgan. Ular ichida eng ishonchli manba sanalgalnari oltita bo‘lib, bularni imom Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Dovud, imom at-Termiziy, imom an-Nasoiy va imom ibn Moja tuzganlar. Ana shu muhaddislarning to‘rt nafari turonzaminlik bo‘lgani bizning faxrimizdir. 1998-yilda imom al-Buxoriy tavalludining 1225-yilligi butun musulmon dunyosi, shu jumladan yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqil O‘zbekistonda shu munosabat bilan xalqaro anjuman o‘tkazildi. Muhaddislik nihoyatda sharaflvi sermashaqqat ish bo‘lgan, u muhaddisdan yuksak aql-zakovat, kuch-quvvat, fidoyilik, iqtidor va xotirani talab qiladi. Masalan, imom Buxoriy jami 600 mingta hadis to‘plab, ulardan 100 mingta sahih va 200 mingta g‘ayrisahih hadislarni yod bilganligi aytildi.

Islomda axloqiy-huquqiy qonun-qoidalar majmui bo‘lgan shariat XI–XII asrlarda to‘liq shakllangan. Shariat qonun-qoidalari Qur’on va sunnat asosida ishlab chiqilgan. Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va axloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar «Hidoyat», «Viqoya», «Muxtasari hidoya», «Muxtasari viqoya» kitoblarida jamlangan.

Shariatda qonunlar muqaddas hisoblanib, unga ijtimoiy holatidan qat’i nazar, har bir mo‘min-musulmon Allohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

Qur’oni karim, hadislar va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlarning mukammal to‘plamidir. Qur’oni karim, hadislarni, shariat ko‘rsatmalarini o‘rganar ekanmiz, ularda axloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon bilan bog‘liq birorta ham muhim masala e’tibordan chetda qolmaganini ko‘ramiz. Ayniqsa, islam harom va halol masalasiga musulmonlarning alohida e’tiborini qaratadi. Shariatda Alloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Shariatda ijozat etilgan hamma narsalar, yeyiladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar halol deb hisoblangan. Ijozat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa haromdir. Alloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

Halol qilingan narsalar va ishlar ko‘pchilikka ma’lum, ular haqida ko‘p eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib o‘tish va eslatib turish joizdir. Bulardan ayrimlariga quyidagilar kiradi: sog‘ bo‘la turib bekor yurish, zinokorlik, ota-onaga oq bo‘lish, savdo-sotiqla g‘irromlik qilish, birovning haqiga, omonatiga xiyonat qilish, qasamxo‘rlik, sudxo‘rlik,

o‘g‘rilik, qaroqchilik, mayxo‘rlik, g‘iybat, tuhmat, joususlik, qotillik, poraxo‘rlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardir.

Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, g‘amxo‘rlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida e’tibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qo‘l urish, insof-diyonatli, vijdonli bo‘lish, mehr-shafqatlilik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sofdir bo‘lish, birodariga yordam berish, kamtarlikka chaqirish g‘oyalari ilgari surilgan.

Payg‘ambar hadislarida axloqiy kamolot borasidagi ba’zi fikrlar quyidagicha:

Munofiqlik belgisi uchtadir: yolg‘on so‘zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga xiyonat qilishdir.

Omonat qo‘ygan kishining omonatini o‘z vaqtida ado eting.

Haqingizga xiyonat qilgan kishiga siz xiyonat qilmang.

Qachonki bir gunoh qilib qo‘ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.

O‘zimdan keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo‘rqaman: 1) nafsga berilib, yo‘ldan ozishdan; 2) nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishdan; 3) ilmu ma’rifatga ega bo‘la turib, g‘ofillarning ishini tutishdan.

Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat biling: o‘limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bandlikdan avval bo‘sh vaqtini, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan avval boylikni.

Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng esa otangga yaxshilik qil.

Ota-onalarning keksalik vaqtida har ikkisini yoki biri bo‘lmaganda, boshqasini rozi qilib jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin.

Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir.

Muborak hadislardan keltirilgan ushbu o‘gitlarning ma’naviy ta’siri to‘g‘risida izoh berishning hech hojati yo‘q.

Islom faqat aqida emas, avvalo, ma’rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad payg‘ambargacha bo‘lgan davr arablarda «johiliyat» (nodonlik) davri deb ataladi. Islom ana shu nodonlik o‘rniga keng ma’nodagi ma’rifat, madaniyatni vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san’atni rivojlantirdi, o‘ziga xos ma’naviyat va ma’rifatni yaratdi. Ulug‘ ajdodlarimiz islom ma’naviyati va ma’rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib, kalom ilmi, fiqh, tasavvuf ta’limotini rivojlantirdilar.

Xullas, islom barcha mo'minlarni to'g'ri yo'lga chorlovchi, inson-parvar din ekanligini anglab yetishimiz zarur. Shunda dindan ma'naviy va ma'rifiy tarbiyada foydalanish zaruratini to'g'ri anglab yetamiz.

Tasavvuf va uning ma'naviy jihatlari. Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma'naviyatimiz va ma'rifatimizga chuqur ta'sir o'tkazgan tasavvuf (so'fizm) ta'limoti VIII asr o'rtalarida shakllangan. Dastlab u zohidlik (tarkidunyochilik, dunyo hoyu havasidan voz kechish) harakati ko'rinishida bo'lib, Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq shaharlarida keng yoyilgan.

Aslida tasavvuf so'zi «so'fiy» so'zidan, «so'fiy» esa arabcha «so'f» so'zidan yasalgan. So'f deb arablar jundan bo'lgan matoni aytadilar. Dastlabki davrlarda so'fiylik yo'lini tutgan kishilar, boshqa oddiy kishilardan ajralib turish uchun jundan tikilgan chakmon (u xirqa deb ham aytilgan) yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar. Shuning uchun ularni suf (jun chakmon) kiyib yuruvchilar, ya'ni so'fiylar deb ataganlar. So'fiy boshqa odamlardan pok va g'aribona turmush kechirishi, doimiy toatibodatda bo'lishi va faqat ilohiy ruhga qo'shilish maqsadi bilan farq qiladi.

So'fiylik ta'limotiga asosan, komil inson bo'lish uchun avvalo, jism va nafs ehtiyoji va tamani yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini nafsiga qul qilib qo'yadi. Darvesh, so'fiy nafsni rad etadi. Nafs barcha falokatlarning sababchisi bo'lib, insonni tubanlashtiradi. Insonni falokat botqog'idan, tubanlik jaridan qutqarish, poklashning birdan-bir yo'li nafs ehtiyojini yengishdir. Xoja Bahouddin Naqshband aytadilar: «O'z nafsining yomonligini tanish o'zligini tanishdir».

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston allomalarining xizmatlari beqiyos bo'lgan. Xoja Hakim at-Termiziyy, Shayx Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy, xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniyy, Shayx Najmuddin Kubro, xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy ma'rifikat yo'lining rahnamolari bo'lganlar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, odamlarni insofli, diyonatli, iymonli bo'lishga chaqirishda foydalanish o'rinli. Yassaviy nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurashni inson hayotidagi eng katta kurash deb hisoblagan. Uning fikricha, nafsiga mag'lub shoh – qul, nafsidan ustunlikka erishgan g'arib shohdir. Nafs – inson uchun katta yov. Shu

yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo‘lmagan kishining g‘ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi. Yassaviy o‘z hikmatlaridan birida shunday deydi:

«*Nafs yo ‘liga kirgan kishi rasvo bo ‘lur,
yo ‘ldan ozib, toyib, to ‘zib gumroh bo ‘lur.
Yotsa-tursa, shayton bilan hamroh bo ‘lur ...».*

U nafs bandalariga qarata: «Nafsni tebgil, nafsni tebgil ey badkirdor», – deb murojaat etadi va:

«Nafsim meni yo‘ldan urib xor ayladi,

termultirib xaloyiqqa zor ayladi», – deb nafs bandalarini tanqid etadi.

Nafs insondagi iymonni sindiradi, uni «jarlikka» qulatadi. Shu bois «Nafsni tanib mehnat etsa, rohat», – deb xitob qiladi. Bu g‘oyalar hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g‘oyat muhimdir.

Movarounnahr tasavvuf ta’limotida Xoja Bahouddin Naqshbandning o‘rni alohida ekanligini ham qayd etishimiz lozim. Naqshbandiya ta’limoti hayratlanarli darajada katta ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy ma’nomohiyatga, hayotiy mazmunga ega.

Naqshbandiya ma’naviy-axloqiy ta’limotida hurfikrlikka keng o‘rin berilgan. Bu sulukdagilar mehnat qilish, ilm olish, o‘z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne’matlarni ko‘pchilik bilan baham ko‘rish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko‘rishni afzal bilganlar.

Bahouddin Naqshbandning fikricha, aybsiz odam yo‘q, shu bois aybsiz do‘st axtarsak, do‘stsiz qolamiz. Buyuk so‘fiy odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta’kidlab, sham kabi o‘zi qorong‘ida bo‘lib, odamlarga yorug‘lik berishga chaqirgan.

Xoja Bahouddinning «Diling Allohda, qo‘ling esa ishda bo‘lsin», degan hikmatining inson ma’naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati beqiyosdir.

Najmuddin Kubro siy whole side faqat tariqat boshchisini emas, balki o‘z Vatanini, xalqini dildan sevgan insonni ko‘ramiz. 1221-yilda mo‘g‘ul bosqinchilarining qadami Xorazmga ham yetib boradi. Muhammad Xorazmshoh mamlakatni, fuqaroni o‘z holiga tashlab qochadi. Shu qaltis damlarda Urganchni himoya qilishga 76 yoshlik Najmuddin Kubro boshchilik qiladi va jangda qahramonlarcha shahid bo‘ladi. Uning siy whole side xalq qahramoni sifatida asrlar osha yashab kelmoqda.

Najmuddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqatining qoidalari o‘nta bo‘lib, ularda bu tariqat yo‘lini tutgan so‘fiyning ma’naviy dunyosi qanday bo‘lishi ko‘rsatilgan. Insonning sabr-toqatli bo‘lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan ketmaslik, hech qanday pastkashlik, riyo, makr va hiyla-

nayrangga bormaslik, hayvoniy xususiyat – shahvoniy hirslarga berilmaslik g‘oyalari ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, tasavvuf ilmi inson odobini, ya’ni ma’naviyatini yanada kuchaytirgan butun islom axloqining eng muhim qadriyatlarini bir nuqtaga jamladi, shu tariqa komil inson nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqdi.

IX–XV asrlarga ma’naviyat va ma’rifatning g‘oyat gullab-yashnashi xos bo‘lgan. Bu davrda Markaziy Osiyoda qomusiy ilm egalari, iste’dodli shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Ular orasida al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy, al-Forobi, Ibn Sino, al-Beruniy kabi mutafakkirlar alohida o‘rin tutadilar.

Bu davrga kelib, Xorazm, Buxoro, Hirotda yirik ilmiy markazlar tashkil topgan. Xorazmiy, Forobi, Ibn Sino, Farg‘oniy, Beruniy, imom al-Buxoriy, imom Iso at-Termiziy, Hakim at-Termiziy kabi Markaziy Osiyo olimu ulamolarining dong‘i yetti iqlimga ketgan edi.

Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi 1998-yilda yurtimizda keng nishonlandi. Uning vafoti 861-yildir. U mashhur falakiyotshunos olim. Uning asosiy asarlari «Falakdan bo‘ladigan sabablar», «Osmon harakatlari va yulduzlar ilmi» kabilardir. Ahmad al-Farg‘oniyning «Astronomiya asoslari» kitobi o‘scha davrda astronomiya sohasidagi bilimlarning qomusi bo‘lgan. Unda qadimgi falakiyotshunoslik bilimlari, uning qoidalari, usullari bayon qilingan. Asar XII asrdayoq lotin tiliga tarjima qilinib, ko‘p asrlar davomida Yevropada astronomiya bo‘yicha qo‘llanma, darslik sifatida foydalanib kelingan. Ahmad al-Farg‘oniy al-Fraganus nomi bilan butun Yevropada mashhur bo‘lgan.

Muhammad Muso al-Xorazmiy (780-850) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimidir. Uning ilmi nujum, geodeziya, jug‘rofiya, ayniqsa, riyoziyot sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. U arab, hind, lotin, yunon, fors tillarini bilgan. Xorazmiy algebra faniga oid «Kitob al-jabr va al-muqobala» asarining muallifidir. U tenglamalarni yechishning ikki usulini: al-jabr, ya’ni qarama-qarshi ishoralarni yagona musbat ishoraga keltirish va al-muqobala, ya’ni bir xil hadlarni qarama-qarshi qo‘yishni kashf etdi.

Al-Xorazmiyni Yevropada Algaritmus deb ataganlar. Algoritm esa uning lotincha nomi.

Abu Nasr Forobi (873-950) «Sharq Aristoteli», «Ikkinchchi muallim» deb ulug‘langan mashhur mutafakkirdir. Forobiyning fikricha, insonning va jamoaning g‘alabaga erishuvi, yaxshilikni qo‘lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko‘tarilishi inson va jamoaning o‘z qo‘lidadir.

Alloma davlatni fozil va johil davlatlarga bo‘ladi. Uning fikriga ko‘ra, fazilatli shaharlarda ilm, falsafa, axloq, ma’rifat bиринчи о‘rinda bo‘lmog‘и lozim, shunda jamiyat yetuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig‘и bilimni, haqiqatni sevuvchi, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qarovchi, adolatni yaxshi ko‘rvuch va adolat uchun kurashuvchi bo‘lishi kerak.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) umri davomida 150 dan ortiq asarlar yaratgan. Shulardan eng mashhurlari «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar», «Mas’ud qonuni», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Saydana» va boshqalardir. Garchi Beruniy falsafiy-axloqiy masalalarga oid maxsus asar yozmagan bo‘lsa-da, ammo ko‘pgina asarlarida bu masala borasida fikrlar bayon etgan.

Beruniy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrllagan, eng insoniy axloqiy sifat deb maqtab, amalda o‘zi namuna ko‘rsatgan. Bir necha yil Hindistonda yashagan 45 yoshli olim qadimgi sanskrit tilini o‘rganib, Evklidning «Elementlar» asarini bu tilga tarjima qilgan. Beruniyning fikricha, kishilar uchun dunyoda turli hollar bor. Bular maqtaluvchi – yaxshilik va qoralanuvchi – yomonlikdir. Maqtaluvchi hollarning tayanchini poklik va tozalik tashkil qiladi. Beruniy fikricha, insonning oliy fazilati boshqalar, ayniqsa, kambag‘allar haqida g‘amxo‘rlik qilishdir.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) «Shayx ur-rais» (Olimlar boshlig‘и) unvoniga ega allomadir. U umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning «Tib qonunlari» nomli 5 jilddan iborat kitobi asrlar davomida Sharq mamlakatlari va Yevropada tibbiyot bo‘yicha asosiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilib kelgan.

Uning «Kitob ash-shifo», «Kitob ul-insof», «Donishnoma», «Solomon va Ibsol» kabi asarlari mashhur. U falsafiy-axloqiy mazmundagi asarlarida hukmdorlarni qonun buzilishlariga qarshi kurashishga, xalqning talablariga qulq solishga, adolat yuzasidan ish yuritishga chaqiradi. Adolat inson xatti-harakatining eng yaxshi bezagi, deb ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim») asari bilan mashhurdir. Bu asar 1069-yilda yozilgan bo‘lib, uni shoir Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bag‘ishlagan. Shu asari uchun unga Xos Hojib, ya’ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahramonlari – hokim Kuntug‘di – adolat ramzi, vazir Oyto‘ldi – baxt ramzi, vazirning o‘g‘li O‘gdulmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi.

Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqalar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolga yetishi haqidagi g‘oyani ilgari suradi.

Uning fikricha, birovga foydasi tegmaydigan inson o'likdir. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi o'rinni tutadi. Shuning uchun Yusuf Xos Hojib hokimga adolatli bo'lish, o'zboshimchalik va qonunsizlikka yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi.

Ahmad Yugnakiy XII asr oxiri va XIII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan. Undan bizgacha «Hibbat ul haqoyiq» dostoni yetib kelgan. U dostonida dunyoning bevafoligi, o'tkinchiligi haqida gapirib, dunyoni karvon oz fursatga to'xtab o'tadigan rabot (karvonsaroy)ga o'xshatadi. Shu sababli, uning fikricha, bu dunyodagi rohat-farog'atga intilish befoyda, uni deb azob-uqubat chekishga arzimaydi, chunki «Sen bugun ko'rib turgan boylik ertaga g'oyib bo'ladi, sen o'zimni deb bilgan buyumlar boshqalarga qolib ketadi». Shu bois faqat yaxshilik urug'ini sepish uchun yashash kerakligi uqtiriladi. Alloma bilimli, ma'rifatli kishilarni yetuk kishilar deb hisoblaydi, faqat yaxshi odamlardan do'st orttirishni maslahat beradi. Faqat yaxshi ishlar qilib, yaxshi natijalar kutish mumkin, chunki «tikan ekib, hosiliga uzum olmaysan», deb aytadi.

Xullas, IX–XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan, ma'rifat, ma'naviyat yuksak darajada rivojlangan.

XIV–XVI asrlar ma'naviyati. Amir Temur (1336–1405) – buyuk davlat arbobi, yuksak ma'naviyat sohibi, jasur sarkarda, qonunshunos, mahobatli inshootlar qurdirgan me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurti, xalqini sevgan va uni jahonga mashhur qilgan inson.

Shukrlar bo'lsinki, mustaqillik tufayli ko'pming yillik boy tariximizni, shu jumladan ulug' bobomiz Amir Temur hayoti va ijodini o'rganish imkoniga ega bo'ldik.

Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy va Sharofuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» singari asarlarida ta'riflangan sohib-qironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o'gitlaridan ham uning buyuk shaxsligini bilib olish mumkin bo'ladi.

Sohibqironning «Temur tuzuklari»dan quyidagi satrlarni keltiramiz:

«Yuz ming otliq askar qila olmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalga oshirish mumkin».

«Zolimlardan mazlumlar haqini oldim. Zolimlar yetkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimidan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o'rniga boshqasiga jabr-zulm o'tkazmadim».

«Kimki birovning molini zo'rlik bilan tortib olgan bo'lsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish

sindirsa, ko‘zni ko‘r qilsa, qulqoq va burun kessa, sharob ichsa, zino qilsa, devondagi shariat qozisiga olib borib topshirsinlar».

Temuriylar davrida ma’naviyat. Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar Sharofiddin Ali Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar – Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy; musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak naqqosh; hattotlar – Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur kabilar bu davrda ma’naviyat va ma’rifat rivojiga ulkan hissalarini qo‘shganlar. Ular o‘z davri va o‘zlarigacha bo‘lgan insoniyat ma’naviyati, ma’rifati va madaniyati yutuqlarining barcha sohalarini mukammal bilib va o‘zlashtirib olganlar, o‘zları tanlagan sohalarning hali hech kim tomonidan zabit etilmagan cho‘qqilarini egallagan ulug‘ siymolar, qomusiy ilm, aql sohiblari bo‘lganlar.

Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari ijodida yuksak pog‘onaga ko‘tarilgan musavvirlilik san’ati Sharq uyg‘onish davrining yutuqlaridan biridir.

Mirzo Ulug‘bek (1394-1449) Samarqandda «Samarqand akademiyasi» –Ulug‘bek akademiyasiga asos solgan edi. «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» («Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali») va «To‘rt ulus tarixi» nomli asarlarning muallifidir.

Tarixchi olim Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, «Ulug‘bek geometriya borasida Evklidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga o‘xshagan».

Mirzo Ulug‘bek fan homiysi bo‘lishi bilan birga, mamlakatda ma’rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergen allomadir. U Movarounnahrda bir emas, uch madrasa quzdirdi. Bulardan biri Samarqandda (1417–1420), ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchinchisi G‘ijduvonda (1433)dir. Hatto Buxorodagi madrasa peshtoqiga «Ilm olish har bir mo‘min va muslima uchun farzdir», degan hadisni yozdirib qo‘ygan.

Mirzo Ulug‘bek buyuk olim, ilm-fan, ma’rifat homiysi bo‘lgan. U geometriya, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, mantiq, musiqa ilmlarini yaxshi bilgan. Qur’on, hadis va fiqh ilmlaridan ham mukammal xabardor bo‘lgan alloma. XV asrda aniq fanlarning, xususan astronomiyaning rivojida Mirzo Ulug‘bekning xizmatlari beqiyos. Uning dahosi bugun ham insoniyatga xizmat qilmoqda.

Alisher Navoiy (1441–1501) «Chor devon», «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Majolis un-nafois», «Lison ut-tayr» kabi ko‘plab asarlar muallifidir.

Navoiy o‘z asarlarida zolim, mustabid, nodon, maishatparast shoh va hukmdorlarni qoralab, insonparvar, xalqparvar, odil, adolatli hukmdor obrazini ularga qarshi qo‘yadi.

Navoiy saxovat va muruvvatda benazir inson bo‘lgan. O‘zining joylardagi yer-suvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini to‘laligicha xayriya ishlariga sarflagan.

Navoiyning bundan qariyb 550 yil avval ilgari surgan g‘oyalari asrlar osha ahamiyatini, hayotiyligini yo‘qotgani yo‘q. Prezident Islom Karimovning insonparvarlik, xalqlar tinchligi uchun olib borayotgan faoliyati Alisher Navoiy g‘oyalarining ayni zamonda ham hayotga tatbiq etilayotganining dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fani, ma’rifati, ma’naviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Bunda ulug‘ bobomiz, davlat arbobi, sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir.

XVI–XIX asrlar davri ma’naviyati. XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asr boshlarida Markaziy Osiyoda ma’naviy-ma’rifiy qarash rivoji Boborahim Mashrab (1653–1711) nomi bilan chambarchas bog‘liq. Mashrabdan boy ma’naviy badiiy meros qolgan. Mashrab o‘sha vaqtida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida tarqalgan tasavvufning qalandarlik oqimiga e’tiqod qilib, o‘zining isyonkorona g‘azallari bilan jamiyatdagiadolatsizlikka qarshi kurashgan. O‘z g‘azallarida axloqiy, ma’naviy poklikka erishish, hayotdagi illatlarga qarshi kurashni targ‘ib qilgan.

U o‘zi davri hokimlaridan adolatni kutadi. Hatto ularga murojaat qilib, xalq to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni, ularning arz-dodlariga qulop solishni so‘raydi. Mashrab kishilarni boylikka hirs qo‘ymaslikka, o‘zgalarga yaxshilik qilishga, saxiylikka, halol bo‘lishga, o‘z mehnati evaziga yashash, nafjni tiyishga chaqiradi.

XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida ijod qilgan Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan biri Mirzo Abdulqodir Bedil (1644–1721)dir. Undan juda boy adabiy meros qolgan, u Sharqning yuksak ma’naviyat-ma’rifatga ega ijodkori bo‘lgan.

Bedil o‘z asarlarida avvalo inson, mirishkor dehqon haqida alohida mehr, hurmat va ehtirom bilan yozgan. U insonni irqi, millati va diniy e’tiqodidan qat‘i nazar, hurmat va ehtiromga sazovor oliy zot deb bilgan. Bu haqda shunday deydi: «Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal’undir». Ushbu fikr har qanday davr uchun ham oljanob, ibratlidir.

«Odam abadiy yashashi mumkinmi», degan savolga mutafakkir ijobiy javob beradi. U insonga ikki xil abadiylik xosligini aytadi. Birinchisi umumi abadiylik bo‘lib, u hamma narsaga, shu jumladan odam tanasiga ham xos moddiy abadiylikdir.

Ikkinchisi xususiy abadiylik bo‘lib, u o‘z faoliyati, mehnati, yaxshi ishi bilan insonlarga manfaat yetkazgan kishilarga xos. Bedil tiriklikning ma’nosini daraxt o‘tqazish, ekin ekish, ularni parvarish etish, bechoralarga xayr-saxovat, ojizlarga yo‘l ko‘rsatish, bemorlarni borib ko‘rish kabilarda deb uqtiradi.

XVIII–XIX asrlar ma’naviyati va ma’rifati rivojida Turdi, Huvaydo, Gulxaniy, Maxmur, Nodirabegim, Uvaysiy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Feruz va boshqalarning o‘rni va roli ham beqiyosdir.

XIX asrda Markaziy Osiyoda ma’naviyat va ma’rifat rivoji Ahmad Donish (1827–1897) ijodi va ma’rifatparvarlik faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib ketgan. Uning fikricha, inson turli fanlarni egallab, dunyo sirlaridan voqif bo‘la oladi.

«Biz, – degan edi Ahmad Donish, – dunyoni gullatib-yashnatish, yer osti boyliklarini topish, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini tadqiq etish, uning hamma qit’alari va aholisini bilish uchun tug‘ilganmiz». Ahmad Donish ilmni, ma’rifatni rivojlantirish, xalqni savodxon qilish orqali qoloqlikdan qutulish mumkin, deb ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi.

O‘zbek ma’rifatchiligi Muqimiyl, Furqat, Avaz O‘tar, Zavqiy va boshqalar ijodida ham alohida o‘rin tutadi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy faoliyati va ijodida millat ozodligi uchun kurash bilan bog‘lanib ketgan. Jadidchilik, aslida, ma’rifatparvarlik harakatining ko‘rinishidir. «Ma’rifat»ning lug‘aviy ma’nosi bilish, tanish, bilim olish demakdir. Boshqacha aytganda, ma’rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonidir. «Ma’rifat» so‘zining ko‘pligi «maorif»dir. «Ma’rifat» atama sifatida tabiat, jamiyat va insonning mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma’lumotlar majmuuni bildiradi. Ma’rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma’lumoti bor, demakdir.

«Jadidchilik» – yangilanish, yangi usul ma’nolarini anglatadi. U yangi zamонавиј maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo‘llari tarafdarlarining umumi nomi. Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari: Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, «Usuli qadim»ni inkor etgan holda o‘lkani, xalqni, millatni

zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo‘shin tuzish va boshqalardan iborat bo‘lgan.

Xullas, jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr bosqlarida milliy uyg‘onish va milliy ong yuksalishida katta rol o‘ynagan.

Prezidentimiz Islom Karimov «Turkiston» gazetasi muxbiri bilan «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz» deb nomlangan savol-javoblarida: «Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug‘vor va murakkab vazifalarni hal qilish eng avvalo ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalasiga borib taqaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik diqqatini jalb etish kerak. Matbuot orqali, televide niye orqali odamlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, saxovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur»¹, – deb ta’kidlaganida yuqorida nomlari keltirilgan ma’rifatparvarlar kabi fidoyi, saxiy, millatparvar bo‘lishga da’vat etgan edi.

Jadidlar harakatining Turkistondagi namoyandasini, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir (1879-1919). Behbudiy Samarqand shahrida dindor oilada tug‘ilgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqib, hisob, huquq, din, arab va fors tillaridan chuqur saboq olgan. U haj ziyoratini ado etib, Makka va Madinaga boradi, Misr va Turkiyada bo‘ladi. Sankt-Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shahrlarida bo‘lib, yangi davr madaniyati bilan yaqindan tanishadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bolalarga diniy va dunyoviy ilmlarni berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilmlarni olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani ko‘tarib chiqdi. U quyidagi uch qoidani olg‘a surdi: 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish; 2) millat taqdiri va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni yetishtirish; 3) milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikr-lay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Behbudiy shunday yozadi: «Maorif bo‘limida ishlayturg‘on musulmonlarning boshini silangiz ... o‘rtadan niqobni ko‘taringiz, Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar. Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatin-

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан курамиз. Т.7. – Т., 1999. – Б. 304–305.

gizlar...»¹. Qatag‘onlar davrida Mahmudxo‘ja Behbudiy erksevarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalari uchun ta’qib ostiga olindi va o‘ldirildi.

Jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan yana biri Munavvarqori Abdurashid o‘g‘li (1878–1931). U Toshkentda tug‘ilgan. Munavvarqori ham boshqa jadidchilar kabi xalqni savodli va ma’rifatli qilishni Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotining asosiy omili deb tushungan. U ana shu fikrga tayanib, Toshkentda 1901-yilda yangi uslubda ta’lim beradigan maktab ochgan, unda mudarrislik qilib, musulmon bolalarni o‘qitgan. O‘z zamonasi uchun maqbul bo‘lgan «Adibi avval», «Adibi soniy», «Yer yuzi» kabi darsliklar yozgan. U ko‘proq yetimlar va beva-bechoralarning bolalarini o‘qitishga ahamiyat bergen.

Munavvarqori ta’lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, xalqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini ko‘tarmay turib jamiyatda katta o‘zgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib yetadi. Munavvarqorining millat taraqqiyoti yo‘lida ilgari surgan g‘oyalari tufayli zo‘ravon Sho‘rolar hukumati uni ta’qib ostiga oldi. 1931-yil 25-aprelda esa otib tashlandi.

Milliy uyg‘onishga chorlovchi g‘oyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniyidir. U millatning ma’naviy inqirozda bo‘lishini tanqid qildi, barchani savodli bo‘lish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallahga chaqirdi. Abdulla Avloniyining «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir» degan g‘oyasi ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturiga aylangan. U ma’rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma’rifat ziyyosidan bahramand qilishda beqiyos xizmatlar ko‘rsatdi. «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida ma’rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. «Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdir. Zeroiki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. To‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas‘ul bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Bizlarni ilm jaholat qorong‘uligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur. Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni orttirur... Alhosil, butun hayotimiz,

¹ Qarang: *Турдиеев III. Махмудхўжа Бехбудий //Мулоқот. – 1994. – № 3. – Б. 47.*

salomatimiz, himmatimiz, g‘ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog‘liqdur»¹.

Ilm egalarining foydasi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz, hurmatga sazovor bo‘ladilar. Shu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar. Ular ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar. Yuksak ma’naviyat va ilm-ma’rifat tufayli Turonzamin yer yuzida shuhrat qozongan.

3. O‘zbekistonda ma’naviyat davlat siyosati darajasida

O‘zbek xalqi 130 yilcha mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma’naviy merosi poymol etildi, tarixi soxtalashtirildi, ilmiy, madaniy, binobarin, ma’naviy merosga salbiy qarash hukm surib, cheklab qo‘yildi. Xalqimizning ongi sal bo‘lmasa ijtimoiyadolatsizlik, ma’naviyatsizlik, nopolik va yovuzlikka qarshilik ko‘rsata olmay tobe yashayverishga ko‘nikib qolayozgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z tarixiy ma’naviy merosidan to‘laqonli, emin-erkin foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lib keldi.

Faqat mustaqillik sharofati tufayligina ma’naviy merosimizni, ko‘hna va navqiron tariximizni o‘rganish, jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo‘ldik.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o‘tib bormoqdamiz, milliy-ma’naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalarini vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz. Mustaqillik yillarida ma’naviy merosimiz rahnamolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi va etilmoqda. Chunonchi, Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi, Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi keng nishonlandi. 1998-yilda imom al-Buxoriy hazratlari tavalludining 1225 yilligi, Ahmad al-Farg‘oniyning 1200 yilligi nishonlandi.

Mustaqillik yillari Qur’oni karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib, ko‘p ming nusxada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to‘rt jildlik hadislarini chop etish tugallandi. Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to‘plami

¹ Qarang: *Иброҳимов А., Султонов Ҳ., Жўраев Н.* Ватан туйғуси. – Т., 1996. – Б. 350.

chop etildi. Qur’oni karim sharhlariga oid ko‘plab kitoblar chop etilgani va ulardan xalqimiz bahramand bo‘layotganining guvohi bo‘lib turibmiz.

Mustaqillik yillari Ramazan va Qurbon hayitlari diniy bayram sifatida nishonlanmoqda. Navro‘z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotidan mustahkam o‘rin oldi. Har yili 3000 dan ziyod vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko‘plab masjid va madrasalar ta’mirlandi.

Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzoning nomi qayta tiklandi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi, Mirzo Ulug‘bekning esa 600 yilligi keng nishonlandi va shu munosabat bilan yurtimizda beqiyos ma’naviy-ma’rifiy ishlar amalga oshirildi.

Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilarini Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummiliy bayram sifatida nishonlandi.

Qatag‘on yillarida millatimiz mustaqilligi yo‘lida qurban bo‘lgan xalqimizning sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Vatanimiz poytaxti Toshkent shahrida Shahidlar xiyoboni barpo etildi.

Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma’naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yillik to‘ylari 1997-yilda katta tantanalar bilan nishonlandi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, xalqimizning milliy qahramoni buyuk vatanparvar Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, xalqimizning buyuk merosi hisoblangan «Alpomish» dostonining 1000 yilligi, milliy ma’naviyatimiz rivojiga ulkan hissa qo‘sghan buyuk davlat arbobi, fan homiysi Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning 190 yilligi 1999-yilda keng nishonlandi.

2000-yil esa ilohiyot ilmining darg‘asi Abu Mansur al-Moturidiyning muborak yubileyi, 2001-yili yana bir ulkan merosimiz hisoblangan «Avesto»ning 2700 yilligi nishonlandi.

O‘zbek tilining davlat tili darajasiga ko‘tarilishi borasida bir qator ijodiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat idoralarida ish yuritish, shaharlarda ko‘chalar va joylarni nomlashda tarixiy haqiqat tiklanmoqda. Ma’naviy merosimiz sanalgan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima etilmoqda. Xullas, mustaqillik yillarida o‘zbek tilining xalq va davlat hayotidagi asosiy ahamiyati va o‘rnini tiklash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa millatning, mustaqil davlatimizning qadr-qimmati mustahkamlandi, maktablar va oliy o‘quv yurtlarida rusiy zabon

yoshlarning o‘zbek tilini o‘rganishlari uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Mustaqillik yillari ma’naviyatimizning muhim elementi hisoblangan ta’lim va tarbiya tizimiga milliy ruh bag‘ishlashda bir qator ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida «Ta’lim to‘g‘risida» qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Sog‘lom avlod dasturining qabul qilinishi milliy ma’naviyatimizning yuksalishida, mamlakatimizning kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, millatimiz obro‘-e’tiborining oshib borishida ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shu bilan birga, milliy-ma’naviy tiklanish borasida ko‘لامи jihatidan juda katta vazifalar turibdi. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Zero, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz»¹.

Bugun O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha ishlar xalqimizning qaddini ko‘tarmoqda, o‘zligini anglashiga va mamlakatimiz rivojiga xizmat qilmoqda, millatimizning kelajagini mustahkamlamoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezidentimiz Islom Karimov boy ma’naviy merosimiz, dinu iymonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug‘ bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqidagi tarixiy haqiqatni tiklashga shaxsan rahnamolik qilib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Xorijda siymosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Yevropa tillarida 500 dan ziyod, Sharq tillarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘pdan-ko‘p suratlari ishlangan, qisqasi, dunyoga mashhur ulug‘ zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi.

Istiqlolimiz endi kurtak otayotgan davrda Toshkentning qoq markazidagi xiyobonda sohibqironga o‘rnatilgan muhtasham haykal «mustaqillik poydevoriga qo‘yilgan oltin g‘isht bo‘ldi».

Oradan sal o‘tib, 1994-yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996-yilda esa sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o‘tkazildi. Parijdagi YUNESKO qarorgohida o‘tkazilgan yubiley tantanalari jahon miqyosida, ayniqsa katta ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

¹ Qarang: *Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 144.

qaroriga ko‘ra, «Amir Temur» xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Dunyoning taniqli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilari, tarixchilari ishtirokida ilmiy-amaliy anjumanlar o‘tkazildi. Prezident farmoni bilan yuksak mukofot – «Amir Temur» ordeni ta’sis etildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishi respublikamiz, xalqimiz hayotida muhim voqeа bo‘ldi. Yubiley munosabati bilan ko‘plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar nashr etildi.

Ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shu bois ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar. Xalqimiz azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. Bu o‘lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘sghan allomalar yetishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar. Bunga 1998-yilda Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi va hadis ilmi sultonim imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi keng nishonlanganligini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Prezident Islom Karimovning «O‘zbekistonning o‘z istiqloli va taraqqiyoti» nomli asarida mustaqillikdan keyin O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy sohadagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlarini belgilab berar ekan, «O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi», – deb ta’kidlaydi. Bular:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik¹.

Asarda xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishda ma’naviyatning roli ko‘rsatib o‘tilgan: «Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan yetilgan»².

¹ Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Т., 1996. – Б. 74.

² O‘sha manba. – B. 78.

Ma’naviyatning millat taraqqiyotidagi o‘rnii va uni o‘zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi»¹.

Islom Karimov o‘z asarida mamlakatimizda milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatidagi ustuvor vazifa ekanligiga e’tibor qaratib, quyidagi konseptual g‘oyani ilgari suradi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak deydiganlar haq bo‘lmasa kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt-saodat bo‘lmaydi».

Prezidentimizning milliy-ma’naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g‘oyasi sog‘lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruratining ilmiy asoslanganidir. Uning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo‘lishi, yuksak bilim, ma’naviyat, tafakkur sohibi va fidoyi vatanparvar bo‘lishi kabi talablar nazarda tutiladi. Shuning uchun ham u: «... farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi»², – degan g‘oyani ilgari suradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson va jamiyat uchun ahamiyati, shuningdek nazariy va amaliy tomonlarini keng tahlil qilgan. Mustaqilligimiz tarixiy hayotida eng ustuvor bo‘lgan ma’naviy, ma’rifiy g‘oyalari yangi zamon ruhi va kelajak hayotimiz bilan chambarchas bog‘langan. Ya’ni xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi, ma’naviy tarbiya masalalari aslo e’tibordan chetda qolmasligi kerakligi ta’kidlanadi. Shuningdek, tarixiy xotiradan ayrylish, hushyorlik va sezgirlikni, mas’uliyatni yo‘qotish, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yish oxir-oqibat taraqqiyot yo‘limizdan chiqib ketishga olib kelishi mumkinligi yana bir bor ta’kidlanadi³.

¹ O‘sha manba. – B.78.

² Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000. – Б. 65.

³ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 4.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nima uchun Markaziy Osiyo Sharqning yuksak ma'naviyat va ma'rifat markazi deb yuritiladi?
2. Markaziy Osiyolik buyuk mutafakkirlardan kimlarni va ularning qanday asarlarini bilasiz?
3. «Jadid» so‘zining ma’nosi nima?
4. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishi sabablarini tushuntiring.
5. Jadidchilik harakatining namoyandalaridan kimlarni va ularning qanday asarlarini bilasiz?
6. Mustamlakachilar xalqni tarixidan, ma'naviyatidan mahrum qilishga intilishining sabablarini izohlang.
7. Prezident Islom Karimovning «ma'naviyat» tushunchasiga bergen ta'rifining mohiyatini tushuntiring.

3-mavzu.

MILLIY VA UMUMINSONIY MA’NAVIYAT DIALEKTIKASI

1. Milliy va umuminsoniy ma’naviyat tushunchalari

Milliy ma’naviyatni tahlil qilishni «millat» tushunchasini izohlashdan boshlash maqsadga muvofiq.

«Millat» so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, quyidagi uch ma’noni anglatadi: 1) din, mazhab; 2) ummat; 3) xalq, qavm. «Millat» so‘zi Qur’oni karimda ham qo‘llanilgan. Qur’onda har bir millat vakilining o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi – savobli ish, o‘z millatidan, qavmidan kechib, boshqa millatga o‘tib olishi esa gunohligi aytilgan.

Yevropa tillarida qo‘llaniladigan «natsiya» so‘zi esa qabila, xalq degan ma’nolarni bildiradi.

Binobarin, bu ikki tushunchada ham asosan muayyan etnik birliklarning o‘ziga xosligini anglatuvchi ma’nolar jamlangan.

Ilgarigi ma’ruzalarda ta’kidlanganidek, insonlar, jamiyat rivojlanib borgan sari ma’naviy munosabat, aloqalar rivojlanib boraveradi. Ular jamiyat taraqqiyotida katta rol o‘ynab kelgan.

Ma’naviyatni uch guruhga bo‘lish mumkin: *birinchisi* – milliy ma’naviyat, *ikkinchisi* – mintaqaviy ma’naviyat, *uchinchisi* – umuminsoniy ma’naviyat.

Milliy ma’naviyat – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo‘lgan g‘oyat qimmatli ma’naviy boyliklardir.

Mintaqaviy (regional) ma’naviyat – muayyan jug‘rofiy mintaqaga millatlariga xos, ular uchun umumiyl bo‘lgan ma’naviy boyliklardir. Masalan, O‘rta Osiyo xalqlarining ma’naviyati yoki Sharq va G‘arb ma’naviyati mushtarak, o‘xshashdir.

Mintaqaviy ma’naviyatda turli elatlarning umumiy birligi, bir-biriga yaqinligi, turmush tarzi va moddiy hayot sharoitlariga xos mushtarak jihatlar namoyon bo‘ladi.

Umuminsoniy ma’naviyat – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy-axloqiy boyliklardir.

Milliy ma’naviyat – boshqa millat ma’naviyatidan tubdan farq qilinadigan ma’naviyat degani emas. Chunki, bizdagi milliy ma’naviyat boshqa xalqlarda muayyan tarzda bor, mavjuddir. Ammo milliy ma’naviyatda boshqa xalqlarning ma’naviyati aynan takrorlanmaydi.

Shunday bo‘lganda edi, milliy ma’naviyat bo‘lmas va biz bu haqda to‘xtalmas edik.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kun, bir yil, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomili jarayoni bilan bog‘liq. Unda ba’zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo‘lishi mumkin. Milliy ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi. Bunda esa u ba’zan shiddat bilan yuksalib rivojlansa, ba’zan esa ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Insoniyat tarixiy jarayonidan bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar yuz berib o‘tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ammo ma’naviyat yuksalib, boyib, tobora kengroq ko‘lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyat qismi ma’naviy tanazzulga yuz tutgan fojiaviy sharoitlarda ham milliy ma’naviyat yo‘qolmaydi, ko‘lami va mazmuni jihatdan o‘zi yetishgan kamolot bosqichini yo‘qotmaydi.

Millat mavjud ekan, milliy ma’naviyat bo‘ladi. Milliy ma’naviyatni yo‘qotish mumkin emas. Milliy ma’naviyatni yo‘qotish uchun qanchalik harakat qilinsa, shunchalik milliylikni, milliy ma’naviyatni saqlash uchun kurash kuchayadi. Xulosa shuki, inson qalbidagi milliylikni yo‘qotish mumkin emas.

Ko‘rinadiki, milliy ma’naviyat hodisasi ham tarixiy, ham hozirgi kunda mayjudligini saqlab turgan ko‘p o‘lchamli voqelikdir. Inson ma’naviy olamining o‘lchamlari cheksiz bo‘lib, uni hech bir narsa bilan o‘lhash, qiyoslash mumkin emas. Milliy ma’naviyat, avvalo, milliy ongda rivojlanadi. Shuning uchun ham mustaqillikka erishganimizdan buyon milliy ongni shakllantirishga, milliy-ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy ongning rivojlanishi pirovard milliy o‘zlikni anglash sari yetaklaydi.

Milliy ma’naviyatning asosiy belgisi va o‘zagi milliy axloq sanaladi. Bizning milliy axloqimizga xos belgilar boshqa xalqlarning ham axloqiy qarashlarida muayyan tarzda namoyon bo‘ladi.

Milliy ma’naviyatda milliy his, tuyg‘u, ruhiyat ham muhim o‘rin egallaydi. Chunonchi, boshqa yurtga safarga borgudek va o‘scha yerda milliy kuy, qo‘schiqni eshitgudek bo‘lsak, bizning vujudimizni ajib bir his, tuyg‘u qamrab oladi va undan ruhiy huzur olamiz, ya’ni ma’naviy oziqlanamiz.

Milliy ma’naviyatda milliy manfaat ham muhim rol o‘ynaydi. Sobiq sho‘rolar davrida milliy manfaatni millatchilikka yo‘yanlar va milliy

manfaat yo‘lida harakat qilgan kishilar, rahbarlar va yozuvchilarni millatchi deb badnom etganlar.

O‘zbek xalqi uchun umuminsoniy ma’naviyat bilan birga, milliy ma’naviyat va uning boyliklari ham g‘oyat qimmatlidir. Bularga o‘zbek xalqi yaratgan, boyitgan, saqlab kelayotgan, avloddan-avlodga o‘tib, boyib, sayqal topib, rivojlanib borayotgan milliy ma’naviy boyliklar, ajdodlardan qolgan axloqiy an’ana, marosimlar, pand-nasihatlar kiradi.

O‘rta Osiyo mutafakkirlarning ilmiy merosi aks etgan manbalarda o‘zbeklarda qadrlangan, axloq-odob, ma’naviy fazilatlar haqida ko‘plab qimmatli fikr, ma’lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarida o‘zbeklarga xos ko‘plab ma’naviy-axloqiy sifatlar tasvirlanadi. Bular iymon-e’tiqodlilik, andishalilik, oilaga muhabbat, bolajonlik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, farzandlarning ota-onalariga, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug‘lariga mehribonligi, diniy qadriyatlarga rioya qilish, savodxonlik, saxovatlilik, xushfe’llik, shirinso‘zlik, mardlik, odillik, hayolilik, saxiylik, oqko‘ngillik, mehnatsevarlik kabilardir.

O‘rta Osiyoga sayohatga kelgan Herman Vamberi «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asarida Oltin O‘rdadagi o‘zbeklarning musulmoncha tarbiyalangani, savdo-sotiqa og‘ir-vazminligi, oqko‘ngilligi va samimiyligi, kamgapligi, sadoqatliligi, dovyurakligi, shinavandligi, oilaviy munosabatlarda pokligi, mulohazaliligi, andisha bilan to‘g‘ri so‘zlashishi, ota-onaga hurmat va e’tiqodining kuchliligi, birinchi bo‘lib o‘tirmasligi va birinchi bo‘lib so‘zlamasligi, mug‘ombirlikni bilmasligi, dinga e’tiqodi kuchliligi jihatidan anatoliyalik turklarga o‘xshashlarini ta’riflagan.

O‘zbek xalqining hozirgi milliy ma’naviyati va qadriyatları o‘tmish milliy ma’naviyatining davomi bo‘lib, ularga do‘stlik, mehmondo‘stlik, odamgarchilik, insonparvarlik, axloqiy poklik, tadbirkorlik, fazilatlilik, saxiylik, xushmuomalalik, jamoada o‘zini tuta bilishlik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe’llik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro‘zg‘orparvarlik, shirinso‘zlik, tashabbuskorlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo‘ylik, halollik, or-nomuslilik, to‘g‘rilik, rejaliilik, poklik, sabr-andishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o‘tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g‘urur, mustaqillikni qadrash, vatanparvarlik, millatparvarlik va boshqa milliy, ma’naviy-axloqiy fazilatlar kiradi.

Millat, xalq bor ekan, uning ma’naviy dunyosida milliylik doim saqlanib qoladi. O‘zbeklarning milliy ma’naviyati, erkak va ayollarga xos

sharqona axloqiy fazilatlar, ota-onas, farzandlar, qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-ko‘y aloqalari, halollik, iymon, vijdon bilan bog‘liq ma’naviyat an’anaviyligi bois, hozirgi kun uchun ham xosdir.

O‘zga millatlarning ma’naviy qadriyatlari qanchalik ta’sir ko‘rsatmasin, kattalarga, ota-onaga hurmat, kamtarlik, halollik, iymon, mehnatsevarlik, mehmondo‘slik singari milliy ma’naviy fazilatlar hamisha barqarordir. Chunki bu ma’naviy xislatlar avloddan-avlodga o‘tib, qon-qonimizga singib ketgan. Ayollarimiz qanchalik zamonaviylashmasinlar, ular hayo, ibo, nomus, oila, qarindosh-urug‘larga munosabat bobida sharqona, o‘zbekona fazilatlarni tark etmaydilar. Millat bor ekan, uning ma’naviyati saqlanib qoladi va rivojlanaveradi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ota-onani, yoshi ulug‘larni va kichiklarning izzat-hurmat qilish ham milliy ma’naviyatimizga kiradi. Bu yo‘l istiqbolni o‘tmishning boy tajribasi bilan bog‘lashga yaqindan yordam beradi.

Odatda, kishilar, ko‘pincha, ikki masalada xatoga yo‘l qo‘yadilar. *Birinchisi* – yoshlarni hali yosh deb, ularga ishonmaslikda, *ikkinchisi* – keksalarni qariya deb chetga surib qo‘yishda. Yoshlarda kelajakka intilish bilan bog‘liq katta tashabbus, kuch va g‘ayrat mavjud. Keksalar esa hayot yo‘lida ko‘p issiq va sovuq kunlarni boshlaridan kechirib, boy tajriba orttirganlari bois ularda uzoqni o‘ylab, bosiqlik bilan ish qilish, yetti o‘lchab, bir kesish singari yetuk tafakkur salohiyati bor. O‘zbeklarning «Qari bilganni pari bilmas», hikmatida ko‘p ma’no bor. Yoshlarning tashabbusi, kuchi, g‘ayrati keksalarning boy hayotiy tajribasi bilan bog‘langanda yaxshi ijobjiy samaralar beradi. Keksa avlodning bilimi, hayot tajribasi yoshlarni uchun ma’naviy kamolot va ibrat maktabidir. Keksa avlodning hayot tajribasini mensimaslik hamma davrlarda ham jamiyat uchun falokatli oqibatlarga olib kelgan. Chunonchi, 1920–1930-yillarda hali hayotning biror og‘ir sabog‘ini olmagan, baland-pastni bilmagan 15–17 yoshli komsomollar ko‘plab ishbilarmon, mehnatsevar dehqonlarni quloq qilish, molu mulkini musodara etib, uzoq yurtlarga surgun qilish vazifasini o‘z zimmasiga olganlari ham katta iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy bo‘ronlarga sabab bo‘ldi. Hozir ham keksalarning qadriga yetmaydigan, ularni mensimaydigan yoshlarni oz emas. Bu o‘zbek milliy ma’naviyatidagi qusurli hol, ko‘rinish. Uning oldini olish zarur.

Sovet totalitar tuzumi sharoitida ma’naviy-axloqiy fazilatlarning milliy jihatlari, an’analarini inkor etish yoki kansitish kuchaydi. Ular ma’naviy qoloqlikning ifodasi sifatida talqin etildi. Sharq xalqlari, jumladan o‘zbek

xalqining ko‘p ming yillik ma’naviy boyliklarini o‘zida ifodalagan hadislar, shariat hukmlari xurofot deya qoralandi.

Xalqimizning axloqiy andisha, sharmu hayo, halollik va pokizalik, inson qadr-qimmatini ifodalagan ma’naviy qadriyatlariga zid bo‘lgan yevropacha an’analar yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Shu tufayli ma’naviy tubanlik yuzaga keldi. Yoshlarda asriy milliy ma’naviyatimizga zid bo‘lgan bag‘ritoshlik (farzandni, ota-onani tashlab ketish singari), qotillik (o‘z farzandini o‘ldirib, yashirish), xudbinlik, maishiy buzuqlik, giyohvandlik kabi ma’naviy qiyofa yuzaga kelib, ildiz ota boshladi.

Buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy va boshqa fidoyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo‘lgan ma’naviy inqiroz haqida kuyinib gapirib, bunday og‘ir vaziyatdan ta’lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqali chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. «Tarbiya, – degan edi Abdulla Avloniy, – bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir».

Bu fikrning ahamiyati hozirda ham kamaygani yo‘q. O‘zbek millati faqat milliy ma’naviy kamolot tufayli yuzaga kela boshlagan milliy-ma’naviy aynishning oldini olishi mumkin.

Sovet totalitar tuzumining barbod bo‘lishi, O‘zbekistonning o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi jamiyatimiz ma’naviyatida chuqurlashib borayotgan inqirozning oldini olish uchun Tangrining inoyati, xalqimizning baxti bo‘ldi. Milliy mustaqillik tufayli jamiyatimizda milliy ma’naviy poklanish, o‘nglanish, tiklanish jarayoni yuz berdi. Yosh avlodni, yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish, iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish hozirgi kundagi milliy-ma’naviy tarbiya ishining asosiy maqsadidir. Shu o‘rinda milliy-ma’naviy tarbiya va uning asosiy yo‘nalishlari va mohiyatini aniqlab olish zarur.

Milliy tarbiya – u yoki bu millat, elatni tashkil qiluvchi kishilarning milliy madaniyatni, merosni, qadriyatlarni, urf-odatlarni, an’analarni o‘zlashtirishdagi faoliyatini rivojlantirish bo‘lib, u milliy ong va milliy o‘zlikni anglashning subyektidir.

Milliy tarbiyaning asosiy yo‘nalishlarini millatparvarlikni, xalqparvarlikni, vatanparvarlikni, mehnatsevarlikni, yuksak insoniylikni rivojlan-tirish, merosni, urf-odatlari, qadriyatlarni, fan, texnika, texnologiyalarni o‘zlashtirishga intilishni rivojlan-tirish, mehr-oqibat, iymon-e’tiqod, ornomus, insof-diyonat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini

tushunib yetish va unga amal qilish ruhiyatini shakllantirish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiyaning yana bir yo‘nalishi – ota-onas, qarindosh-urug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tushunchasining barqaror bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o‘zga millat va elat vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi.

Milliy tarbiya asosiy yo‘nalishlari mazkur kursning boshqa mavzularida alohida ko‘rib chiqiladi.

Yuqorida qayd etganimizdek, ***umuminsoniy ma’naviyat*** – butun insoniyatga, jahon xalqlariga tegishli bo‘lgan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviyat uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirda esa ma’naviy jihatdan juda qimmatli, inson qalbida o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, insoniyat ijtimoiy manfaatlari, ehtiyojlari uchun xizmat qiladigan, ezgulikka yo‘llaydigan ma’naviy boyliklardir. Umuminsoniy ma’naviy boyliklarga esa ilm-fan, jumladan falsafiy tafakkur yutuqlari, adabiyot va san’at asarlari, kashfiyot va ixtiolar, ma’naviy madaniyat durdonalari, hurfikrlik, umuminsoniy axloqiy me’yorlar va boshqalar kiradi.

Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. «Oltin zanglamas, quyosh qoraymas» deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham qadimiylari va doim navqiron bo‘lib turaveradi. U umumbashariy ma’naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalanish imkoniyatlari va u haqda g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo‘sniinchilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashamoqda, uni insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do’stlik, halollik, vatanparvarlik kabilar ham umuminsoniy ma’naviyat sanalib, ular har qaysi xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi.

O‘zidan yoshi kattalar, ota va onaga hurmat ko‘rsatib, farzandlar haqidagi g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlar ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalminallik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgandir.

Yuqorida ta’kidlangan ma’naviyatga doir tushunchalar hamma millat, xalq uchun bab-barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy ma’naviyatda biz milliy ma’naviyatning eng oljanob, eng yuksak ko‘rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko‘ramiz.

O‘z taraqqiyoti uchun har bir millat umuminsoniy ma’naviyat boyliklari, xazinasidan foydalanishi, unga suyanishi tarixiy zaruratdir. Buningsiz

zamonaviy ilg‘or millat haqida orzu qilish mumkinmas. Umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanish milliy cheklanganlik qobig‘idan chetga chiqishga, olamni kengroq ko‘rish va kuzatishga undaydi.

Agar milliy ma’naviyat bo‘lmasa, umuminsoniy ma’naviyat yo‘q, umuminsoniy ma’naviyatlarsiz esa hozirgi zamon ilg‘or millatlari yo‘q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma’naviyatning yaratuvchilaridir. Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shtigan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»¹. Umumjahon, umuminsoniy ma’naviyat esa hozirgi zamon ilg‘or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

2. Terrorizm, egotsentrizm, odam savdosi, noqonuniy migratsiyama’naviy qashshoqlik hodisalari

«Terror» atamasi lotincha dahshat, qo‘rquv ma’nolarini, umumiyligi ma’noda u siyosiy muammolarni hamda ziddiyatlarni zo‘ravonlik yordamida hal etish metodini anglatadi.

Terrorizm – xalqaro munosabatlarni, mamlakat hududiy yaxlitligini buzish va xavfsizligiga putur yetkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotlarni, ularning mansabdon shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsning biron-bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishiga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatalish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yoxud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirishni ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirot etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat².

¹ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. – Т., 2000. – Б. 503.

² Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси (2008 йил 1 июлгача бўлган ўзгартириш ва қўшимчалари билан). – Т., 2008. – Б. 85.

Terrorizm tarixini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

- antik terrorizm yoki prototerrorizm;
- klassik terrorizm;
- an’anaviy terrorizm;
- zamonaviy terrorizm.

Hozirda zamonaviy terrorizmning ko‘lamigina emas, balki metodlari ham takomillashdi, ya’ni psixologik, informatsion, texnologik va mafkuraviy metodlardir.

Terrorizmning mohiyati ham keng qamrovli tus olmoqda, xususan:

mafkuraviy jihatdan asosliligi va targ‘ibot sohasidagi salohiyati – bunda globallashuv va mintaqalashuvning o‘zaro bog‘liq jarayonlari bugungi kunda «Shimol-Janub» o‘qi bo‘yicha ziddiyatlar yanada kuchayishiga olib kelmoqda;

aniq ifodalangan transmilliy xususiyat – terrorizmning bu xususiyati ijtimoiy mojarolar, moliyaviy va savdo munosabatlari, madaniyat va ta’lim sohasidagi aloqalar ham davlat chegaralarini nazoratsiz qolganda kesib o‘tmoqda;

terrorizmning jinoiy dunyo bilan aloqasi – xalqaro siyosiy terrorizmning jinoiy dunyo bilan aloqasi bugungi kunda shu qadar ayonki, ba’zida ularni bir-biridan ajratib ham bo‘lmaydi;

texnik jihozlanganlik – terrorchi tashkilotlar qurol-aslahha, maxsus materiallar, uskunalar hamda vositalar sohasidagi eng yangi ishlanmalardan to‘liq foydalanadilar;

davlat tomonidan maxfiy qo‘llab-quvvatlash – ko‘plab davlatlar siyosiy vaziyatdan kelib chiqib, xalqaro terrorchilar faoliyatiga panja ortidan qarashadi yoki terrorchi guruhlarga beparvoligini bildirish uchun sukut saqlab qo‘ya qolishadi.

Terrorizm jamiyatni ham ma’naviy, ham iqtisodiy jihatdan zaiflashtiradi, rivojlanish tendensiyasini susaytiradi.

Inson – oliy qadriyat, deya e’tirof etiladi. Mamlakatimizda inson manfaatlari har narsadan ustun. Ammo, odam savdosi illati uning qadrsizlanishining eng yuqori ko‘rinishidir.

Odamlar bilan savdo qilish – migrantlarni verbovka qilish, olib chiqish, sotish hamda ularni keyinchalik mehnat, seksual ekspluatatsiya qilish, majburiy nikohga o‘tkazish, farzand qilib olish, surrogat onalik qildirish, a’zolarni bo‘laklab olish va boshqa maqsadlarda ishlatishni o‘z ichiga oladigan quldorlik shaklidir.

Bugun shunday jinoyatchi odamlarning g‘ayriqonuniy harakatlari bois, yurtidan, yaqin kishilaridan uzoqlarda qanchadan-qancha vatandoshlarimiz

aziyat chekishmoqda. Qolaversa, yurtdoshi, mahalladoshi, qondoshini «tovar» sifatida sotish o‘zlikdan tonish, razolatdir. Shu «biznes» orqasidan boylik orttirayotganlar, bola-chaqa boqayotganlar qonun oldida javob berishi muqarrar.

Davlatlararo globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari tobora chuqurlashib borayotgan hozirgi kunda xalqaro migratsiya masalalari dolzarbligi e’tiborni tortmoqda. Xalqaro migratsiya tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 1980-yillarda dunyoda 80 mln. xalqaro migrant qayd qilingan bo‘lsa, 2005-yilga kelib, ularning soni 185–192 million atrofida deb taxmin qilingan. Bu dunyodagi jami aholining 3 foizi xalqaro migratsiya jarayonlarida ishtirok etayotganini ko‘rsatadi.

Noqonuniy mehnat migratsiyasi – bu davlat ruxsatisiz ish topish maqsadida odamlarning o‘zboshimchalik bilan ko‘chishidir. Bu hol tashkillashtirilgan (vositachi yordamida) yoki to‘satdan paydo bo‘lishi mumkin. Foyda ham qilishi mumkin, lekin ko‘p hollarda migrant huquqlarining poymol bo‘lishiga va ularning bevosita ekspluatatsiya qilinishiga sabab bo‘ladi.

Feminizm (lotincha *femina* – ayol) – ayollarni kamsitishlardan xalos etishni targ‘ib etuvchi oqim. Feminizm Fransiyada vujudga kelib, xotinqizlarning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lishlari uchun kurashni va ijtimoiy siyosiy hayotda faol ishtirok etishlarini targ‘ib etadi.

Ammo boshqa bir jihat kishini tashvishga soladi. Achinarlisi, odam savdosidek qabih ishda yoshlari bir joyga borib qolgan, sochlariga oq oralagan o‘zbek ayollari ishtirok etishmoqda.

Birlashgan Arab Amirliklarida qo‘shmachi ayollarni «basiha» deyishar ekan. Basihalarning shafqatsizligi haqida yozishning o‘zi og‘ir.

Bolalikning beg‘ubor damlarini o‘n besh yoshidayoq tark etgan, nigohlaridagi quvonchni tazyiq, zo‘rlashlar evaziga orttirgan tahlika, qo‘rquv bilan almashtirgan qizaloqni ko‘rganda, ayting, kimning yuragida nafrat uyg‘onmaydi, axir. Ammo yana bir ilinj ko‘ngilga taskin beradi. Zarradek ezgulik ne-ne qabihliklarni yengishga qodir deyishadi. Xorij shaharlarida ingliz tilini mukammal egallagan, bilimli, oqila qizlar mehnat shartnomasi asosida turli sohalarda ishlab, malakalarini oshirmoqdalar. Ha, hayot – sinov. Bir marta beriladigan buyuk ne’mat – yashash baxti bekam, turli qora dog‘lardan xoli bo‘lishi, ezgulik nuriga yo‘g‘rilishi har kimning o‘ziga bog‘liq.

Ayniqsa, qiz-juvonlarni xorijda juda katta maosh beriladigan raqqosalik, sotuvchilik, tikuvchilik, enagalik kabi ishlarga joylashtirishga va’da berib,

amalda esa fahshga, tanfurushlikka majbur qilayotgan qo'shmachilarining soni kamaymayotgani, ayrim ayollarimizning axloq-odob normalari, o'sha davlatlar qonunlarini buzganliklari uchun deportatsiya etilayotgani, hatto qamoq jazosiga hukm qilinayotganligi g'oyat achinarlidir.

Ayollarning o'z oilalarini, voyaga yetmagan farzandlarini ba'zan bobobuvilari, qarindosh-urug' yoki yetti yot begona kishilarga qoldirib ketishlari, hech qanday kasb-hunarga yoki yetarli bilimga ega bo'limgan yosh qizlarning notanish kishilarning aldovlariga uchib, xorijga ishga ketishlari jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy muhitga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi, albatta. Bu ta'sirlarni tahlil qilib quyidagi holatlarni ta'kidlab o'tish mumkin:

- 1) agar oila to'liq bo'lsa, ayol yoki erkakning fiziologik holatlaridan kelib chiqadigan vaziyatlar;
- 2) ayol oiladan yiroqda bo'lsa, bolalar tarbiyasi masalalari (voyaga yetmagan bolalar, o'smir qiz yoki yigit muammolari va boshqa vaziyatlar);
- 3) ayolning oiladagi burchlari (onalik, rafiqalik, bekalik);
- 4) oiladagi muhitning nosog'lomligi;
- 5) qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnichilik munosabatlaridagi darz.

Bularning bari jamiyatga yaxshi insonni tarbiyalab berish vazifalarini bajarishga xalaqit beradi. Nemis faylasufi L. Feyerbax ta'biri bilan aytganda, «faqat erkak bilan ayolgina birgalikda haqiqiy insonni shakllantiradilar. Erkak bilan ayol ittifoqlikda surriyot ro'zg'orini tashkil qiladi, zero bu ittifoq ko'payish, nasl manbaidir. Yangi insonlar manbaidir»¹.

O'zbekiston fuqarolari xususiy mehnat kontraktlari bo'yicha mehnat faoliyatlarini amalga oshirish uchun chet ellarga faqat O'zbekiston Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan beriladigan ruxsatnomalar asosida chiqish huquqiga egadirlar.

Inson huquqlari, orzu-intilishlari, ijtimoiy ta'minoti, erki, ozodligi, hamma-hammasi qonun himoyasida. Konstitutsiyamizda barcha fuqarolarning tengligi qayd etib qo'yilgan. Shuningdek, har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishslash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqlariga ega. Ammo qonun talablarini aholining barcha qatlami ham to'liq anglab yetyapti, deb bo'lmaydi.

Hozirgi globallashuv jarayonida ma'naviyatimizga tahdid har qachongidan kuchaygan. Bu tahdidning turlari va usullari juda ko'p. Ulardan biri

¹ Qarang: Аёл, муқаддассан. – Т., 1999. – Б. 208.

Prezident Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlaganidek, «... ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qolmaydi»¹.

Ana endi bu tahdidning qay darajada xatarli ekanini bir tasavvur qilib ko‘raylik. O‘z milliy ma’naviyatidan mahrum bo‘lgan xalqning kelajagi bo‘lmaydi. Kelajagi yo‘q xalq esa manqurtga aylanadi, o‘zligini yo‘qotadi va o‘zgalar tomonidan osongina boshqariladi. Bundaylar avlod-ajdodlarini unutgan, Vatan va millat sha’ni nimaligini bilmaydigan, iymon-e’tiqodi va g‘ururi yo‘q, irodasiz va erksiz olomonga aylanadi. Odatda, o‘zligini unutib, Vatan va millat sha’ni haqida o‘ylamaydigan odamning qornidan boshqa tashvishi bo‘lmaydi. U yengil-yelpi hayot quliga aylanadi.

Barkamol avlod tarbiyasi haqida gap ketar ekan, Islom Karimovning quyidagi fikrlariga e’tibor bermaslik mumkin emas: «Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda»².

«Ommaviy madaniyat» – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli. Ommaviy madaniyatni g‘arb madaniyati bilan bog‘liq hodisa deb tushunish, shuningdek uni g‘oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. Ommaviy madaniyat chuqr ijtimoiy va madaniy ildizga ega. Ommaviy madaniyatda lokallik bo‘lmaydi. Katta auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Milliy ma’naviyatimizga nafaqat tashqi, balki ichki xavf-xatarlar ham tahdid solib turadi. Ya’ni g‘arazli maqsadda yoki shaxsiy manfaat yo‘lida mahalliychilik, guruhbozlik va tarafkashlik qilish, urug‘-aymoqchilik va oshna-og‘aynigarchilikka berilish, munofiqlik, xiyonat va sotqinlik, mansabparastlik, tamagirlik qilish va pora olish kabi illatlar milliy ma’naviyatimiz ildiziga bolta uradi.

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 117.

² O‘sha manba.

Egotsentrizm lotincha «ego» – men, «centrums» – markaz ma’nolarini anglatadi. Egotsentrizmda inson o‘zining shaxsiy maqsadlari, fikrlariga tayanib, boshqa odamlarning holati va tilini, voqelikning ta’sirini xolis qabul qilolmaydi. Egotsentrizmda barcha jarayonlar markazida shaxsiy manfaat yotganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Egotsentrizm shaxsiy mavqe sifatida o‘zgalarning istak va xohishi bilan hisoblashmaslik, o‘z fikrining noto‘g‘riligini bilsa ham, o‘zgalarning fikrini inobatga olmaslik g‘oyasiga asoslanadi.

3. O‘zbekistonning millatlararo bag‘rikenglikni ta’minlash sohasidagi siyosati

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida esa milliy va umuminsoniy ma’naviyatning ana shu dialektik bog‘liqligini hisobga olish davr talabi. Buni Prezident Islom Karimov ma’naviyat to‘g‘risidagi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda hisobga olganligining guvohimiz. Xususan, uning «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» asarida: «Milliy madaniyatning o‘ziga xosligini tiklashga alohida e’tibor berilishi kerak. Shu bilan birga, milliy o‘z-o‘zini anglashning tiklanishi jahon insonparvarlik madaniyati va umumbashariy qadriyatlari, ideallaridan, bizning ko‘p millatli jamiyatimiz an’analardan ajralib qolishi mumkin emas», – deb ta’kidlagan. Mustaqillikni mustahkamlash, sog‘lom avlodni tarbiyalash, komil insonni voyaga yetkazish borasidagi tarbiyaviy ishlarni milliy ma’naviyatimiz boyliklari bilan birga, umuminsoniy ma’naviyat boyliklaridan foydalanib tashkil etish zarur.

Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ko‘pmillatli davlatlar uchun milliy siyosatni to‘g‘ri, aniq ko‘zlangan maqsad asosida olib borish juda muhimdir. Bu esa taraqqiyotning jadallashuviga yordam beradi. Millatlar va ular madaniyatlarining bir-biriga ta’sir ko‘rsatishi ko‘pmillatli davlatlarda yashayotgan xalqlarning ma’naviy-aqliy boyishi uchun yaxshi manba bo‘lib xizmat qilib kelgan.

Millatlar o‘rtasidagi turli munosabatlarni uyg‘unlashtirish ziyraklik va noziklik bilan yondashishni talab qiladigan dolzarb massaladir. Ko‘pmillatli davlatlarda milliy masalani barcha millat va xalqlar manfaatlarini hisobga olmasdan hal etishga urinish yomon, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ko‘pelatli davlatlar jumlasiga kiruvchi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham millatlararo munosabat juda muhimdir. Bu hududda asosiy millat – o‘zbeklar bilan bir qatorda o‘z madaniyati, an’analari va ma’naviyatiga ega bo‘lgan yuzdan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Ularning mamlakat aholisi umumiylar tarkibidagi ulushi 20 foizdan ziyodni

tashkil etadi. Bozor munosabatlariga o‘tish davrining dastlabki bosqichlarida demokratik va siyosiy islohotlarning borishini umumiy baholab, aytish mumkinki, O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar masalasiga alohida ehtiyojkorlik bilan yondashilmoqda.

Tarkibi va mazmuni jihatidan xilma-xil xalqlar birligidan tashkil topgan bizning jamiyatimizda millatlararo totuvlikni saqlab qolishda qonunchilik bazamiz yaqindan yordam bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida: «O‘zbekiston xalqini millatidan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», – deb ta’kidlangan. O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni O‘zbekiston Respublikasining hamma fuqarolariga ijtimoiy kelib chiqishidan, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqiy va millatga mansubligidan qat’i nazar, teng saylov huquqini beradi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida Prezident Islom Karimov «Adolat – qonun ustuvorligida» nomli ma’ruzasida milliy qadriyatlar, ezgu an’analar, tilimiz, muqaddas dinimizning hayotdagi o‘rni qayta tiklangani jamiyatimiz qiyofasini o‘zgartirishda, ma’naviyatimizning, odamlarimizning ongu tafakkurini yuksaltirishda o‘zining ijobiy samarasini berayotganligini ta’kidlab o‘tadilar.

Eng muhimi, ko‘pmillatli Vatanimizda hukm surayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik muhiti bizning beqiyos boyligimiz ekanini yurtimizda yashayotgan har bir millat va elat vakili o‘zining kundalik hayotida his etib turibdi.

Bugun milliy istiqlol g‘oyasini o‘zida to‘liq mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti, xalq farovonligi kabi oljanob maqsadlar atrofida siyosiy va ijtimoiy kuchlar jipslashayotganligini, elimizning irodasi, salohiyati va kuch-qudrati safarbar etilgani – bularning barchasi hammamizni quvontiradi va kelajakka bo‘lgan ishonchimizni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiysi O‘zbekiston Konstitutsiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, «O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an’analarining hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Mustaqillik yillari millatlararo ma’naviy va madaniy-ma’rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlantirilib kelinmoqda. Shu yillar mobaynida milliy uyg‘onish jarayoni faqat o‘zbeklar orasida kechib kelmayotir. O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik madaniy, ma’naviy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda. 1989-yildayoq

jamoat tashkilotlari – milliy-madaniy markazlar tashkil etila boshlagan edi. Hozir respublikada 80 dan ortiq milliy-madaniy markaz mavjud. Bularidan ba’zilarining ro‘yxatini keltiramiz: O‘zbekiston Respublikasining koreys madaniy markazlari assotsiatsiyasi (1993-y.); qozoq madaniy markazi (1995-y.); qirg‘iz madaniy markazi (1995-y.); O‘zbekiston nemislarining «Videgerburt» madaniy markazi (1994-y.); rus madaniy markazi (1994-y.); O‘zbekiston «Axisxa» turk madaniy markazi (1997-y.) va boshqalar. O‘zbekistonning ko‘pmillatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ushbu markazlar ijobiy rol o‘ynamoqda.

Bizning jamiyatimiz etnik guruhlar va millatlar o‘rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o‘zini erkin va teng huquqli deb his qilishi imkonini beradigan o‘zaro munosabatlар o‘rnatishga intilmoqda. Yurtimizda milliy ayirmachilikning har qanday ko‘rinishlari qoralab kelinmoqda. Milliy kalondimog‘lik g‘oyat zararli, biz undan yiroq bo‘lishimiz kerak. Chunonchi milliy kalondimog‘lik kasaliga yo‘liqqan kishilar o‘z milliy ma’naviyatini bilib, boshqa millatlar ma’naviyatini tan olmaydilar. Bunday munosabat tamomila noto‘g‘ri. Ular jahon xalqlari ma’naviy merosi o‘rtasidagi aloqadorlikni, bir-birini boyitishini bilmaydilar.

Milliy mahdudlik, xudbinlik kasaliga chalingan kimsalar esa, «mening millatim ma’naviyati, madaniyati bo‘lmaganda, jahon madaniyati, ma’naviyati bo‘lmas edi», degan g‘oyat zararli qarashni, g‘oyani ilgari surib, himoya etadilar. Mustaqillik sharoitida bunday zararli g‘oyalarni ilgari surish va himoya etishga intilish millatlararo munosabatlarning negiziga putur yetkazadi, milliy totuvlikka raxna soladi. Biz qanchalik o‘z madaniyatimiz, ma’naviyatimizni hurmat qilmaylik, shu bilan birga boshqa millatlar, jahon xalqlari ma’naviyatiga ham hurmat bilan qarashimiz lozim.

Bizning maqsadimiz «yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat’i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarini ta’minlash»¹.

O‘z davlatlariga nomini bergen asosiy millat bilan yonma-yon istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o‘rtasidagi munosabat siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikni ta’minlaydigan shart va sharoitlardan biridir. Bu an’anaviy uyg‘unlikka erishishda ziyraklik va noziklik bilan yondashish O‘zbekiston uchun juda zarur va dolzarbdir, chunki o‘zbeklar bilan birga bu makonda 136

¹ Qarang: *Каримов И.А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. –Т., 2000. – Б. 495–496.

dan ortiq millat vakillari yashaydilar. Ammo ba’zi mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar o‘rtasida ma’lum muammolar bor, lekin bu to‘siqqa aylanib qolmagan, aksincha, taraqqiyotga yordam beradi. Millatlar va madaniyatlarning bir-birga ta’siri, ma’naviy boyligi asosiy manbai sifatida ko‘pelatlilik omili demokratik o‘zgarishlarni tezlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, fuqarolik jamiyatni qurishning ta’sirchan vositasiga aylanib qolgan.

Ba’zi ko‘pelatlilik davlatlarda millatlararo munosabatlarda uyg‘unlikning yo‘qligi o‘sha davlatlarni ijtimoiy-siyosiy falokatlarga olib kelgan, bu holat siyosiy barqarorlikka va milliy xavfsizlikka putur yetkazuvchi bosh omilga aylangan. Natijada ko‘pmillatli davlatda etnik guruhlar va millatlararo munosabatlar milliy xavfsizlikni shakllantirishning ta’sirchan omili ekani ma’lum bo‘ldi.

O‘zbekistonda etnik siyosat, ya’ni aholining ko‘pmillatligi o‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglashi va ma’naviy qayta tiklanishi bilan chambarchas bog‘liq hamda jamiyatni yangilash, uni demokratlashga undovchi zo‘r kuch bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu respublikaning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratmoqda.

Sobiq SSSR davrida «soviet xalqi» degan o‘ziga xos ijtimoiy birlikni shakllantirish g‘oyasini amalga oshirish jarayonlarida milliy xususiyatlар asosiy to‘siq hisoblangani hammaga ravshan, bu milliy o‘zlikni anglash ehtiyojlaridan chalg‘itish maqsadini ko‘zlagan edi. Ilg‘or va o‘z xalqiga sadoqatli millat vakillari millatchilikda ayblanib, qatag‘on qilingan edi.

U majburan baynalmallashtirish, milliy xususiyatlarni yo‘q qilish niyatida o‘zining imperiyacha manfaatlariga mos tushuvchi «ko‘pmillatli» birlikning vujudga kelish jarayonini tezlashtirishga intilgan edi. «Xalqlar va millatlarni yaqinlashtirish»dan iborat bunday sun’iy jarayon jamiyatdagi «millatchilik» deb atash rasm bo‘lgan yashirin va oshkora qarshilik ko‘rsatish hollariga olib kelgan edi.

Aslida esa bu teran milliy qadriyatlarni, odamlarimizning o‘ziga xos xususiyatlari va an’analarini saqlab qolish yo‘lidagi tabiiy intilish, ijtimoiy, ma’naviy va tarixiy taraqqiyotning subyekti bo‘lgan millatni saqlab qolishga qaratilgan obyektiv, butunlay asosli ehtiyoj edi. Har qanday millat, u naqadar kichik bo‘lmasin – insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo‘lmog‘i kerak va bu

maqsad birinchi navbatda ushbu etnik guruhlarni o‘z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasidir.

Ayni mahalda bir millat o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining xuddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro‘yobga chiqarmasligi lozim. Ba’zi millat vakillarining boshqalarga takabburlik bilan mensimay munosabatda bo‘lishlari kabi holatlar yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan har qanday sharoitga barham berish lozim.

O‘zaro aloqada bo‘luvchi etnik guruhlar va millatlarning manfaatlari va ehtiyojlari bir-biriga mos kelmasligi natijasida yuzaga chiqadigan ziddiyatlar keskin «millatchilik» ko‘rinishlarining kuchli omilari bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tmoqchimiz. «Millatchilik» siyosiy tusga kirsa, kuchli salbiy yo‘nalish kasb etishi mumkinligini ta’kidlash zarur. Bu davlat va millat xavfsizligiga, mintaqaviy va keng ko‘lamdagи xavfsizlikka, ancha kuchli tahdidga aylanib ketishi mumkin. «Millatchilik» sabab xalqlar o‘rtasidagi oddiy umuminsoniy normalarning buzilishi sodir bo‘ladi va boshqa millat vakillari manfaatlari hamda qadr-qimmatiga nisbatan ijtimoiy adolatsizlik qaror topadi. Millatchilik o‘z milliy manfaatlarini boshqa millatning manfaatlari hisobiga yoki ularni butunlay inkor etish asosida vujudga keladi. Millatchilik milliylikka bo‘lgan oqilona muhabbatning chegaradan chiqib ketishi, yuksak his-tuyg‘ularning yo‘qola borishidir. Millatchilik – boshqa millatlarga nisbatan insoniylik, adolatdan mahrum bo‘lgan munosabat prinsipi bo‘lib, oddiy umuminsoniy axloqiy normalarning buzilishi. Millatchilik g‘ayriinsoniy illat bo‘lib, avvalo o‘zga millatlarga, qolaversa, o‘z millatiga ham xudbinlik qarashidir. U milliy maqtanchoqlik, milliy egoizmning ko‘rinishlaridan biri.

Hozirgi murakkab sharoitda milliy o‘zlikni anglashni qayta tiklashga, tinchlik va millatlararo totuvlikka asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo qilish muammolarini hal etish paytida quyidagi vogeliklarni hisobga olish zarur:

millatlararo munosabatlarda muayyan noantagonistik ziddiyatlarning mavjudligi yangi mustaqil davlatlarning qaror topish davri uchun real hodisadir. Milliy manfaatlar va ehtiyojlar bundan buyon fuqarolik jamiyatini va manfaatlari bilan yaqinlasha boradi;

mavjud ziddiyatlar xalqlar va davlatlarning xavfsizligiga tahdid soladigan fojiali oqibatlarga olib boruvchi millatlararo mojarolarga aylanishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi;

vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni birga istiqomat qilayotgan millatlar tinch-totuv yashashlari muqarrarligi va zarurligini, ularning

mushtarak intilish va istaklarini hisobga olish lozim. Bu esa davlatning aniq maqsadga qaratilgan tegishli etnik siyosati hamda jamoatchilik fikrini shakllantirish orqali ifodalanishi kerak¹.

Markaziy Osiyoda xalqlar aralash joylashgan, migratsiya siyosati, polietnik tarkibi yanada xilma-xil. Bu hududda 136 dan ortiq millat va elat yashamoqda. Qariyb 20 millat vakillari mintaqaga Stalin qatag‘onlari natijasida surgun qilinib, ko‘chirilganlar sifatida kelib qolganlar.

Mintaqada etnik vaziyat ham tahdid omilidir. Markaziy Osiyoda bu vaziyat doimo o‘zgarib turgan. Sanoatlashtirish va xalqlarni deportatsiya qilish va majburiy ko‘chirish, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatgan.

Bularning hammasi yangi mustaqil davlatlarga meros bo‘lib qoldi. Shu tufayli millatlar va elatlар o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarga xos muammolar strategik ahamiyatga ega bo‘lib, jahonda va mintaqada davlatlararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda alohida e’tiborni talab qilmoqda.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ma’naviyat qanday guruhlarga bo‘linadi?
2. Milliy ma’naviyatga ta’rif bering.
3. Mintaqaviy ma’naviyatga nimalar kiradi?
4. Umuminsoniy ma’naviyatni qanday tushunasiz?
5. Milliy va umuminsoniy ma’naviyatning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.
6. O‘zbekistondagi milliy-ma’naviy siyosatning mohiyati qanday?
7. Qanday milliy madaniy markazlarni bilasiz?
8. Terrorizmning mohiyatini tushuntirib bering.
9. Odam savdosi haqida nimalarni bilasiz?
10. Egotsentrizm ta’limotining mohiyatini sharhlab bering.
11. Ommaviy madaniyat jamiyatga qanday salbiy oqibatlarni olib keladi?
12. Noqonuniy migratsiya muammolarini tahlil qilib bering.

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Т., 1998. – Б. 81.

4-mavzu.

IQTISOD, SIYOSAT VA HUQUQ – MA’NAVIYATNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI SIFATIDA

1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining ma’naviyat bilan aloqadorligi

Mazkur mavzuning birinchi masalasi bayonida asosiy e’tiborni mustaqil O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy taraqqiyot borasida tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo‘lining to‘g‘riliqi, hayotiyligi bu borada erishilgan yutuqlar va hal etilishi lozim bo‘lgan muammolar yoritiladi. O‘rta asrlarda ilmlar tasnifi bilan shug‘ullangan Abu Abdulloh al Xorazmiy ham iqtisodiyotni xo‘jalik yuritish sohasidagi amaliy falsafiy fan sirasiga kiritadi.

Ishlab chiqarishning o‘sishi va kishilar, mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar bozor munosabatlarini keltirib chiqargan. O‘rta Osiyoda bozor munosabatlari qadim zamonlardan boshlab shakllangan. Tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha, bundan ming yillar muqaddam Buxoro va Xiva savdogarlari odamlar ko‘zini quvnatib, hayron qoldirgan tovarlar va buyumlarni Hindiston va Xitoyga, Rossiya va G‘arbiy Yevropa mamlakatlariga yetkazib borganlar. O‘rta Osiyoda bozor munosabatlarining qadimdan rivoj topganiga «Buyuk Ipak yo‘li» yaqqol misol bo‘la oladi. Shunday ekan, hozirgi zamon tilida qo‘llanilayotgan «bozor iqtisodi» atamasi va uning mohiyatini qisqacha ifodalaydigan bo‘lsak, u quyidagilarni anglatadi:

«Bozor iqtisodi» degan ibora, birinchi navbatda, muloqot, gaplashish, kelishish, savdolashish, ikki tomonga to‘g‘ri keladigan umumiylar narxni, raqamni, xulosani topish demakdir.

Bozor iqtisodining asosiy sharti va talabi – mumkin qadar ko‘proq va mumkin qadar sifatliroq, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishdir. Xuddi shu talablarni amalga oshirishning eng qulay sharoitlarini kapitalizm davri yuzaga keltirdi. Natijada insoniyat keyingi besh asr ichida undan oldingi tarixdagidan ko‘p moddiy va ma’naviy qadriyatlar yarata oldi. Bozor iqtisodi hukmron mamlakatlar moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarishning haqiqiy «qaynar bulog‘iga» aylandi. Bu davrda insoniyatning haqiqiy aqliy salohiyati, yaratuvchilik imkoniyatlari namoyon bo‘ldi.

Jahon tajribasi, shu jumladan o‘zimizning mamlakatimiz tajribasi ham iqtisodiyot faqat uning o‘zigagina xos bo‘lgan qonunlar asosida rivojlanib borganligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotning ham o‘z obyektiv qonun-qoidalari, sir-asrорlari borki, ular bilan hisoblashmaslikning hech bir iloji yo‘q. Iqtisod har doim o‘z yo‘lidan boraveradi, uni to‘xtatish mumkin emas.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, u qaysi yo‘ldan borishi kerak, degan masala oldimizda ko‘ndalang bo‘lib turdi. Yurtboshimiz Islom Karimov mustaqillikka erishilgan birinchi kunlardayoq jahondagi turli mamlakatlarning tajribalarini chuqur va har tomonlama o‘rganib, mustaqil O‘zbekistonning bundan buyongi taraqqiyot yo‘li bozor iqtisodiyoti munosabatlari yo‘lidan borish ekanligiga qat’iy ishonch hosil etdi.

Ammo bozor munosabatlarining qaysi yo‘li, qaysi shakli biz uchun maqbul, qaysi birini o‘zimizning bundan buyongi taraqqiyotimiz uchun tanlab olishimiz kerakligi masalasi oldimizda turgan muammo edi. Bozor munosabatlariga o‘tish Angliyada 200 yil, boshqa mamlakatlarda 100–150 yil mobaynida, Yaponiya, Koreya mamlakatlarida 20–30 yil davomida amalga oshgan, shakllangan.

Yuqorida aytganimizdek, bozor munosabatlariga o‘tish davr talabi. Biz uchun bundan boshqa yo‘l yo‘q. Buni respublikamiz ahli to‘g‘ri anglab yetdi. Ammo kutib o‘tirishga vaqt yo‘q. Tezkorlik bilan mustaqil respublikamizning bozor munosabatlariga qanday qilib, qaysi usulda o‘tishini tanlab olish, bunda jahonning barcha ilg‘or tajribalarini umumlashtirishni uddasidan chiqildi. Bunda Prezident Islom Karimov katta shijoat ko‘rsatdi. Bozor munosabatlariga o‘tishning jahonda orttirilgan barcha ijobjiy tajribalarini o‘rganib, xalqimizning tarixiy taraqqiyotiga, ruhiyatiga, milliy xususiyati, iqlim shart-sharoitlariga, mamlakatimizning jug‘rofiy mavqeiga asoslangan o‘zimizga xos va mos yo‘lni belgilab oldik.

Ushbu yo‘lning, konsepsianing qoidalari Prezidentimiz kitoblari, maqolalari va nutqlarida, mamlakat parlamenti qabul qilgan qonunlarda, xususan Islom Karimovning «O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li» asarida har tomonlama asoslanib, bayon qilib berilgan. Bu «O‘zbekiston yo‘li» o‘zbek kashfiyoti sifatida jahonda yuksak baholanib kelinmoqda. Ushbu tanlangan yo‘lning mohiyati O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqqan va ilgari surgan besh tamoyilda o‘z ifodasini topgan. Bu tamoyillar faqat bizning mamlakatimizda emas, endilikda boshqa mamlakatlarda ham tan olindi.

Bular quyidagilar:

birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan ustuvor bo‘lishi kerak va buning uchun iqtisodiyot mafkuradan xoli bo‘lishi;

ikkinchidan, davlat bosh islohotchi bo‘lishi;

uchinchidan, qonun va qonunlarga rioya qilishning hamma narsadan ustunligi;

to ‘rtinchidan, kuchli ijtimoiy siyosat;

beshinchidan, bozor munosabatlariiga o‘tishning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

Yuqoridagi besh tamoyilni qisqa izohlaydigan bo‘lsak, ular quyidagilarni anglatadi:

birinchidan, iqtisodiyot siyosiy manfaatlarga bo‘ysundirilganda, u barbod bo‘ladi. Na siyosat, na mafkura iqtisodiyotni nazorat qilishi, unga tazyiq o‘tkazish darajasiga ko‘tarilmasligi kerak. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlар har qanday mafkuradan xoli bo‘lishi lozim. Bozorning qoidasi shunday: kimning mahsuloti yaxshiroq va arzonroq bo‘lsa, o‘sha mahsulotga talab hammadan ko‘ra ko‘proq bo‘ladi. Bu yerda hech qanday siyosat yoki mafkura o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Ikkinchidan, Islom Karimovning: «Davlat asosiy islohotchi bo‘lishi zarur. U islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, o‘zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar (retrogradlar) va konservatorlarning qarshiligini bartaraf etishi shart», – degan fikri o‘ta ahamiyatlidir. Mustaqil O‘zbekiston boshqariladigan ma’rifatli bozor iqtisodiyotiga o‘tdi. Uni faqat davlatning boshqaruvchilik kuchiga tayanib, boshqarish mumkin.

Uchinchidan, Prezident Islom Karimov «Yangi uy qurmey turib, eskisini buzmang» risolasida hammaning qonunga itoatkor bo‘lishi zarurligini, qonunning hamma narsadan ustun turishi shartligini ta’kidlab o‘tgan.

Qonunning ustuvorligi huquqiy davlat barpo etish zaruriyatidan ham kelib chiqadi.

Ma’rifiy dunyodagi bozor – bu, eng avvalo, qonunga hurmat demakdir.

To ‘rtinchidan, respublikamizda ko‘psonli kishilar turmush darajasining pastligi totalitar iqtisodiy tuzumdan qolgan meros. Biz tanlagan yo‘ning o‘ziga xosligi shundaki, aholining o‘ta boylar va o‘ta kambag‘allar tabaqasi yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, uni ijtimoiy himoya qilish orqali bozor munosabatlariiga o‘tilishidir.

Beshinchidan, davlatimiz rahbari Islom Karimov doimo islohot o'tkazishda shoshqaloqlikka yo'l qo'yib bo'lmasligi, uni ehtiyotlik bilan sekin-asta o'tkazish zarurligini ta'kidlab kelmoqdalar. Shuni aytish kerakki, islohot biz uchun mutlaqo yangi bozor tizimini yaratishi kerak. Yangilik hech qachon birdaniga yuzaga kelmaydi, har doim iqtisodga bosqichma-bosqich borilgan. O'zbekistonidagi bozor iqtisodiga o'tish ham bundan xoli emas.

Xullas, bu sohada hozirgacha erishilgan yutuqlar va yechimini kutayotgan dolzarb muammolar to'g'risida ham to'xtab o'tish lozim. Bu masalalarning yechimi Prezident Islom Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» va «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» kitoblarida atroflicha bayon qilinib berilgan.

Iqtisod va ma'naviyat o'zaro chambarchas bog'liq. Ma'naviyatsiz iqtisod va iqtisodiyotsiz ma'naviyat yuksak bosqichga ko'tarila olmaydi.

Oldin iqtisodiy vazifalarni hal qilib, so'ng ma'naviyat bilan shug'ullanish lozim deguvchilar qattiq adashadilar va aldanadilar. Bunday yo'l, usul noto'g'ridir.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini Islom Karimov bozor munosabatlariga o'tishning asosi tamoyillaridan biri ekanligini qayta-qayta uqtirib kelmoqdalar. Bundan ayrim kishilar bizga mafkura, siyosat kerak emas, degan xulosaga kelib, ijtimoiy fanlarga nisbatan noto'g'ri munosabat bildira boshlagan davrlar ham bo'ldi. Bu no'noq, uzoqni ko'ra bilmaydigan odamlarning fikri. Ma'naviyatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas. Mamlakat qanchalik iqtisodiy rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda ma'naviyat va ma'rifat shuncha yuksak bo'ladi. Yuksak ma'naviyat va ma'rifatga ega bo'lган mamlakatning iqtisodiy kuch-qudrati ham yuqori bo'ladi. Demakki, ma'naviyati va ma'rifati yuksak inson yurt, xalqi oldida o'ziga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his etadi. Shu mamlakat, xalq uchun halol, fidokorona yaratuvchanlik, bunyodkorlik mehnati bilan o'z hissasini qo'shishi kerakligini teran his etadi.

Ayrim kishilar erkin bozor iqtisodi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qadriyatlarning qiymati tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanadi, ma'naviy qashshoqlik avj oladi, deb da'vo qiladilar. Erkin bozor iqtisodiyoti bilan ma'naviyatni bunday qarama-qarshi qo'yish mutlaqo o'rinsiz, aksincha, yuqorida aytganimizdek, ular bir-birlarini to'ldiradi, chunki faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'ladi. Prezident hozirgi vaqtida mamlakatimiz iqtisodiyotidagi

kichik biznes, birinchi navbatda, xususiy tadbirkorlikning roli va ulushini yanada kengaytirishni ta'minlay oladigan qonunlarni qabul qilish dolzarbligini, ayniqsa, ish bilan bandlik masalasida oilaviy biznesga e'tiborni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy o'nglanish, tiklanish, rivojlanish ma'naviy o'nglanish, poklanish, yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un holda boradi.

Demak, ma'naviyat va iqtisod bir-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi. Hozirda iqtisodiy islohotlarning yangi, yuqori bosqichiga o'tayotgan ekanmiz, demak, ishlab chiqarish tarmoqlari ishga tushib, iqtisodiy yuksalish yuz bermoqda. Bu esa fan, madaniyat va ma'naviyat taraqqiyotiga ijobiyligi ta'sir qiladi. Xususan, bunga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirish borasidagi ishlar yaqqol misol bo'la oladi.

Keyingi yillarda Prezident Islom Karimov: «Ma'naviyat – iqtisodiy rivojlanishning ham asosidir», – degan yangi fikrni o'rtaga tashladi. Sho'rolar zamonida ma'naviyatning roliga bunchalik katta e'tibor berilmagan edi. Umuman, biz uzoq yillar davomida ma'naviyat, madaniyatni iqtisoddan keyingi o'ringa qo'yishga odatlanib qolgan edik. Endilikda ma'naviyat birinchi o'ringa chiqdi.

Ma'naviyatning birinchi o'ringa qo'yilishining ikki sababi bor: *birinchidan*, biz Yaponiya kabi yuksak rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot omillarini o'rganib, faqat yuksak ma'naviyatgina yuksak iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashi mumkinligiga amin bo'ldik.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti adolatga tayanganligini bizning otabobolarimiz to'g'ri tushunib yetganlar. Shu bois, ular komil, ma'naviyati yuksak inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuuni, boshqacha aytganda, axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Unda kishi qalbida haromdan hazar, nopoliklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi, bozor munosabatlarida insof va diyonat, xaridorga munosabatda samimiylilik, yumshoq muomala, xaridor ko'nglini topishga intilish asos qilib olingan.

Ma'naviyati yuksak kishi birovning haqiga, davlat, jamoa mulkiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, Vatani, xalqi uchun jonini fido etishda o'zini ayamaydi. Buning aksi o'laroq, ma'naviyati qashshoq kishilar nopoliklikka, poraxo'r, o'g'ri, qallob bo'lib, Vatan va millat manfaatlariga befarq qaraydi.

Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada rivojlangan iqtisodiyoti bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviyati yetuk fuqarolari bilan ham jahonni hayratga solishi va unga yuz tutishi lozim. Bunga esa iqtisod va

ma’naviyat, ma’rifatning birga, o‘zaro mutanosib, mushtarak rivoj-lanishiga ahamiyat bergenimizda erishishimiz mumkin.

Biz maqsad qilib olgan sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari faqat yuksak ma’naviyat va ma’rifat negizida, yuksak axloqiylik va vatan-parvarlik negizlarida bunyod etilishi zarur. Buni hammamiz teran anglab olishimiz kerak.

Shunday qilib, ma’naviy barkamol, ma’rifatli, madaniyatli, tadbirkor, fozil inson eng oliv faoliyat – mehnat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik bilan mashg‘ul bo‘lishi uchun, uning yashashi va sharoitini tubdan yaxshilash taraqqiyotimizning obyektiv qonuniyati bo‘lib qolmoqda.

Bozor munosabatlariga o‘tish va uning rivoji tadbirkorlik bilan chambarchas bog‘lanib ketadi. Zotan bozor iqtisodiyotining talabi tadbirkorlik va ishbilarmonlikdir. Tadbirkor ma’naviy pok, ma’rifatli bo‘lishi kerak.

Tadbirkor halol va haromni ajrata bilishi, haromdan hazar qilishi, ma’rifatli, dunyoqarashi keng qamrovli, bирyoqlamalikdan xoli, o‘zi boshlagan ishga qat’iy ishongan bo‘lishi, aniq maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan va uning natijalarini aniq tasavvur eta bilishi, o‘z xatolarini tan ola bilishi va uni o‘z vaqtida to‘g‘rilashga intilishi, tavakkaliga ham ish yuritishi, farosatli, insofli, mehnatsevar bo‘lishi kerak va boshqalar.

Prezident ta’kidlaganidek, «nisbatan barqaror va bozor konyukturasi o‘zgarishlariga tez moslanuvchan, yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradigan kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasini hal etish bizning sharoitimizda hamon muhim ahamiyatga molik masala bo‘lib qolmoqda¹«.

Xullas, mustaqil O‘zbekiston tanlab olgan bozor iqtisodiyoti yo‘li shuning uchun ham istiqbollikni, u har bir kishidan o‘ta tadbirkorlikni, hozirjavoblikni, tejamkorlikni, uddaburonlikni, vaqtisi- soati kelganda, sabr-toqatni, sovuqqonlikni, har bir vaziyatda ishning ko‘zini bilishni, muomallada nihoyatda ehtiyyotkorlikni, har bir so‘zning mazmunini ajratishni va farq qilishni talab etadi.

2. Siyosiy ma’naviyat – ma’naviy yetuklik shakli

Ma’naviyat taraqqiyotida davlat tomonidan olib boriladigan siyosatning roli nihoyatda kattadir. Qaysi mamlakatda ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish, u haqida g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati

¹ Каримов И. А. Жаҳон инқизозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010. – Б. 186.

darajasiga ko‘tarilgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma’rifat va madaniyat rivojlanadi. Bu o‘z navbatida mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni ham hal etish imkonini yaratadi. Davlat o‘z faoliyatida ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida qaraganda, uning barqaror taraqqiy etishi uchun imkoniyatlar kengayib boradi. Bu holatni to‘g‘ri anglagan mamlakatimiz rahbariyati, xususan Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirishga alohida ahamiyat berib, unga rahnamolik qilib kelayotirlar. Yurtboshimizning biror nutqi, asari yo‘qlik, ularda u yoki bu jihatdan ma’naviyat va ma’rifat masalalariga yondashilmagan bo‘lsin.

Mana shuning uchun ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish XXI asrning dastlabki yillaridagi ustuvor yo‘nalishlardan biri ekanligi ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida belgilab qo‘yildi. Prezident Islom Karimov «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» kitobida ta’kidlaganidek, har qaysi ijtimoiy toifa va qatlamning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, umumiyl gaplar bilan emas, amaliy ishlar bilan ma’naviyatni yuksaltirish diqqatimiz markazida bo‘lishi shart.

Ma’naviyat, ma’rifat va siyosatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risida to‘xtalishdan oldin siyosatning mohiyatini ochib berish lozim.

Siyosat – bu muayyan davlatlar hokimiysi, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayoti va xalqaro maydonda xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlarning maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatidir. Siyosat bu davlatni boshqarish san’atidir.

Totalitarizm (lotincha «totalitas» – to‘liq, butunlik) – g‘oyalar, fikrlar, nuqtai nazar sifatida juda qadimiy ildizlarga ega. Platon, T. Mor, T. Kampaella, G. Babef, Sen-Siymon, J. J. Russo davlatning totalitar modellarini ishlab chiqqanlar. Fixte, Gegel, Marks, Nitsshe, Lenin va boshqalarning asarlarida bunday g‘oyalar rivojlantirilgani ma’lum. Mazmunidagi farqlarga qaramay, totalitar konsepsiylar umumiyl mantiqqa egadir. Avvalo, ularning asosida utopiyalarni siyosiylashtirish yotadi. Utopiyalar tugal ishlab chiqilgan yopiq siyosiy tizim bo‘lgani uchun ziddiyatlar, harakatlar, o‘zgarishlarga o‘rin qoldirmaydi. Shuning uchun ham utopiyachilar doimo totalitar ruhdadir. Totalitar utopiyasi absolut haqiqat bilan tenglashtiriladi va boshqa har qanday qarashlar, nazariyalar dushman

yoki xato deb baholanadi¹. Pirovardida totalitarizm dogma sifatida o‘zining inqirozini ham o‘zi tayyorlaydi. Bunday sharoitda ma’naviy yetuklik haqida fikr yuritish mumkin emas.

Avtoritarizm (lotincha «auctoporitas» – to‘la hokimiyat) – ustunlik va irodani ko‘pchilikka o‘tkazishga assoslangan har qanday ijtimoiy-siyosiy tartibdir. Avtoritorizmning shakllari absolut monarxiya, diktaturadir. Avtoritar rahbarlar qo‘rqitish, qirg‘in, zo‘rlikni qurol qilib olishlari va ommaning ishonchini qozonish, qonunga suyanish kabi vositalarga ham murojaat qilishlari mumkin. Bu tartibning zaif tomonlarini esa siyosatning ayrim shaxs yoki guruh irodasiga to‘lig‘icha bog‘liqligi; fuqarolarning siyosiy hayotdan chetlanganligi; butun jamiyatning siyosiy o‘yinlar, avanturalar qurboni bo‘lishi xavfining doimiy mavjudligi; o‘rta asrlardagi podsho, rahbar, yetakchiningadolati, zakovatiga umid, bog‘liqlik tashkil etadi.

Xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun real istiqboli ko‘proq barqaror bo‘lgan siyosiy tizim turi – demokratiyadir. Demokratiyaning assosiy xususiyatlari:

- fuqarolarning siyosatga keng jalb etilganligi, ular huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganligi, hayot darajasining yuqoriligi, rivojlangan o‘rta tabaqanining muhim roli;
- xalq xohish-irodasining parlament shaklida ifoda etilishi, qonun chiqaruvchi organlarning saylovlar asosida shakllantirilganligi;
- demokratik siyosiy madaniyat;
- davlatni boshqarishda qatnashishda fuqarolar huquqlarining tengligi va boshqalar.

Siyosat eng yirik ikki yo‘nalishga – tashqi va ichki siyosatga bo‘linadi. O‘z navbatida ular ham o‘zining bir necha tarmoqlariga bo‘linadilar. Bu yerda gap uning tarmoqlari haqida emas, balki siyosatning ma’naviyat bilan munosabatlari haqida bormoqda. Siyosat mamlakat ichki hayotida ikki yo‘nalishda olib borilishi mumkin. Ularning biri taraqqiyparvar, insonparvar,adolatlisiyosat bo‘lsa, ikkinchisi adolatsiz siyosatdir.

Mamlakatda faqat turli guruhlar va harakatlar hukmronligini ta’minlashga, mehnatkashlar, xalq ommasi manfaatlariga zid bo‘lgan, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishga va shu asosida tor doiradagi guruhlar manfaatlarini himoya qiluvchi tuzumni saqlab qolishga qaratilgan

¹ Qarang: *Одилқориев X. Т., Рассоқов Д. Х. Сиёсатшунослик.* – Т., 2009. – Б. 123.

siyosat –adolatsiz siyosatdir. Bu siyosatning jamiyat va mamlakat miqyosida hukmronligi inson huquqlarining poymol etilishiga, mamlakat moddiy va ma’naviy boyliklarining talon-toroj qilinishiga, mamlakatda zo‘ravonlik, johillik, tekinxo‘rlik, ma’naviy va moddiy qashshoqlikning vujudga kelishiga olib keladi.

Mamlakatda olib boriladigan bundayadolatsiz siyosat nafaqat uning ichdan yemirilishiga, balki xalqaro munosabatlarda ham obro‘-e’tiborining tushishiga olib keladi. Xullas, bunday siyosatning olib borilishi mamlakatni halokatga olib keladi.

Adolatsiz siyosatga qarama-qarshi o‘laroq, taraqqiyparvar, insonparvar, ma’rifatparvar siyosat mamlakat va uning xalqi manfaatlariga xizmat qiladi. Bunday siyosat eng avvalo inson zotini ulug‘lashni, uning moddiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishni, mamlakatda tinchlik, barqarorlikni ta’minalashni maqsad qilib oladi. Ilm, ma’rifat, madaniyat, texnika, texnologiyani rivojlantirish, fuqarolarning zamonaviy bilimni egallashlariga keng yo‘l ochish va g‘amxo‘rlik qilish taraqqiyparvar, insonparvar, ma’rifatparvar siyosatning muhim yo‘nalishini tashkil etadi.

Bunday siyosatning ustuvorligi va ma’naviyatli tomoni shundaki, u mamlakatdagi mavjud muammolarni hal qilishda vazminlik vaziyatini vujudga keltiradi, har qanday to‘polon va beboshlikning oldini olishga, eng murakkab muammolarni ham muzokaralar, bahslar yo‘li bilan hal qilishga yordam beradilar.

Davlat taraqqiyparvar, insonparvar, ma’rifatparvar siyosat olib borishni maqsad qilib olgan va unga amal qilgan bo‘lsa, u albatta tashqi siyosatda ham o‘zga xalqlarning yerlarini tortib olish, ularni asoratga solish, talonchilik qilish kabi tajovuzkor siyosatni emas, balki barcha davlatlar bilan tinch-totuv yashash, o‘zaro hamkorlik qilish siyosatini olib boradi. Tashqi siyosatda bunday yo‘lni tutgan davlatlar qurollanish uchun ketadigan xarajatlarni mamlakatning ma’naviy va ma’rifiy rivojlanishiga sarflaydilar.

Mustaqil O‘zbekistonda Prezident Islom Karimovning bevosita rahnamoligida taraqqiyparvar, insonparvar va ma’rifatparvar ichki va tashqi siyosat olib borilmoqda. Buning natijasida O‘zbekistonning xalqaro maydonda obro‘-e’tibori tobora oshib bormoqda. U tanlagan yo‘l jahondagi mamlakatlar tomonidan tan olinmoqda.

Siyosatning ma’naviy hayotga real ta’siri mamlakatda ma’rifatni, ilm-fan, adabiyot va san’atni rivojlantirish borasidagi amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. O‘z navbatida fuqarolarning yuksak ma’naviyat va ma’rifatga ega bo‘lishlari mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga ijobjiy ta’sirini

ko'rsatadi. Bu borada ma'naviyat targ'ibotchilari mehnatini moddiy-ma'naviy rag'batlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy mexanizmlarni yaratish vazifasi dolzarbdir.

Ma'naviyat va ma'rifikatga tayangan mamlakatda tinchlik, barqarorlik hukmron bo'ladi va u taraqqiy qilib boraveradi. Ma'naviyati va ma'rifikati yuksak xalqning davlati ham har tomonlama yuksalib boraveradi. Unday davlat va xalqni zo'ravonlik siyosati va qurol yordamida o'ziga qaratish mumkin, ammo ma'naviy jihatdan batamom qaram qilib bo'lmaydi. Bunga quyidagi fikr misol bo'la oladi. Chor Rossiyasi Turkistonni istilo etgach, sharqshunos olim V. V. Bartold (1869–1930) bu o'lkaga bir necha bor tashrif buyurib, so'ng Sankt-Peterburg Fanlar akademiyasi madaniy kengashida hisob beradi. U hisobotida shunday ta'kidlaydi: «Biz shu paytgacha madaniy saviyasi o'zimizdan ancha past bo'lgan xalqlarning yerlarini bosib oldik. Endi bo'lsa, Turkiston misolida tamoman teskari ahvolga duch kelib turibmiz... Turkistonliklar bizning harbiy ustunligimizga tan berishdi, ammo ma'naviy ustunliklarimizni tan olishganlari yo'q. Vazifa shuni tan oldirishdan iboratdir. To shuni tan olinmas ekan, biz uzilkesil g'alaba qozondik deb aytal olmaymiz». Bu fikrlarni izohlashga hojat bo'lmasa kerak. Ma'naviyat siyosatni to'g'ri, adolatli, insonparvarlik yo'nalishda olib borishda katta ahamiyatga egadir. Davlatning kuchqudrati, uning barkamolligini ta'minlashning muhim omillaridan biri siyosatni ana shu yo'nalishda olib borish sanaladi. Ayni vaqtida ma'naviyat davlat siyosatini ommaga yetkazib turishga yaqindan yordam beradi.

Ma'naviyatli va ma'rifikatli, iymonli kishilargina o'zining halol mehnati bilan boylik yaratuvchi, izlanuvchi, insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'lувчи haqiqiy vatanparvar bo'ladilar. Shunday fuqarolarga ega bo'lgan mamlakat, jamiyat iqtisodiy taraqqiyot pog'onalaridan uzlusiz yuqorilab boraveradi.

Ma'naviyatli va ma'rifikatli kishilarda yaxshilikka moyillik va yomonlikdan tiyilish hissi kuchli bo'ladi. Demakki, turli yomonliklardan tiyilish hissi jamiyatda osoyishtalik va farovonlikka olib keladi.

Kelajak yoshlarniki bo'lgani bois ham mamlakatimizda ularning ma'rifikatli, tadbirkor, zukko va o'z kasbining ustasi, iymon-e'tiqodli, zamon talablari darajasida yetuk, ma'naviy barkamol bo'lishlari uchun Prezidentimiz boshliq hukumatimiz va keng jamoatchilik barcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, hunar egallashni izchillik bilan amalga oshirish iqtidorli yoshlarga yaratilgan keng imkoniyatdir. Bu borada Oliy Majlisning IX sessiyasida Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim

to‘g‘risida»gi qonuni qabul qilinganligida hamda bu masala ikkinchi chaqiriq Oliy Majlis birinchi sessiyasida ustuvor yo‘nalishlardan biri qilib belgilanganligida o‘z ifodasini topgan. Yurtboshimiz ta’kidlaganlaridek, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o‘rnimizga kimlar kelishiga bog‘liq.

Ma’naviyat va mafkura o‘zaro mustahkam bog‘langandir. Ma’naviyat insonning ruhiyati, o‘zini o‘zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo‘lsa, mafkura ma’lum bir davlat, jamiyat, millat, sinf va ijtimoiy guruhlar huquqiy, falsafiy, badiiy, diniy g‘oya, nazariya va qarashlarining tizimi hisoblanadi.

Mustaqillik bizni porloq rivojlanish imkoniyatlariga ega qildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Huquqiy davlat, adolatli fuqarolik jamiyat oldimizda turgan nurafshon manzildir. Ammo bu manzil o‘z-o‘zidan bunyod bo‘lmaydi, uni mashaqqatlarsiz, izlanishlarsiz, yaratuvchilik va ijodkorlik ishlarisiz egallab bo‘lmaydi. Yangi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongni, ma’naviy kamolotning yanada baland bosqichga ko‘tarilishini taqozo etadi. Ilg‘or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy mustaqillik mafkuramiz ana shu yangi ma’naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir. Prezident Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Biz farzandlarimizning nafaqat jismoni va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki, ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz»¹.

Yuqoridagilardan xulosa yasasak, davlat ma’naviyati yetuk shaxslarsiz rivojlana olmaydi. Chunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda siyosiy ma’naviyat katta ahamiyat kasb etaveradi. Shu bois, haqiqiy, yuksak ma’naviyatli xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

3. Huquq va ma’naviyat, ularning farqi va umumiyligi

Ma’naviyat va huquq bir-biri bilan bog‘liqdir. Jamiyat va davlatda huquq normalarining belgilanishi odamlarning qay darajada ma’naviyatga ega bo‘lishlariga bog‘liq. Mamlakat miqyosida qabul qilinadigan

¹ Каримов И. А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010. – Б. 198.

Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning darajalari shu mamlakat fuqarolarining ma'naviyati va siyosiy madaniyatini ifoda etadi. Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchidan, Konstitutsiya qonunlar va boshqa normativ hujjatlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, burchlari va davlat siyosatining yo'nalishlarini fuqarolarning ma'naviyati rivojlanishi darajalariga mos ravishda rasman belgilab beradi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, yuqorida turib qonun qabul qilish, har qanday yuksak darajadagi qonun va normativ hujjatlar faqat fuqarolarning ma'naviy salohiyati va siyosiy ongi darajasidagina amal qiladi, undan nariga o'ta olmaydi. Aslini olganda, odamlarning ma'naviyati va siyosiy ongi qabul qilinadigan qonunlar va boshqa hujjatlarda belgilanadigan normalardan yuqori bo'lishi kerak. Ana shundagina fuqarolar jamiyatning taraqqiy qilishida faol ishtirok etadilar.

Agar fuqarolarning ma'naviyati va siyosiy ongi qabul qilingan qonunlar va boshqa hujjatlarning darajalaridan orqada qoladigan bo'lsa, u qonunlar va hujjatlar qanchalik fuqarolar manfaatlarini ifoda etmasin, ular qog'ozda qolib ketaveradi. Bunday holatda jamiyat hayotida ikki salbiy holat hukm suradi. *Birinchidan*, fuqarolar bilan davlat o'rtasida masofa uzoqlashib boradi; *ikkinchidan*, taraqqiyot haqida aytildigian so'zlar bilan real hayot bir-biriga to'g'ri kelmay qoladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunga yo'l qo'ymaslik uchun davlat o'z fuqarolarining ma'naviyatini rivojlantirishi va siyosiy ongini o'stirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishi talab etiladi.

Mustaqil O'zbekiston davlati Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida fuqarolarning ma'naviyati, siyosiy va huquqiy ongini o'stirish sohasida doimiy g'amxo'rlik qilib kelmoqda. Buni mustaqil Vatanimizning birinchi asosiy qonuni hisoblangan Konstitutsiyamizda yaqqol ko'rshimiz mumkin.

Konstitutsiyada mamlakatimizda adolat, demokratiya, huquq ustuvorligiga asoslangan jamiyat qurishning yo'nalishlari belgilab berilgan. Mustaqilligimizning mohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib, fuqarolarimizning huquqlari, erkinliklari, burchlarining normalari belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizda milliy xususiyatlarimiz va qadriyatlarimizdan kelib chiqib, bir qator huquqiy normalar belgilanganki, u xalqimiz ma'naviyati, qalbi va ruhiyati qirralarini o'zida ifoda etgan. Jumladan, unda «Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg'iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir» (45-modda), «Xotin-qizlar va erkaklar

teng huquqlidirlar» (46-modda), «Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega» (63-modda), «Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta’minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan xayriya faoliyatini rag‘batlanadiradi» (64-moddaning 2-qismi), «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» (65-moddaning ikkinchi qismi) deyilgan normalar faqat xalq manfaatlarini himoya qiladi.

Ko‘rinib turibdiki, Konstitutsiyadan keltirilgan har bir moddada davlatimizning fuqarolarining huquqlari, erkinliklarini ta’minlash, ularni moddiy va ma’naviy jihatdan yuksalishi to‘g‘risida ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rligi ifodasini topgan. Mamlakatimizda fuqarolarimizning huquqiy bilimlarini oshirish to‘g‘risida izchillik bilan siyosat olib borilmoqda. Jumladan, 1996-yil 11–13-sentabrda Toshkentda inson huquqlarini ta’minlovchi milliy muassasalarning faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro seminar o‘tkazildi. Bu seminarda inson huquqlarini ta’minlashdek eng dolzarb masala muhokama etildi. Prezidentimiz farmoni bilan inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi tashkil etildi. Bu davlatimizning umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni ta’minlash yo‘lidagi dadil qadamidir.

Har bir fuqaroning o‘z huquq va burchlarini bilishlari, unga amal qilishlari jamiyat hayoti uchun, mamlakatda barqarorlik va qonunlarning ustuvorligini ta’minlashda katta amaliy ahamiyatga ega.

Hayotimizning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o‘rganilishi, an’ana va urfatlarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji, eng muhimmi, jamiyat tafakkurining o‘zgarishi va yuksalishi bilan uzviy bog‘liqdir¹.

Shuning uchun ham o‘z haq-huquqini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofdagi voqeа-hodisalarga mustaqil fikrini bildiradigan, o‘z manfaatidan davlat manfaatini ustun qo‘yadigan, barkamol insonlarni tarbiyalash mustaqillik yillarida hal qiluvchi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda.

Barchaga ma’lumki, inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi. Bu ildiz qancha teran bo‘lsa, tug‘ilib o‘sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo‘ladi. Bugun biz yurtimizda xalqimiz

¹ Qarang: *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч.* – Т., 2008. – Б. 76–77.

xohish-irodasining ifodasi bo‘lgan Konstitutsiya va qonunlar asosida demokratik, dunyoviy davlat barpo etmoqdamiz. Bu davlat, avvalambor, dunyoviy taraqqiyotga, uning eng ilg‘or yutuq va natijalariga tayanadi.

Mamlakatimizda ma’naviyatimizning muhim omili sifatida milliy tilimizning yoshlarimiz tomonidan chuqur o‘zlashtirilishi, uning chinakam davlat maqomini olishi zarurligi muntazam ta’kidlanib kelinmoqda. Haqiqatan bu borada juda katta ishlar amalga oshirildi.

Davlat tili to‘g‘risida qonun qabul qilinganligiga (1989-yil 21-oktabr) 22 yil bo‘ldi. Tilimizga beriladigan bunday imkoniyat uchun qanchadan-qancha millatparvar odamlarimiz kurash olib bordilar. Lekin vaqt o‘tishi bilan «his-hayajonlarimiz» so‘nib bormoqda.

Aslida davlat tilini barcha jabhalarda joriy etish bo‘yicha respublika, viloyatlar va shaharlarda maxsus hay’at tuzilgan. Bunday hay’atlarning ishi ham sust, talab darajasida emas. Bu hol albatta ma’naviyatimiz rivojiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazadi.

Qonunlarni bilish, ularga itoat etish, o‘z huquqlarini, erkinliklarini va burchlarini tushunib yetish har bir fuqaroning yuksak ma’naviy fazilati. Bu adolatli, demokratik, huquq ustuvorligiga asoslangan yangi jamiyat qurishning ham kafolatidir. Xuddi shu ma’noda yoshlarimiz, talabalarimiz huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishlari va siyosiy ongalarini rivojlantirishlari zarurligi bugunning eng dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida Prezident Islom Karimov «Adolat – qonun ustuvorligida» nomli ma’ruzasida: «Qonun ustuvorligini ta’minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarning qonunga bo‘ysunishi va hurmat ruhida tarbiyalash – bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik, huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatni qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda sud-huquq tizimini erkinlashtirish va demokratlashtirish borasida muhim qadamlar qo‘yilganini e’tirof etmoq lozim. Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag‘on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ishonchli tarzda qo‘riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda. Fuqarolarning sudga ishonchi mustahkamlanib bormoqda.

Bu islohotlar ijtimoiy hayat va davlat qurilishining demokratik o‘zgarishlar yo‘lida bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minladi. Shu

bilan birgalikda, ijtimoiy taraqqiyot odimlari, jamiyatimizda ro'y berayotgan, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar sud-huquq tizimiga joriy qilinayotgan islohotlarni tanqidiy baholab, ularni yanada chuqurlashtirish va qat'iyatlik bilan olib borishni talab etmoqda.

Huquq-tartibot idoralarining ayrim noplari xodimlari uchun fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish birinchi navbatdagi vazifa bo'lmay, balki qo'rqtish, o'z vakolati va hukmdorligini ko'rsatib qo'yishga intilish, o'zini go'yo jinoyatchilikka qarshi kurashayotganday qilib ko'rsatish kabi noxush odat hamon yashab kelmoqda.

Shundaylar ham borki, ular qonunchiligidagi ayrim nomukammalliklar, odamlarning xato va baxtsizliklari hisobiga o'zlarining g'arazli, tamagirlilik maqsadlariga erishishga urinadilar. Bunday xodimlar xalq, davlatning obro'si va farovonligi haqida mutlaqo o'ylamaydilar.

Milliy an'analarimiz ruhida tarbiyalangan ko'pgina fuqarolarimizga sodir etilgan jinoyati uchun so'roq yoki tergov ishlari boshlanishining o'ziyoq tegishli xulosa chiqarib olish va qonunni boshqa buzmaslik uchun kifoya qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Jinoyatchilikka qarshi kurash holatlarida sudlanuvchilarning xotinlari, bola-chaqalari bamisoli ko'chaga haydalib, turli xo'rslash va kamsitishlarga duchor etilardi. Aslida, hibsga olingan va mahkum etilganlarning bolalari va qarindoshlari moddiy va ma'naviy nuqtai nazardan nohaq badnom bo'lib, ana shu tazyiqlarni bir umr «ko'tarib yurishga» majbur bo'lardilar. Ammo qonunni buzgan oila boshlig'ining qilmishi uchun uning xotini, o'g'il-qizi aziyat chekmasligi va javob bermasligi kerak.

Inson huquqining mohiyati ham, avvalambor, mana shundadir. Biz sinfiy kurash g'oyalariga, davlat manfaatlarining mutlaq ustunligiga asoslangan va hali-beri ongimizdan batamom yo'q bo'lib ketmagan yondashuvdan voz kechishimiz kerak».

4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ma'naviy sabablari

Inqiroz – moliyaviy tizim va iqtisodiyotga xavf, tahdid soladigan murakkab, shu bilan birga, ayni paytda global ijtimoiy hodisadir. Huquqiy ma'noda inqiroz huquq subyektlari o'rtasidagi normal tovar-pul munosabatlarining amalda bo'lishiga, ularning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoyasini ta'minlashga putur yetkazadi.

2009-yil birinchi choragida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarining oldini olish va bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 16 ta farmon va qarorlar, Vazirlar Mahkamasining 18 ta qarori, farmoyishi va boshqa hujjatlari, vazirliklar,

idoralar hamda mahalliy hokimiyat organlarining 5 ta me'yoriy hujjati qabul qilindi. Ushbu hujjatlarning o'z vaqtida qabul qilinishi va inqirozga qarshi choralar dasturining faol amalga oshirilishi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta'minlash imkonini bermoqda.

2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga baho berar ekanlar, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislari bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq salbiy oqibatlarni oldinda ko'rmoqdalar. «2008-yildan boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning sababi ham aslida utopik, egotsentrik g'oyalar, puxta o'ylanmay qabul qilingan qarorlarning natijasidir. Bu inqiroz aslida, dunyoni haqiqat tomon yuz o'girishiga majbur qiladigan ogohlantirishdir»¹.

Prezident Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» deb nomlangan kitobi quyidagi ikki qismdan iborat:

birinchisi – jahon moliyaviy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri, uning oqibatlarining oldini olish va yumshatishga asos bo'lgan omillar;

ikkinchisi – bank tizimini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik yangilash va diversifikatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish – O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'lidir.

Belgiya davlat vaziri Mark Eyskens: «O'zbekiston Prezidentining kitobi muhim va serqirralidir»², – deb ta'riflagan. «Jahon» axborot agentligiga bergen intervyusida Mark Eyskens Prezident Islom Karimovning asari nihoyatda dolzarb mavzuga bag'ishlanib, zamonamizning eng keskin muammolaridan biri jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi to'g'risidagi bilimlarni har tomonlama oshirishga xizmat qilishini ta'kidladi. Asarning o'ziga xosligi shundaki, u yoritilgan mavzu va tanlangan muammo borasida yagona bo'lib, ayni paytga qadar boshqa davlatlar rahbarlari bu kabi kitobga «qo'l urmagan».

Moliyaviy bozor inqirozi deganda, aksiyalarning mintaqaviy indeksi rivojlangan bozorlarda 20 % dan va rivojlanayotgan bozorlarda 35 % dan pasayib ketadigan vaziyat tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotining mintaqaviylashuvi va globallashuvi ayrim mamlakatlarda yuzaga keladigan moliyaviy inqirozlar aksariyat hollarda *mintaqaviy va global inqirozlarga aylanishiga* olib kelmoqda.

¹ Qarang: *Мамадалиев Ш.О.* Ватанпарвар малакали кадрларни тайёрлаш – миллий ғоя талаби // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – 2010. – №1. – Б. 98.

² Qarang: Халқ сўзи. – 2009. – 2 апр.

Moliyaviy inqirozlarning quyidagi turlari farqlanadi:

1) valuta inqirozi (milliy valutalarning devalvatsiyasiga (qadrsizlanishiga) olib keladi);

2) *bank inqirozi (davlatning bank tizimini mustahkamlash uchun mablag' ajratishni talab qiladi);*

3) qarz inqirozi (ichki yoki tashqi qarz muammolarining keskinlashuvi bilan bog'liq);

4) tizimli inqiroz (mamlakatning butun moliyaviy tizimiga daxldordir va yuqorida sanab o'tilgan inqirozlarning barchasini qamrab oladi, masalan, 1998-yilda Rossiyada boshlangan inqiroz).

Inqirozlarning asosiy sabablari:

1) ojiz makroiqtisodiy siyosat;

2) rivojlanmagan moliyaviy tizim;

3) tashqi omillarning (eksport uchun mo'ljallangan asosiy tovarlar narxining tushib ketishi, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning keskinlashuvi va hokazo) noqulay ta'siri;

4) milliy pul birligining asossiz ko'tarilgan almashuv kursi;

5) siyosiy beqarorlik.

XX asrning oxirgi choragida 200 dan ortiq valuta va bank inqirozining 158 tasi valuta inqirozi bo'lgan. Undan uchdan bir qismida esa milliy valuta 75 % ga qadrsizlangan. Rivojlanayotgan va postsotsialistik mamlakatlar moliyaviy inqirozlarni yengish davomida o'z yalpi milliy mahsulotining 55 % gacha yo'qotganlar, inqirozdan avvalgi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tiklash uchun esa ularga ikki yildan olti yilgacha vaqt talab etildi.

Moliyaviy barqarorlikka tahdidlar quyidagilardan iborat:

– tashqi qarzni to'la hajmda qoplash (qaytarish) uchun mablag'ning yo'qligi bilan bog'liq budget muammolari;

– milliy banklarning qarzligi;

– ishlab chiqarish vositalari bozorida hisob-kitoblarni forward kontraktlari bo'yicha amalga oshirish imkonining yo'qligi;

– xorijiy valutaga talabning jiddiy ortishi, davlat budgeti taqchilligining ko'payishi;

– inflatsiya sur'atlarining o'sishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli kitobida ta'kidlaganidek, hozirgi jahon xo'jaligi global xususiyatga ega bo'lib, katta-yu kichik milliy iqtisodiyotlar majmuidan iborat. Dunyo davlatlari iqtisodiyotining barchasi uzilmas rishtalar bilan bog'liq bo'lib, bir-birlarini to'ldirib turadi. Hozirgi dunyoda ijtimoiy va salbiy

ta'sirlarga uchramagan iqtisodiyotlar yo'qligi, O'zbekistonning bundan mustasno emasligi alohida ta'kidlanadi. Asarda inqiroz oqibatlarining jiddiyligini inobatga olgan holda Prezident jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi davrida ishlab chiqarishni muntazam yangilab, modernizatsiya qilib borish zarurligini kun tartibiga yanada o'tkir qilib qo'yilayotgani va buning uchun bor kuch-imkoniyatimiz va resurslarimizni safarbar etishni talab qilishini uqtiradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indekslari va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi, o'z navbatida, ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli kitobida dunyoning hozirgi vaqtida bir qator yetakchi tahlil va ekspertlik markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarni o'rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga kelganligini qayd etdi: "Birinchidan, moliya-bank tizimidagi inqiroz jarayonlari deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, ichki sur'atlarining keskin pasayishi, retsessiya (ishlab chiqarish sur'atlarining keskin pasayishi) va iqtisodiy pasayishning muqarrarligi, investitsiyaviy faollik ko'laming cheklanishi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, shuningdek, jahonning ko'plab mamlakatlariga ta'sir ko'rsatadigan jiddiy ijtimoiy talafotlar sodir bo'lishi mumkinligi o'z tasdig'ini topmoqda".

Darhaqiqat, keyingi yillarda rivojlangan mamlakatlarda surunkali budget taqchilligi va salbiy tashqi savdo saldosining kuzatilayotganligi jahon moliyaviy inqirozi vujudga kelishining asosiy omillaridan biri hisoblanmoqda. Ayniqsa, jahon iqtisodiyotida kuzatilgan nomutanosiblik holatlari, ya'ni ayrim rivojlangan mamlakatlar tashqi savdo balansida yirik miqdordagi taqchillikning sezilayotganligi asosan rivojlanayotgan mamlakatlar savdo balansining ortishiga olib keldi. Natijada dunyo mamlakatlari valuta zaxiralarining o'zgarishi, jumladan, Xitoy, Yaponiya, Yaqin Sharq mamlakatlarida valuta zaxiralarining keskin o'sishi yuz berdi.

Avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligi va ushbu tizimni isloh qilish zarurligini ko'rsatdi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hali-beri davom etayotgan og‘ir bir sharoitda iqtisodiyotning yanada barqaror rivojlanishini ta’minlash, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash borasidagi ishlarni davom ettirishni taqozo etmoqda. «O‘zbekistonning inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish borasida erishgan yutuqlari nufuzli xalqaro moliya tashkilotlari va iqtisodiy institutlar, jumladan, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va dunyoning boshqa bir qator yetakchi moliyaviy institutlari tomonidan e’tirof etildi»¹.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, hozirda rivojlanib borayotgan moliyaviy buhron, bir qator banklar va moliyaviy muassasalarning inqirozi ta’sirida ko‘plab mamlakatlarda ishsizlik, ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi kuchayib bormoqda. Shundan kelib chiqib, davlatimiz tomonidan inqirozga qarshi choralar dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda talabni rag‘batlantirishga yo‘naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar majmui o‘z aksini topganki, shubhasiz, bularning bari o‘z samarasini bermoqda.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Bozor iqtisodiyoti deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘lini qanday tushunasiz?
3. Ma’naviyat va iqtisodning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.
4. Prezident Islom Karimovning ma’naviyat va iqtisodning bog‘liqligi to‘g‘risidagi qanday fikrini bilasiz?
5. Ma’naviyatga tahdidlar deganda nimani tushunasiz?
6. O‘zbekiston siyosatining ma’naviy jihatlarini tushuntiring.
7. Ma’naviyat va huquqning o‘zaro bog‘liqligini izohlang.
8. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida xalqimizning ma’naviyati to‘g‘risidagi moddalarning mohiyatini aytib bering.
9. Prezident Islom Karimovning rahbar xodimlarning ma’naviy-axloqiy xislatlari haqidagi fikrlaridan ayting.
10. Mafkura va ma’naviyatning o‘zaro bog‘liqligini tushuntiring.

¹ Каримов И. А. Жаҳон инқирозининг оқибатларини енгиш, мамлакатимизни модернизация қилиш ва тараққий топган давлатлар даражасига кўтарилиш сари. Т.18. – Т., 2010. – Б. 172.

II bo‘lim. **MUSTAQILLIK VA MILLIY MA’NAVIYAT**

5-mavzu. YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

1. O‘zbekistonda insonshunoslik fani (antropologiya)ning mustaqillik yillaridagi rivoji

O‘zbekistonda insonshunoslik (antropologiya) fanining rivoji to‘g‘risida fikr bildirishdan oldin, jahonda ushbu fan taraqqiyotining ayrim jihatlariga e’tibor qaratsak. Ushbu fan rivojiga qadimgi davrda jahonning yirik mutafakkirlari Suqrot, Aflatun, Aristotel, o‘rta asr va yangi davrda Kant, Gegel, Feyerbax, Maslou, Frankl kabilar hissalarini qo‘sghanlar. Jumladan, Arastu «Siyosat» asarida: «Tabiat inson qo‘liga quroq – aqliy va axloqiy kuch bergen, ammo shu quroqni teskari tomonga ham ishlatalish mumkin, shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘lmagan odam eng insofsiz va yovvoyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo‘lib qoladi»¹, – degan fikrni yozgan.

O‘zbekistonda insonshunoslik fanining rivojiga buyuk mutafakkir ajdodlarimizning ijodlari, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz katta ta’sir ko‘rsatmasdan qolmagan, albatta. Buni ushbu asarlarni o‘qish, qadriyatlarimizni faoliyatimiz mezoniga aylantirish orqali anglashimiz mumkin. Ular bizni doimo halol mehnat evaziga yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka undaydi.

Insonshunoslik fanining rivojiga ma’naviyat ham ijobiy ta’sir qilgan. Chunki insonning chinakam insonligini ifodalaydigan belgi bu – uning ma’naviyati yoki ma’naviy qiyofasi² hisoblanadi. Shu o‘rinda insonni yaxlit o‘rganadigan fan va ma’naviyat o‘rtasida o‘zaro chambarchas bog‘liqlik mavjudligini ta’kidlash mumkin. Prezident Islom Karimov mustaqillikni qo‘lga kiritishimizdan ilgari, ya’ni 1989-yilning 29-noyabrida respublika Fanlar akademiyasida olimlar bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvda so‘zlagan nutqida: «Biz xalqning milliy o‘zligini anglash jarayoni nihayatda jo‘shqin ravishda kuchayib borayotganligining guvohimiz. Umuman

¹ Qarang: *Мұхаммадиев Н.* Ички ишлар идоралари ходимларининг касб этикаси ва эстетик маданияти. – Т., 1998. – Б.32.

² Qarang: *Чориев А.* Инсон фалсафаси. II. Мустакил шахс. – Т., 2002. – Б. 48.

bu, shubhasiz, ijobiy jarayondir, lekin ana shu jarayon bilan bir vaqtda salbiy hodisalar ham yuz bermoqda. Biz buni ham ko'rib turibmiz. Milliy o'zlikni anglashda buzilishlarga olib kelayotgan sabablarni, omillarni aniqlab olishimiz, ana shu jarayonlarga ijobiy ta'sir o'tkazish yo'llarini belgilashimiz, milliylik va baynalminallik uyg'un bo'lishiga erishishimiz kerak. ... tarixiy xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur»¹, – deya gumanitar fanlar hamda bu soha rivojiga hissa qo'shadigan jamiyatshunoslar oldiga katta vazifalarni qo'ygan edi. Aynan shu yerda Prezident insonshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishiga ma'naviy yuksalish orqali erishish mumkinligi haqida fikr yuritgan edi.

«Insoniyat tarixi ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi. O'ylaymanki, yer yuzida qancha inson, qancha taqdir bo'lsa, har birining o'z ma'naviy olami bor. Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak»². O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ushbu g'oyalari mustaqillikning ilk yillaridan o'zining amaliy natijalarini topa boshladi.

1990-yil 24-martda Oliy Kengash sessiyasida O'zbekistonda birinchi marta Prezident lavozimi joriy etilib, Islom Abdug'aniyevich Karimov ushbu lavozimga munosib topildi. O'zbekiston Prezidentining birinchi nutqidayoq «xalqni ma'naviy yuksaltirish» davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi³.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda fuqarolar komilligini ta'minlab beradigan moddiy va ma'naviy omillarga asosiy e'tibor qaratildi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, «Biz istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab xalqimizning asrlar davomida intilib kelgan orzu-maqsadlari va zamon talablarini, dunyoviy taraqqiyot mezonlarini hisobga olgan holda, jamiyatimiz hayotida ana shu ikki omilning uyg'un tarzda rivojlanishiga alohida e'tibor qaratdik. Mustaqillik biz uchun nafaqat iqtisodiy, balki beqiyos ma'naviy imkoniyatlar manbai ekanini anglab, mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini, iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish jarayonlarini

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б. 90.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 29.

³ Qarang: Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Т., 2011. – Б. 158–161.

aynan shu asosda tashkil etishga ustuvor ahamiyat berdik»¹. Ya’ni, inson ma’naviyatini yuksaltirish, ajdodlar tomonidan yaratilgan ma’naviy boyliklarni xalqqa yetkazish orqali insonshunoslik fanining taraqqiyotiga katta hissa qo’shildi. Chunonchi, Prezident Islom Karimovning 1994-yil 23-aprelda «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida», 1996-yil 9-sentabrda «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida», 1999-yil 3-sentabrda «Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashini qo’llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmonlari, 2006-yil 25-avgustda «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi qarori, 1998-yil 24-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish choralari to‘g‘risida»gi qarori hamda 1997-yildan boshlab «Ma’naviyat va ma’rifat asoslari» maxsus kursining ta’lim tizimiga kiritilganligi ham inson ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan ijobiy ishlardan hisoblanadi.

Insonning komilligini ta’minlaydigan «ma’naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy va boshqa ko‘plab ta’riflarini keltirish mumkin. Mustaqillikning ilk yillaridan to hozirgi kunga qadar mamlakatimiz olimlari ushbu masalaga diqqat-e’tiborini qaratmoqdalar. Albatta, har qaysi olim, fikrlovchi inson ma’naviyat borasida o‘zining fikr va nuqtai nazarlarini ifoda etadi, shundan kelib chiqib, turlicha ta’rif va tavsiflar beradi. Hozirgi kunda ushbu masalada olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o‘quv qo’llanmalar, lug‘atlarda «ma’naviyat» tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o‘ziga xos ta’riflar berilayotganini kuzatish mumkin. Bu fikrlarni inkor etmagan holda, «ma’naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma’ni», «ma’no» degan so‘zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb qarash ham mumkin. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin² tutishini Prezident ta’kidlab o‘tgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tarixiy va zamonaviy, ilmiy va nazariy tajribaga asoslanib: «Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 67–68.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б.19.

beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»¹, – deb ma’naviyatga keng va batafsil ta’rif beradilar.

«Ma’naviyat» tushunchasi jamiyatdagi mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni mujassam etib, insonni komillikka yetaklaydi. Uning negizi va mazmunini insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg‘ayishi belgilaydi. Shu sababli ham barcha jamiyatlarda unga birinchi galda alohida e’tibor qaratilishi kerak. Chunki jamiyatdagi barcha illatlar, jinoyatlarning asosini ma’naviyatsizlik tashkil etadi.

Ma’naviyat faqatgina inson zotiga taalluqli hodisa bo‘lib, jamiyatda insonning qanchalik darajada ma’naviyatli ekanligi haqidagi baho o‘z navbatida uning atrofidagi insonlar tomonidan beriladi. Haqiqatan ham, insonning ma’naviy jihatlariga e’tibor qilinganda, uni yaxlit tizim sifatida tushunish, har tomonlama chuqur o‘rganish o‘zining ijobiy natijalarini beradi. Prezident Islom Karimov bu haqida shunday fikr bildiradi: «... gap bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash haqida bormoqda. Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tinchlik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar.

Ikkinchisi – bunga mutlaqo qarama-qarshi bo‘lgan yondashuv, ya’ni hayotning ma’no-mazmuni haqida bosh qotirmasdan, bunday savollar bilan o‘zini qiynamasdan, faqat nafs qayg‘usi va o‘tkinchi hoyu havasga, huzur-halovatga berilib, yengil-yelpi umr kechiradigan, o‘zining ota-onा va farzand, el-yurt oldidagi burchiga umuman befarq bo‘lib yashaydigan odamlarning fikr-qarashlari»².

Jamiyatda Yurtboshimiz ta’kidlagan birinchi toifaga kiruvchi insonlar sonining ko‘payishi ijobiy holat hisoblanadi. Dunyoga kelgan har bir inson halol va pok yashashni o‘zi uchun hayotiy e’tiqod, oliv maqsad deb bilsa, jamiyatda ma’naviy-ruhiy barqarorlik yuzaga keladi, bu esa o‘z navbatida jamiyatda rivojlanish va to‘kinlikni keltirib chiqaradi. Shunday insonlar hozirgi kunda biz bilan birga yashamoqda va ularning ezgu ishlari tufayli hozirda ma’naviyat barqaror bo‘lib kelmoqda.

Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan beba ho boylik bo‘lgan ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Hozirgi yosh avlod ham ajdodlarimiz

¹ O‘sha manba.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 22.

tomonidan yaratilgan ilm-fan yutuqlaridan faxrlanishi, ta'lim-tarbiyani o'z faoliyatining mezoniga aylantirish bilan chegaralanib qolmasdan, balki yanada rivojlantirishni asosiy maqsad deb bilishlari shart. Buning uchun respublikamizda barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Darhaqiqat, Asosiy qonunimizda barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlanganligi, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganligi, shu asosda mamlakatimizda misli ko'rilmagan darajada ishlar qilinganligi buning yaqqol tasdig'idir. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda sog'lom, vatanparvar, bilimli, kamtar, komil insonlarning shakllanishiga turki bo'ladi. Buni Islom Karimovning: «Agar biz dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqa xalqlar ham ozodlik va mustaqillikni qo'lga kiritish, milliy tiklanish, o'z davlatchiligini, havas qilsa arziydigan fuqarolik jamiyatini mustahkamlash jarayonida ana shunday fazilatlarga tayanib va suyanib, barcha sohalarda – bu iqtisodiyot yoki ijtimoiy hayot bo'ladimi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va ilm-fan bo'ladimi – o'zining beqiyos ichki qobiliyat va salohiyatini ishga solish, uni ro'yobga chiqarish hisobidan taraqqiyotga erishganini ko'ramiz»¹, – degan fikrlari ham tasdiqlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, insonshunoslik fani bu insonning ma'naviy, axloqiy fazilatlari bilan chambarchas bog'lanib ketganligi haqida xulosaga kelamiz. Umuman olganda, hozirda yuzaga kelgan insonshunoslik fani xulosasiga binoan inson o'zligini anglab yetsa, hayotidan qoniqish hosil qilsa, o'z qadr-qimmatini yuqori baholash malakasiga ega bo'lsa, faqat o'shanda u boshqalarni hurmatlay, e'zozlay oladi, ularga yaxshi munosabatda bo'ladi va bundan yuqori qoniqish his qiladi. Bu esa o'z navbatida insonshunoslik (antropologiya) fani rivojiga ulkan hissa qo'shadi.

2. Fozil inson, orif inson, komil inson, barkamol inson tushunchalarining mazmuni

Mamlakatimizning mustaqilligini nafaqat ta'minlaydigan, balki mustahkamlaydigan kuch bu – ma'naviy boy insonlardir. Bunga jamiyatning o'zi ehtiyoj sezadi. Shu sababli ham, hozirgi kunda oldimizga qo'ygan vazifalarimizdan biri ham ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdir. Buyuk kelajak ma'naviy barkamol insonlarga tayanganda yaratiladi. Yoki ma'naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 26.

olandilar. Shuning uchun ham ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb vazifa.

Albatta, jamiyatda inson ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan tafakkur xalqimizning yetakchi, ilg‘or vakillari tomonidan shakllantirilgan, mukammallashtirilgan va «Inson – eng ulug‘ zot» degan g‘oya ilgari surilgan. Haqiqatan ham, insonning qadrlanishi va e’zozlanishi jamiyatga katta naf keltiradi. Shu bois, donishmandlar ta’limotining asosini «inson kamoloti» g‘oyasi tashkil etgan. Buyuk mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy – fozil inson, tasavvuf ta’limotining asoschilari Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband – orif inson, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy – komil insonni tarbiyalash borasidagi insonshunoslik ta’limotlarini yaratdilar. Markaziy Osiyo jadidchilari Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy inson tarbiyasini yo hayot, yo mamot, yo najot yoki halokatga tenglashtirdilar. «Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida ming-minglab qo‘lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir»¹, – deb ta’kidlaydi Prezident Islom Karimov. Bugungi avlod ushbu ma’naviy boyliklardan o‘z faoliyatida ijodiy foydalansa, biz maqsad qilib olgan huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni yoki Forobiy ta’biri bilan aytganda, «fozil odamlar shahri» qaror topadi.

Forobiy jamiyat o‘z rivojida yetuklikka tomon intilishi zarurligi, shuning uchun kurash olib borishi va nihoyat fozil inson, fozil jamiyat darajasiga ko‘tarilishi haqida fikr yuritadi. Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta’limoti uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlari vujudga keladi. Masalan, axloq-odobli yetuk inson o‘n ikki fazilatga ega bo‘lmog‘i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlab, yaxshilik tomon yetaklaydi.

Orif inson haqida tasavvuf adabiyotida ko‘p asarlar bitilgan. Tasavvuf ta’limotining vakillari Ahmad Yassaviy, Najmuddin Kubro, Bahouddin Naqshband asarlarida oriflik haqida fikrlar bitilgan. Ahmad Yassaviy nafsni tiyish orqali oriflikka erishish mumkinligini aytadi. Mol-dunyoga,

¹ Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 30–31.

boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochko‘z kishilarni Yassaviy beayov tanqid qilib, quyidagicha ta’kidlaydi:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,
Ishonmag ‘il molingga, bir kun qo ‘ldan ketaro,
Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,
To ‘rt oyoqlik cho ‘bin ot bir kun sango yetaro.*

Butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan buyuk alloma va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Bahouddin Naqshbandning «Diling Ollohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin», degan hayotbaxsh hikmati dindorlikning oljanob ma’no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddi shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy «Insoni komil» nomli risolasida komil insonga ta’rif berib, shunday yozadi: «Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolotga yetgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi axloq va maorif»¹. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko‘tarila oladi. Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Komil inson insonlar ichidan yetishib chiqadigan mo‘tabar zotdir. Insonlar komillikka axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Yuqorida aytganimizdek, «komil inson» tushunchasi «ma’naviy barkamol inson» tushunchasi bilan hamohangdir. Ma’naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ma’naviy barkamollikka intilish bu – komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. To‘rtala tushuncha: fozil inson, orif inson, komil inson, barkamol inson – darajama-daraja chuqur ma’no kasb eta boradi. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, barkamol inson bo‘lishning aniq cheki va chegarasi yo‘q.

Komillikning belgisi haq yo‘lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to‘g‘ri yo‘lga solsa, haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shuncha komil bo‘ladi.

¹ Qarang: *Комилов Н. Тасаввуф* (Биринчи китоб). – Т., 1996. – Б. 147.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturilamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Qobusnomá», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul qulub», Husayn Voiz Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» kabilarni ta'kidlash mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligidagi odil shoh vaadolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insoniy sharqona fazilatlar bayon etib berilgan.

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul muhabbat» asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan rizq topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo'ya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi.

Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab hushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, o'z qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iymonli bo'lish,

halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo‘lish nechog‘lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham Prezidentimiz ma’naviy barkamol inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, Vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelayotir. Prezidentimizning quyidagi ta’rifida komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilib berilganligi diqqatga sazovordir: «Komil inson deganda, – deb yozadi Islom Karimov, – biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz»¹.

Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma’naviy saviya, iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur va boshqalar.

Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarning yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog‘lom va komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a’lo darajada his etadigan shaxs bo‘lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?», deb emas, balki «Men o‘zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?», deb o‘ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

3. Fan – ma’naviyat gultoji

Bugungi kunda dunyoda mingdan ortiq fanlar mavjud bo‘lib, ular tabiiy, texnik va ijtimoiy-gumanitarga ajratilgan. Shuningdek, har bir fan doirasida integratsion va differinsatsion jarayonlar sodir bo‘lishi natijasida yangi kosmobiologiya, bionika, kosmobiofizika, nanotexnologiya kabi fanlar paydo bo‘lyapti. Bu, albatta, tabiiy holdir. Borliqning o‘zgarishi uni tadqiq etuvchi fanlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida ta’kidlaganidek, bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz.

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўнимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б.134.

Biz o‘z taraqqiyotimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda, mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, xalqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yilda erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgani – bunday imkoniyatlarning barchasini aynan mustaqillik bergenini bugun hammamiz chuqur anglaymiz¹.

Uch yarim ming yillik tarixga ega o‘zbek davlatchiligiga nazar tashlasangiz, xalqimiz ilm-fanga har doim asosiy e’tiborini qaratgan. Buni mamlakatimiz hududlarida tug‘ilib yashab, ijod qilgan ajdodlarimiz, buyuk mutafakkirlarimiz, allomalarimizning ibratli hayoti va faoliyati, ilmiy-ijodiy kashfiyotlari tasdiqlaydi.

Xususan, ajdodlarimizning muqaddas kitobi «Avesto»da milliy g‘oya va falsafiy mushohadalar, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, olam va odamning yaralishi, inson va uning kamoloti haqidagi diniy va ilmiy qarashlar o‘z ifodasini topgan. Komil insonga xos fazilatlar – poklik, halollik, mardlik bugungi dunyoqarashning shakllanishiga samarali ta’sir o‘tkazmoqda. Bu borada ulug‘ mutafakkirlarimizning ilmiy g‘oyalari va kashfiyotlari katta ahamiyatga ega. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o‘nlik sanoq tizimini yaratgan, «Al-jabr val-muqobala» asari orqali insoniyatga algebra fanini hadya etgan, algoritmik ketma-ketlik uslubi haqidagi ilk g‘oyani kashf qilgan. Sharq naturfalsafasi² (nemischa «naturphilosophie» – tabiat falsafasi, tabiat hodisalarini, tabiatni insonga va insonni tabiatga bo‘lgan munosabatini anglatish)ning otasi hisoblangan Abu Rayhon Beruniy tabiatshunoslikka oid bir qator fanlarni kashf etdi, shuningdek uning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari ham hozirda jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega. Ahmad Farg‘oniy zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida fan va ma’naviyatning rivojlanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. U Yevropada Al-Fraganus nomi bilan shuhrat qozondi. Abu Nasr Forobiy falsafa tarixi, mantiq, musiqa-shunoslik, axloq singari sohalardan tashqari, sotsiologiyaga oid ilk falsafiy tizimni ishlab chiqib,adolatli jamiyat haqidagi g‘oyalarni rivojlantirdi. Nafaqat tibbiyot fanining asoschilaridan, balki mantiq ilmida ham buyuk mutafakkirlardan biri bo‘lgan Abu Ali ibn Sino butun dunyoda o‘z o‘rniga ega. Uning «Tib qonunlari» asari Yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv

¹ Qarang: *Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч.* – Т., 2008. – Б. 3.

² Qarang: *Абдуллаева М. Н. ва бошқ. Фалсафа: Қисқача изоҳли луғат.* – Т., 2004. – Б. 235. *Фалсафа: Қомусий луғат / Тузувчи ва масъул мухаррир К. Назаров.* – Т., 2004. – Б. 296.

yurtlarida asosiy tibbiyot darsligi sifatida o‘qitib kelingan, shu asar orqali «meditsina», «sog‘lom turmush tarzi» degan tushunchalar fan uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Davlat arbobi, astronom, «benazir alloma Mirzo Ulug‘bekning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi»¹. G‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning komil inson haqidagi fikrlari, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Mirzo Abdulqodir Bedil, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi mutafakkirlarning nazm va nasrdagi ijodiy faoliyatları ham milliy g‘oya va mafkuraning eng asosiy ildizlaridan hisoblanib, ularni ilmiy va badiiy jihatdan boyitishga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Hozirgi kunda maqsadimiz – ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarni uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanligini isbotlab berishdan iboratdir. Bu haqida Prezident Islom Karimov shunday fikr yuritadi: «Bunday noyob va bebahoh boylikni har tomonlama chuqur o‘rganish, uning ma’no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyorilarimiz, butun jamoat-chiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo‘lishi shart, deb hisoblayman»².

Ajdodlarimizning ilm-fanga qo‘shgan hissalari xususida fikr yuritganda, davlat arbobi, sohibqiron bobomiz Amir Temur haqida alohida to‘xtalish zarur. Chunki u nafaqat buyuk sultanat barpo etgan, balki «Temur tuzuklari» asari orqali davlatchilik, ilm-fan, madaniyat, din va ma’naviyat rivojiga ham nazariy, ham amaliy ulkan hissa qo‘shganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

«Temur tuzuklari»ni har gal o‘qir ekanman, – deydi Islom Karimov, – xuddiki o‘zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo‘laman. O‘z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma’naviyati uchun ham oziq bo‘ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko‘p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, «Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirdor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir», degan so‘zlar bugungi kunda ham ma’naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon»³.

Amir Temurning bu hikmatlari xalqimizda qadimdan mavjud bo‘lgan «Bilagi zo‘r birni, bilimi zo‘r mingni yiqrar», degan maqolga g‘oyat

¹ Qarang: *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 45.

² O‘sha manba. – В. 44.

³ Qarang: *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2008. – Б. 45.

hamohang bo‘lib, insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi bilan e’tiborlidir.

Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek ham donishmand hukmdor sifatida xalqning azaliy orzusi – tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatdi. U yulduzlarning harakati to‘g‘risida «Ziji jadidi Ko‘ragoniy» deb nomlangan mukammal astronomik jadval yaratdi. 1996-yil Parijda YUNESKOning Bosh kotibi Federiko Mayor Ulug‘bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari bugungi kunda tekshirilib ko‘rilganda, atigi bir necha daqiqaga farq qilishi haqidagi fikrni alohida uqtirgani diqqatga sazovordir.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda har bir vatanparvar inson ajdodlar tomonidan yaratilgan yuksak ma’naviy boyliklardan faxrlanish tuyg‘usi bilan cheklanib qolmasdan, o‘zi ham shunday darajaga yetishga harakat qilishi kerak.

Hozirgi kunda insoniyat fan rivoji orqali jamiyat taraqqiyoti ta’millanishiga ishonmoqda va harakat qilmoqda. Shunday fan yangiliklaridan biri keyingi o‘n yillikda jahon jamoatchiligi lug‘at boyligiga «nano» so‘zining kirib kelganidir. Xo‘s, «nano» nima? Qisqa qilib aytganda, nano milliarddan bir qismdir.

«Nanotexnologiya» tushunchasi uchun tugal va aniq ifoda yo‘q, ammo mavjud mikrotexnologiya asosida bu o‘lchamlarni nanometrdagi texnologiya deb yuritish mumkin. Shuning uchun mikrodan nanoga o‘tish bu moddani boshqarishdan atomni boshqarishga o‘tish demakdir. Nanotexnologiyaning istiqboli qanday? Bugun nanotexnologiyaning quyidagi ustuvor rivojlanish yo‘nalishlari mavjud:

1. *Tibbiyot*. Odam tanasida paydo bo‘ladigan barcha kasallikkarning oldini oluvchi yoki davolovchi molekular nanorobotlarni yaratish. Amalga oshish muddati – XXI asrning birinchi yarmi.

2. *Gerontologiya*. Insonlarning jismoniy boqiyligiga, oldini oluvchi, odam organizmi to‘qimalarining ishlashini yaxshilash va qayta qurish uchun molekular robotlarni kiritishga erishish. Amalga oshish muddati – XXI asrning to‘rtinchi choragi.

3. *Sanoat*. Iste’mol mollarini ishlab chiqarishda an’anaviy usullardan foydalanishdan bevosita atom va molekulalardan yig‘ishga o‘tish. Amalga oshish muddati – XXI asrning boshi.

4. *Qishloq xo‘jaligi*. Oziq-ovqatni tabiiy ishlab chiqaruvchilarni (masalan, o‘simliklar va hayvonlar) molekular robotlardan tuzilgan funksional o‘xshashlariga almashtirish. Ular tirik organizmda sodir bo‘ladigan

kimyoviy jarayonlarni qisqaroq va samaraliroq yo‘l bilan amalga oshiradi. Massalan, «tuproq – is gazi – fotosintez – o‘t – sigir suti» zanjiridan barcha ortiqcha bo‘limlar olib tashlanadi. Faqat «tuproq – is gazi – sut (qatiq, yog‘, go‘sht)» qoladi. Bunday qishloq xo‘jaligi samaradorligi ob-havo va og‘ir mehnat sharoitiga bog‘liq bo‘lmaydi. Uning ishlab chiqarish hajmi oziq-ovqat muammosini birato‘la hal qiladi. Amalga oshish muddati – XXI asrning ikkinchi-to‘rtinchi choraklari.

5. *Biologiya*. Tirik organizmga atomlar darajasidagi nanoelementlari turlicha bo‘lib, yo‘qolib ketgan turlarni tiklashdan tortib, yangi turdagи jonzodlar biorobotlarini yaratishga olib kelishi mumkin. Amalga oshish muddati – XXI asr.

6. *Ekologiya*. Inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini to‘liq bartaraf qilish. Bunga, birinchidan, ekosferani inson faoliyati chiqindilarini boshlang‘ich xomashyoga aylantiruvchi molekular robotsanitarlari bilan to‘ldirish, ikkinchidan esa sanoat va qishloq xo‘jaligini chiqindisiz nanotexnologik usulga o‘tkazish bilan amalga oshirish mumkin. Amalga oshish muddati – XXI asr.

7. *Koinotni o‘zlashtirish*. Koinot «odatiy» yo‘l bilan emas, balki nanorobotlar orqali o‘zlashtiriladi. Robotmolekulalarning ulkan armiyasi Yer atrofidagi fazoga chiqariladi va uni inson yashashi uchun yaroqli holatga keltiradi. Oy, asteroidlar va yaqin planetalarda inson yashashi uchun kosmik stansiyalar qurish. Bu hozirda mavjud bo‘lgan usullardan arzon va xavfsiz bo‘ladi.

8. *Kibernetika*. Hozirda mavjud bo‘lgan planar strukturalardan o‘l-chamlari molekular o‘lchamiga teng bo‘lgan hajmiy mikrosxemalariga o‘tish sodir bo‘ladi. Kompyuterlarning ishchi chastotasi teragers qiymatga yetadi. Neyronlarga (yunoncha «neuron» – asab to‘qimalari¹) o‘xshash elementlardan tuzilgan sxemalar paydo bo‘ladi. Oqsil molekulalaridan tuzilgan xotira hajmi terabaytlarda o‘lchanadigan, saqlash davri uzoq bo‘lgan xotira elementlari paydo bo‘ladi. Inson aqlini kompyuterga «ko‘chirish» mumkin bo‘lib qoladi. Amalga oshish muddati – XXI asrning ikkinchi choragi.

Yuqorida keltirgan misollarimiz butun jahon olimlari tomonidan amalga oshirilishi mo‘ljallanmoqda. Bularning amalga oshirilishi ilm-fanning yutug‘i sifatida insoniyatga kata foyda keltiradi. Davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlab beradi.

1 Qarang: Словарь иностранных слов. – М., 1990. – С. 339.

Demak, mamlakat taraqqiyoti ilm-fan rivojiga bog‘liq ekan, bu jarayonga mamlakatimizda ham kata e’tibor qaratilmoqda. Chunonchi, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi fikrimizning isbotidir. Respublikamizda yangi milliy ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, yangi darsliklar va maxsus o‘quv qo‘llanmalarini yaratish orqali ta’lim jarayoni tubdan takomillashtirilmoqda. Hozirda fanni rivojlantirish maqsadida ixtisoslashgan oliy o‘quv yurtlarida akademik litsey va kollejlar uchun zamon talablariga javob beradigan yangi toifadagi o‘qituvchilarini tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Bugun mamlakatimizdagi 65 ta oliy o‘quv yurtida 850 ming yo‘nalish va mutaxassislik bo‘yicha 300 mingga yaqin talaba bilim olmoqda. Respublikamizda ta’lim sohasiga yo‘naltirilgan xarajatlar hajmi yalpi ichki mahsulotning 12 foizini tashkil etadi. Respublikamizda Fanlar akademiyasi ham faoliyat yurityapti. Uning tarkibida ilmiy-texnik salohiyatga ega bo‘lgan 43 ta akademik institut ishlab turibdi. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, issiqlik fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo‘nalishlarida istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda.

Umuman olganda, bugun mamlakatimizda fan, texnika taraqqiyotiga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa respublikada intellektual salohiyatning rivojiga, mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shu sababli ham fanni ma’naviyat gultoji deb ta’riflasak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Jahonda insonshunoslik (antropologiya) fani rivojiga hissa qo‘shgan qaysi olimlarni bilasiz?
2. Mamlakatimizda fanlarning rivojiga hissa qo‘shgan qaysi olim va davlat arboblarini bilasiz?
3. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda fuqarolar komilligini ta’minalash maqsadida qanday ishlar amalga oshirildi?
4. Insonshunoslik fanining asosiy maqsadi nimalardan iboratligini tushuntiring.
5. Inson ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida xalqimizning ilg‘or vakillari tomonidan qanday g‘oyalar ilgari surilgan?
6. Inson komilligining mezonlarini sanab bering.
7. Hozirda jahonda qaysi fanlarning rivojiga alohida e’tibor qaratilmoqda?

6-mavzu.

VATANPARVARLIK, ADOLATLILIK, IYMON VA G'URUR – YUKSAK MA'NAVIYAT POYDEVORI

1. «Vatan» va «vatanparvarlik» tushunchalarining mazmun-mohiyati

Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir. Vatanparvarlik haqida so‘z yuritishdan avval, «Vatan» tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Vatan aslida arabcha so‘z bo‘lib, ona yurt ma’nosini anglatadi, shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston – o‘zbek xalqining vatani, muqaddas sajdaghohidir:

Dunyo bo‘ldi chamanim manim,
O‘zbekiston vatanim manim. (*Erkin Vohidov*)

Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatлari chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zamindir.

Vatan deganda, hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha avlodu ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Abdulla Avloniy aytganidek: «Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar... Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimuslar shimol taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab, hijrat qilurlar edi».

Vatan – bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma’naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir.

Inson uchun vatani yagonadir. Vatanning katta-kichigi ham, boy-kambag‘ali ham bo‘lmaydi. Vatan tanlanmaydi. Vatan bizning molimiz emas. Shuning uchun ham u pulga sotilmaydi va sotib olinmaydi. Vatan in’om etilmaydi, qarzga berilmaydi. Vatan har bir fuqaro uchun muqaddas va betakrordir. Prezident Islom Karimov iborasida ta’kidlanganidek, «Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir». Vatan tuprog‘ini ko‘zlarga surtib, unga ta’zim bajo aylashimiz farzandlik burchimizdir. Muqaddas hadisi shariflarda «Vatanni sevmoq iymondandir», deyilgan. Ya’ni iymoni but, vijdoni pok har bir inson vatanini sevadi, uni g‘animlardan asraydi, uning yashnashi va hurligi uchun kurashadi.

Vatan mehrini, sehrini, uning ulug‘vorligini so‘zlar bilan ifodalash qiyin.

Har bir barkamol inson vatan istiqboli, el-yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun hamma narsasini, hatto shirin jonini ham ayamaydi. Bu haqda ozarbayjon shoiri Fuzuliyning, mening bitta hayotim bor, bordiyu mingta hayotga ega bo‘lgan taqdirimda ham, hammasini vatan uchun sarflagan bo‘lur edim, degan fikrlari har birimiz uchun bebaho o‘gitdir.

Sho‘rolar davrida milliy manfaat, Vatanga, ona zaminga mehr-muhabbat his-tuyg‘ulari asta-sekin so‘na boshladi. «Vatan» tushunchasi mavhum, umumiy bir so‘zga aylanib qolgan edi. Hamma narsa «umumsoviet» manfaatiga qaratilgandi. Har bir millat, xalq ming yillardan beri yashab kelayotgan o‘z vatani uchun qayg‘urishga haqli emasdi.

Oxir-oqibat shunga yetdiki, sobiq Sovet davrida bu mamlakatda yashayotgan xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar ham o‘z vatanida qisinib yashashga majbur bo‘ldilar. Bunday holatni O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov «Vatan umidi» she’rida shunday ifodalagan edi:

Agarchi ismim Erkin,

Erki yo‘q, bandi kishan bo‘ldim.

Ko‘zim bog‘liq, dilim bog‘liq,

Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim...

Muazzam Sayxunu Jayxun –

Labida tashnalab qoldim,

Kiyintirdim jahonni,

Jismim uryon, bekafan bo‘ldim.

Chekubdur Boburu Furqat,

Vatan hajrida afg‘onlar,

Men ersam, ne g‘urbatkim,

Vatanda bevatan bo‘ldim.

Olisda, oh diyorim deb,

Sog‘ingan, ey vatandoshim,
Dema sen, o‘zni bebaxt,
Baxti yo‘q aslida men bo‘ldim...

Inson uchun na davlat va sultanat, na toju taxt, hech bir narsa Vatanga, el-yurt mehriga teng kelolmaydi. Vatandan judolik inson uchun katta baxtsizlikdir.

Inson istagan joyida bir parcha nonga qornini to‘yg‘azishi mumkin. Lekin Vatanning o‘rnini hech narsa bosolmaydi. Vatanda yashash haqiqiy baxtdir.

Mustaqillik tufayli biz o‘zimizning haqiqiy vatanimizni topdik. Bu mustaqillikning bizga bergen eng oliv ne’matidir. Vatani mustaqil xalqning o‘zi ham mustaqil bo‘ladi. Yurti ozod va erkin odamning erki o‘z qo‘lida bo‘ladi.

Tarix o‘zbek xalqining hozirgi avlodni zimmasiga g‘oyat buyuk vazifani yukladi. Bu Vatanimiz kuch-qudratini mustahkamlash, uning dovrug‘ini olam uzra yoyish, shuhratiga shuhrat qo‘shishdir. Bunda esa Vatan, Prezidentimiz aytganidek, fidoyi vatanparvarlarga tayanadi. Har birimiz yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatimiz, halol mehnatimiz bilan o‘zimizdan ozod va obod Vatanni qoldirishimiz kelgusi avlodlar oldidagi burchimizdir.

Milliy mustaqillik – xalqimizda, ayniqsa, o‘sib kelayotgan yosh, barkamol avlodimizda vatanparvarlik tuyg‘usining tiklanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirda vatanparvarlik qanday qirralari bilan namoyon bo‘layotir? Vatanparvarlikning mohiyati nimalarda, qanday amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi? Umuman vatanparvarlikni qanday tushunmoq kerak, u haqida donishmandlar nima deganlar? Quyida ana shular haqida bahs yuritmoqchimiz. Avvalo, hozirgi o‘zbek vatanparvarligi ota-bobolarimiz yaratuvchanlik ishining bevosita davomidir. Saodatli, baxtli, kelajagi buyuk O‘zbekistonga hozir har daqiqada ulush qo‘shmoq, Vatanga muhabbat vatanparvarlikning asl ko‘rinishidir. Vatanga munosib farzand bo‘lish, uning yeri, suvi, eli bilan chambarchas bog‘liq ekanligimizni teran anglash, uni ardoqlash ham vatanparvarlikning bir ko‘rinishi, qirrasi.

Vatanparvarlikni eng oliv tuyg‘u sifatida o‘tmish mutafakkirlari alohida qayd etganlar va o‘zлari ham unga sodiq qolganlar. Endi ana shu qaydlardan ba’zilarini eslab o‘tamiz.

«Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan so‘zda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkudek bo‘lsa, qaysi vijdonli odam u

uchun jonini berishga ikkilalar ekan!». *Sitseron (rumo notig'i va faylasufi)*.

«Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi». *Gegel (nemis faylasufi)*.

«Kimki o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi». *Bayron (ingliz shoiri)*.

«Kimki o'z Vataniga daxldor bo'lmasa, u insoniyatga ham daxldor emas». *Belinskiy (rus tanqidchisi)*.

«O'z vataniga dog' tushirish – uni sotish degan so'z». *Gyugo (fransuz adibi)*.

Vatan tuyg'usi bo'lgan kishida vatanparvarlik jo'sh uradi. Vatanparvarlik deganda esa, yana quyidagilarni anglash joiz:

– o'z xalqini, tarixini yaxshi bilish va u bilan faxrlanish;

– qadimiy obidalar, mislsiz imoratlar, ajdodlar yaratgan moddiy va ma'naviy meroslarni ko'z qorachig'iday asrash va avlodlarga taqdim etish;

– xalqimizning, ajdodlarimizning go'zal va ma'noli urf-odatlari, rasm-rusum va udumlarini qadrlay bilish, ularni davom ettirish;

– ajoyib vatandoshlar – ajdodlar nomi, ularning ulug' ishlari, ijodlari bilan faxrlanish, ularning ishlarini davom ettirish, ularga munosib voris bo'lish;

– shunday ajoyib xalqqa, yurtga, uning boy tili va madaniyatiga mansubligi bilan faxrlanish;

– Turonzaminni himoya qilib, tomirida oxirgi qoni qolguncha dushmanqa qarshi kurashgan bahodirlarni, ayovsiz janglarda halok bo'lган qahramonlar nomini yod etish;

– o'tgan asrning yigirmanchi, o'ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va niyat saksoninchi yillarida xalqimiz, millatimizga qarshi uyushtirilgan qatalog'onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo'lган minglab millatimiz gullarini unutmaslik;

– bu aziz va go'zal Vatanimizda yuksak e'tiqod bilan yashash, unga hamisha sadoqatli bo'lishdir.

Vatanparvarlik hammamizning o'z ishimizga mas'uliyat bilan qarash, uning boyliklarini ko'z qorachig'iday asrash, boyliklariga o'z ulushimizni qo'shish, ilm-fan cho'qqilarini sari intilish kabi harakatlardir.

Vatanparvarlik bir so'z bilan aytganda, o'z ijobiy ishlarimiz, bunyodkorlik harakatlarimiz bilan uning kuch-qudratiga, gullab-yashnashiga imkon darajasida hissa qo'shish. Ona yurtimizda tinchlik, barqarorlik va osoyishtalikni saqlashga intilish vatanparvarlikning belgisidir.

Vatanparvarlik – xalqaro munosabatlarda Vatan, millat manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishdir.

Vatanparvarlik haqida gap ketganda, mustaqillik bizga in’om etgan vatanparvarlikning oliy ramzlari haqida so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Vatanparvarlikning oliy ramzlari xalqimiz, yoshlarimiz qalblaridan mustahkam o‘rin olayotganligi nihoyatda quvonchlidir. O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘ining Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nyu-Yorkdagi qarorgohi oldida 180 tadan ortiq mustaqil davlatlar bayroqlari qatorida mag‘rur hilpirab turishini ko‘rish va his etish naqadar katta baxt. Prezident Islom Karimov juda to‘g‘ri ta’kidlab o‘tganidek: «O‘zbekiston fuqarolari uchun mustaqillikning muqaddas ramzlari – Davlat Gerbi, Davlat Bayrog‘i, Davlat Madhiyasi azizdir. Ular ona vatan – O‘zbekiston Respublikasiga iftixor va cheksiz hurmat tuyg‘usini tarbiyalaydi».

Davlatimiz mukofotlari – «O‘zbekiston Qahramoni» oliy unvoni, orden va medallar, faxriy unvonlar ham mamlakatimiz fuqarolarida o‘z Vatanidan g‘ururlanish tuyg‘ularini oshirishga xizmat qiladi.

O‘z milliy valutamiz – so‘mimiz ham vatanparvarlik ramzidir.

Xullas, Prezidentimiz Islom Karimov aytganidek: «O‘zbekiston – muqaddas Vatan, ota-bobolarimiz yotgan yer, o‘zimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalblarida shu muborak zaminning har qarichiga mehru muhabbat uyg‘otish bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi».

Adolat (arabcha «adolat» – odillik, to‘g‘rilik) – axloq va huquqning me’yoriy kategoriylaridan biri bo‘lib, mavjud ijtimoiy voqelik inson mohiyatiga va huquqlariga mos yoki mos emasligini ajratishda mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning ikkinchi shaxsga munosabatida namoyon bo‘lgan adolat ana shu munosabatlarning baholash mezonidir. Adolat inson ma’naviy qadriyatlarining oliy ko‘rinishi bo‘lib, «baxt», «ozodlik», «tenglik», «tinchlik» tushunchalari kabi inson erki va irodasini o‘zida ifoda etadi. «Adolat» – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha. Adolatning axloqiy jihatni insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsigiga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga rioya qilishni bildiradi.

Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘zligini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiborini, faxrlanish hissini ifodalovchi

tushuncha. Bu tuyg‘u quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Mustaqillik kishilar milliy g‘ururini oshirish, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi mas’uliyatini his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda.

Milliy g‘urur – har qanday odamda insoniy g‘ururdan boshlanadi. Bu kishi o‘zini ongli mavjudot sifatida his qilishidan kelib chiqib, har bir mustaqil bajargan harakatidan, ishidan, faoliyatidan mammun bo‘lishi orqali namoyon bo‘ladi. Buni insoniy g‘urur deyilsa, o‘zining ma’lum bir xalqqa, millatga taalluqli ekanligidan qoniqishi, mammun bo‘lishi milliy g‘urur deyiladi. Bu ijtimoiy sifat kishi faolligini oshiruvchi asosiy omil bo‘lib, insonni ezgulikka, yaxshiliklar qilishga undaydi. Shuning uchun ham har bir kishida uning insoniy g‘ururi asosida milliy g‘ururni shakllantirish buyuk kelajak sari intiltiruvchi asosiy kuchlardan to‘g‘ri foydalanish hisoblanadi.

Milliy o‘zlikni anglash, uning mohiyati. O‘zini o‘zi chuqur anglab yetgan, ko‘zi ochilgan, aqli raso, g‘oyaviy-siyosiy jihatdan uyg‘ongan va jipslashgan xalq va millatni o‘tmishda bo‘lganidek, mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, tili, madaniyati, qadriyatlarini oyoq osti qilish, boyliklarini talab ketish, huquqlarini poymol etish, davlat mustaqilligidan judo qilish aslo mumkin emas.

O‘zini o‘zi anglash bu xalqning, millatning o‘tmish tarixiy taraqqiyot yo‘lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu ajdodlarining kim bo‘lganligi va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘sghan buyuk hissalarini bilib olishdir.

Milliy o‘zlikni anglash – millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta’minalash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o‘zini safarbar etish, barcha imkoniyatlari, kuch-g‘ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo‘lishi uchun til, hudud va ma’naviyat asosiy shart bo‘lgani kabi milliy o‘zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi. O‘zlikni anglash o‘z mohiyatiga ko‘ra millat va elatlar uchun xos bo‘lgan ma’naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o‘z funksiyasiga ko‘ra milliy manfaatlarni himoya qiladi.

Shunday qilib, har bir millat va elatning o‘zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, davlat, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o‘zlikni anglash, deb ataladi. Milliy o‘zlikni anglash millat birligining mustahkamligini, millat manfaatlarining, shaxs, mahalliychilik manfaatlaridan ustun turishini anglash darajasi bilan bog‘liqdir.

Milliy o‘zlikni anglash millatning til, hudud, davlat yagonaligi, madaniyatdagi o‘ziga xosligidan iborat belgilari kabi millatning mustaqil belgisi hisoblanadi. Milliy o‘zlikni anglash millatning mustaqil belgisi ekanligi – milliy manfaatlar, ehtiyojlar umumiyligini himoya qilish va millatning jahon taraqqiyotidagi o‘rnini mustahkamlash zaruriyatini anglash bilan belgilanadi.

Milliy o‘zlikni anglash omilining qudrati quyidagi sharoitlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi:

birinchidan, agar milliy o‘zlikni anglash rivojlangan bo‘lsa, yuqorida qayd etganimizdek, millatning manfaatlariga, ayniqsa sha’ni, qadr-qimmati, obro‘-e’tibori, g‘ururi poymol etilishiga qaratilgan harakatlar yuzaga kelgan sharoitlarda millatning barcha vakillari birlashib ketadilar, hatto millatning ichida o‘zaro muxolafatda bo‘lgan tomonlar ham millatning sha’ni, g‘ururi, obro‘-e’tiborini himoya qilish manfaati yo‘lida birlashadilar.

Ikkinchidan, milliy o‘zlikni anglash ruhiy, his-hayajon, ehtiros omilidir. Mazkur holat tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Uni millatning xatti-harakatlarida, intilishlarida va maqsadlarini amalga oshirishdagi salohiyati orqali bilib olish mumkin bo‘ladi.

Ruhiy his-hayajon va ehtiroslarning «portlashi» millatning xarakteri, xususiyatlari, milliy g‘oyalarni yaratuvchi, uning taraqqiyotida oldingi safda turuvchi ziylolarning salohiyatiga bog‘liq.

Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash omili faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki milliy taraqqiyot jarayonida, uning oldida yuzaga keladigan ichki muammolarni hal qilish hamda millatni birlashtiruvchi va harakatga keltiruvchi vazifani ham bajaradi. Bu muammolar mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda sodir bo‘lishi mumkin.

To‘rtinchidan, milliy o‘zlikni anglash millatning muhim belgisi sifatida, faqat uning manfaatlarini ifodalab yoki himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki shular bilan birga uning abadiyligini ta’minlab turuvchi mustahkam qo‘rg‘on hamdir.

Xususan, mustaqillik yillari bosib o‘tilgan tarixan qisqa davr mobaynida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda katta ishlar amalga oshirildi. Bu yillarda millatimizning o‘zligini anglashi jadal rivojlanib bordi. Bu milliy o‘zlikni anglash jarayonining yuksalib borish xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ldi:

birinchidan, sobiq tuzum sharoitida ma’naviy-ma’rifiy sohalarda bu tuzumni madh etuvchi ishlar zo‘ravonlik va makkorlik bilan qaysi shaklda va usulda amalga oshirilmasin, millatimizning dunyoqarashini butunlay o‘zgartira olmadi. Xalqimiz har qanday sharoitda ham o‘zligiga qaytish kayfiyati va ruhiyati bilan yashab keldi. Chunki sho‘rolar tuzumi bermoqchi bo‘lgan ma’naviyat va ma’rifat, uni shakllantirish milliy madaniyatlar rivojlanishining obyektiv qonunlariga asoslanmay, balki subyektiv kuchning, ya’ni kommunistik mafkuraning zo‘ravonligiga tayangan edi. Bundan tashqari, sobiq tuzum bermoqchi bo‘lgan ma’naviyat va ma’rifat milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va shu asosda boyishiga emas, balki rus millati madaniyati va ma’rifatini boshqa millatlarga singdirishga qaratilgan edi. Mustaqillikka erishishimiz bilan bunday holatlarga Prezident Islom Karimov rahnamoligida barham berildi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki bosqichlarida milliy o‘zlikni anglashning xarakterli xususiyati shu bo‘ldiki, milliy qadriyatlardan ko‘ra diniy qadriyatlarni ko‘tarish ustuvorlikni tashkil qildi. Buning obyektiv sababi bor edi. Xususan, o‘zbek xalqi ma’naviyati va ma’rifati rivojlanishining sho‘rolar tuzumi o‘rnatilguncha bo‘lgan davri islom ma’naviyat va ma’rifati bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, u millatimiz ongi va ruhiyatining muhim qismini tashkil qilib kelgan. Xuddi shuning uchun ham bolsheviklar islomga qarshi kurash yo‘li bilan millatni ham yo‘q qilish mumkin, deb hisoblaganlar va shu siyosatni izchillik bilan amalga oshirishga intilganlar. Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin diniy qadriyatlarni tiklash milliy tiklanishning, o‘zlikni anglashning muhim omili sifatida ustuvor bo‘lib keldi. U milliy birlikni mustahkamlashda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Uchinchidan, milliy o‘zlikni anglash jadal suratlar bilan o‘sib ketishiga qaramasdan, O‘zbekistonda millatlararo va fuqarolararo nizolarning bo‘limganligi, ularning oldi olinganligi o‘zbek millati uchun xos bo‘lgan xususiyatlardan biri sanaladi. Ammo o‘zbek xalqining o‘ziga xos teran aql-zakovati, bosiqlik, vazminlik xususiyatlari, uning rahbari Islom Karimovning vaziyatni to‘g‘ri anglab, shunga mos ravishda siyosat olib borishi parokandalik yo‘liga to‘siq qo‘ydi.

To ‘rtinchidan, o‘zbeklar o‘z atrofida yashayotgan boshqa millat va elat vakillariga nisbatan do‘slik, birodarlik, hamkorlik, o‘zbek xalqiga xos mehr-oqibat tuyg‘ularini saqlab qola olganligi milliy o‘zlikni anglashda yana bir xususiyat sanaladi. Vaholanki, mustaqillikka erishgan ayrim respublikalarda mustaqillik sharofati oldida dovdirab, o‘z atroflarida yashayotgan, yaqindagina qardoshmiz deb yurgan millat vakillariga hurmatsizlik bilan qarash yuz bergenligi sir emas.

Yurtboshimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: «Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug‘imiz – bu umumiylar xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir»¹.

Mustaqil O‘zbekistonning yuksalishi, o‘zbek millati gullab-yash-nashining tarafdoi bo‘lgan har bir o‘zbekistonlik fuqaro millatlararo totuvlik, do‘slik qoidalariiga sodiq bo‘lishi kerak. Chunki, mustaqil davlatimizning kelajagi birinchi navbatda, o‘zbek xalqining milliy o‘zligini qanchalik anglab yetganligiga hamda mamlakatimiz hududida o‘zbeklar va boshqa millat, xalq vakillari bilan yonma-yon istiqomat qilib turgan har bir kishining millati, dini, tili va e’tiqodlaridan qat’i nazar, bir-birining ko‘nglini ola bilishiga, ular o‘rtasida do‘stona munosabatlarning o‘rnatalishiga bog‘liq. Hozir O‘zbekistonda 136 millat va elat vakillari tinch, farovon hayot kechirmoqda. Ular o‘zbeklar bilan bir qatorda bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullanmoqdalar. Mamlakatimizda har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy vatan bilan aloqa va munosabatlarni bog‘lashga, milliy his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lishiga keng yo‘l ochib berilgan. Bu esa mamlakatimiz barqaror rivojlanishining kafolatidir.

O‘z millatiga sadoqatli bo‘lish – yuksak burch. O‘z millatiga sadoqatli bo‘lish millatparvarlik bilan hamohang tushunchadir. Millatparvarlik bu har bir inson uchun yuksak burch sanaladi. O‘z millatini sevmagan inson o‘zini ham, Vatanini ham seva olmaydi. Millatparvarlik o‘z millatini boshqa millatlardan ustun qo‘yish yoki kamsitish (millatchilik va shovinizm) kabi harakatlardan tubdan farq qiluvchi tuyg‘udir. Millatparvarlik o‘z millatining birligini mustahkamlash, o‘z tili, urf-odatlari, an’analarini rivojlantirish, qadriyatlar va meroslarni ko‘z qorachig‘iday asrash, o‘z millatining kelajagi uchun xizmat qiluvchi aql-zakovat, salohiyatni rivojlantirish va milliy tarbiyani amalga oshirish yo‘lida fidoyi bo‘lishdir.

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 374–375.

Milliy o‘zlikni anglashning muhim omili bo‘lgan millatparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda yaqin o‘tmishda millatimiz manfaatlarini ko‘zlab millatparvarlikning yorqin namunasini ko‘rsatgan millatimizning sodiq farzandlari amalga oshirgan ishlarni tashviqot qilish katta ahamiyatga ega. Bugun F. Xo‘jayev, A. Ikromov, A. Qodiriy, U. Nosir, A. Fitrat, I. Mo‘minov, H. Abdullayev, Sh. Rashidov kabi millatparvar vatandoshlarimiz ekanligini yoshlarga tushuntirishimiz lozim. Ularning har biri sho‘rolar tuzumining eng murakkab, eng qiyin sharoitida millatimizning manfaatini, qadr-qimmatini, or-nomusini, tarixini, madaniyatini va ma’rifatini himoya qildilar. Millatimizning mustaqilligi uchun jon fido etdilar. Ular millatimiz sharafini himoya qilibgina qolmay, uni jahon uzra ko‘z-ko‘z qilishda o‘zlarini ayamadilar.

Bugun mustaqil O‘zbekistonning jahonda o‘z munosib o‘rnini topishi, millatimizning qadr-qimmatini joyiga qo‘yish, ona zaminda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari bilan barqaror rivojlanish yo‘lida faoliyat ko‘rsatayotgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nomi millatparvarlikning yorqin ifodasi sifatida xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin olgan.

2. Iymon va e’tiqod – inson ruhiyatining qudrati. «Iymon» tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymon, ularning mohiyati

Mazkur masala tasnifi va ta’rifi insonning chin ma’nodagi insonligi – uning iymoni, diyonati, mehr-oqibati, pokligi, halolligi, kamtarligi va boshqalar bilan o‘lchanadi. Buni biz umumiylar tarzda «insoniylik» deya ifodalashimiz mumkin. Insoniylik esa faqat iymonli insonlarda bo‘ladi. Biz bu o‘rinda hamma kishilar uchun umumiylar tegishli bo‘lgan masalalar ustida fikr yuritamiz. Agar biz «iymon» tushunchasining mohiyatini to‘g‘ri anglab, tushunib olsak, iymonni izohlovchisi bo‘lgan diyonat, mehr-oqibat, poklik, halollik va kamtarlikning ham mohiyatini bilib olamiz. Faqat iymonli kishilargina poklik va halollik, diyonat, ezgulik, mehr-oqibat yo‘lida bo‘ladilar. Shuning uchun ham mazkur masalada «iymon» tushunchasini, uning mohiyatini keng qamrovli bayon qilishni maqsadga muvofiq deb bildik.

«Iymon» arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosini ishonch demakdir. Shariatda esa payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning Alloh tarafidan keltirgan barcha xabarlariga til bilan iqror bo‘lib, dil bilan tasdiqlashga iymon deyiladi. Ya’ni Qur’oni karim va hadisi shariflar orqali Alloh to‘g‘risida, jannat, do‘zax, qiyomat haqida berilgan xabarlarga ishonch – iymondir.

Ma’naviy-axloqiy fazilat sifatida esa iymon faqat odamzodga xos ruhiy holatdir. Odamzod jamiki boshqa jonzodlardan biron-bir narsaga ishonib, uni muqaddas deb bilishi, ya’ni iymon keltirishi bilan ajralib turadi. Iymon kishi ma’naviyatining, axloqining o‘q ildizi, poydevori, negizidir. Iymondan mahrum kimsaning aqli nechog‘li o‘tkir, irodasi naqadar mustahkam bo‘lmasin va shular tufayli o‘zligidan qanchalik mag‘rurlanmasin, u chinakam insonlar qatoriga hech qachon kiritilmagan, kiritilmaydi ham. Zero, iymonsiz odam na Allohdan qo‘rqadi va na bandalardan uyaladi. U o‘z nafsining itoatkor quli bo‘lib, har qanday razolat va pastkashliklardan qaytmaydi. Alloh hammamizni shundan asrasin. Buning uchun iymon yo‘lini tutishimiz lozim.

Iymonning mohiyati azaldan olam va odamzodning kelib chiqishi, odamning olamdagи o‘rni qanday, inson umrining ma’nosi nimada, zoti bashar nimaga da’vat etilgan, u nimalarga qodiru, nimalarga noqodir singari muammolar bilan bog‘lab talqin etib kelingan.

Hamma dinlarda iymonga alohida e’tibor beriladi. Iymon barcha dinlarning ustuni sanaladi. Chunonchi, zardushtiylik iymoni uch tayanchga: niyat – fikrning sofligiga, so‘zning sobitligiga, amallarning insoniyligiga suyanadi. Iymonli kishi o‘g‘rilik va talonchilikdan, o‘zgalarning mol-mulkiga ko‘z olaytirishdan, birovning haqiga xiyonat qilishdan, boshqacha aytganda, o‘zligiga, ya’ni o‘z iymoniga xilof, zid ish qilishdan o‘zini tiya biladigan komil insondir. Iymonli odamga yuqorida qayd etilgan harakatlarni qilma, gunoh bo‘ladi, deb targ‘ib qilishning hojati yo‘q.

Hozirgi kunda Yer yuzida diniy iymonning bir talay turlari bo‘lib, jahonda keng taralgani to‘rtadir: buddaviy iymon, iudaviy iymon, isoviy iymon, islomiy iymon. Bu iymon turlari mazmuni jihatidan farqlansa-da, ammo mohiyatan birdir. U ham bo‘lsa, biron-bir narsa va g‘oyani benihoya sharifu muqaddas, azizu mukarram bilib, kundalik faoliyat va xulq-atvorda ana shu e’tiqoddan kelib chiqib, xatti-harakat qilishdan iboratdir. Binobarin, jamiki iymon turi kishi amaliy faoliyat va xulq-atvori dasturi sifatida namoyon bo‘ladi.

Diniy iymon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy iymon ham bor. Dunyoviy iymon mazmunini olam va odam haqida so‘nggi ikki yarim ming yil mobaynida kashf etilgan ilmiy-falsafiy bilimlar, mehnat ahlining to‘plagan hayot tajribasi, ijtimoiy xotirasi, turlituman udumlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analar va ular zamiridagi bilimlar tashkil etadi. Dunyoviy iymonning o‘zagi odamiylikdan iborat bo‘lib, uning tarkibiga kiradigan unsurlar, qirralar, jihatlar g‘oyat turli-

tumandir. Odamiylik deganda, xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o'tib sayqal topib kelayotgan va faqatgina ijobiy fazilatlar tarzida e'zozlanadigan axloqiy qadriyatlarni tushunsak bo'ladi. Odamiylik g'oyasi xalqimizning butun turmush tarziga, urf-odatlari hamda an'analariga, uning mislsiz boy og'zaki va yozma ijodiga, mumtoz adabiyotimiz va san'atimizga singib ketgan bo'lib, hozircha chuqur o'rganilib umumlashtirilgani yo'q. «Odam bo'lish oson, odamiy bo'lish qiyin», «Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l», «O'zingga ravo ko'rmaganni boshqaga ravo ko'rma», «Yomon o'z g'amida, yaxshi – el g'amida» singari hikmatlarda ajdodlarimiz ardoqlagan insoniylik qadriyatlarining zarralari aks etgan.

Diniy va dunyoviy iymonning mohiyatida andak tafovut bo'lsa ham, ularning mazmuni va tuzilishi bir xil. Chunonchi, diniy iymonda ko'proq Ollohga, dunyoviy iymonda esa odamiylikka, chin insoniylikka urg'u beriladi. Ularning har ikkovi ham aslida kishini chinakam, bosh harflar bilan yoziluvchi INSON bo'lib tarbiya topishiga qaratilgan.

Dunyoviy iymon esa mash'um sinfiylik mezoniga solinib soxtalashtirildi, buzib talqin etildi. Oqibat shunga olib keldiki, hatto eng yaqin tug'ishganlar, ya'ni ota-onalari, farzandlar, aka-uka, opa-singillar – hamma-hammasi bir-biriga ashaddiy dushman qilib qo'yildi. 70 yil mobaynida kishilarimiz ham diniy, ham dunyoviy iymoniga zid g'ayriinsoniy ruhda tarbiyalanib keldi. Millatimiz kishilari orasida o'z iymoniga qarshi zamona zo'ravonlariga yaldoqilik, xushomadgo'ylik, chaqimchilik, tamagirlilik, poraxo'rlik, g'irromlik, xiyonatkorlik, riyokorlik, xullas til bilan dilning, dil bilan amalning boshqa-boshqaligi, iymoniga zid axloqiy illatlar bolalab ketdi. Diniy va dunyoviy iymon mayib-majruh holatga keltirildi.

Iymon kishilik hayotida shu qadar hal etuvchi mavqega egaki, usiz chin ma'nodagi din ham, axloq ham, inson ham, demakki, jamiyat ham bo'lmaydi.

Yuqorida aytganimizdek, dunyoviy iymonda ko'proq inson axloqidagi odamiylikka urg'u beriladi. Kundalik hayotda iymon so'zi keng qo'llaniladi. Bunda ko'proq dunyoviy iymon ma'nosi ko'zda tutiladi. Chunonchi xalqimizda ayrim kishilarning o'ta axloqsizlik xatti-harakatiga nisbatan «xiymonsiz» degan haqoratomuz ibora ishlatiladi. Bu haqorat mohiyatida Allohga ishonch-e'tiqodi yo'q, dindan qaytgan, xudosiz ma'nolaridan tashqari, vijdonsiz, yaramas, razil, diyonatsiz kabi dunyoviy iymon ham aks etgan. Bu shunday diniy va dunyoviy haqoratki, o'tmishda shu haqoratga asossiz duchor bo'lgan oriyatli kishilar haqorat etuvchi

kimsa ustidan qoziga shikoyat qilishgacha borganlar. Iymoni yo‘q kishilar esa mahalla-ko‘yda, yaqin kishilari orasida la’natlangan, undaylar bilan muomala qilinmagan, oxir-oqibatda oriyati dosh berolmasa, boshqa manzilga ko‘chib ketishgacha borilgan.

Demak, insoniylikning muhim shartlari – diyonatlilik, mehr-shafqatlilik, poklik va halollikni iymon tushunchasi o‘z ichiga oladi. Chunki, faqat iymon sohibi bo‘lgan insondagina diyonat, mehr-shafqat, poklik va halollik bo‘ladi. Iymonsiz kishilardan uni kutib bo‘lmaydi. Ana shu va boshqa fazilatlar bo‘limgani uchun ham ba’zi odamlarga nisbatan «iymonsiz» so‘zi qo‘llaniladi.

E’tiqod (ishonch) bu – o‘z fikr va qarashlariga mahkum, sobitqadamlik bilan ishonish va o‘zgalarni ham o‘zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir. E’tiqodli odam eng avvalo yolg‘on gapirmaydi. Yolg‘on so‘zlamagan odam o‘zgalarni ham rostgo‘y deb biladi. Lafzida turmaydigan kimsani beburd deb hisoblab, undaylardan hazar qiladi. «E’tiqod» tushunchasi inson hayotining ma’nosini, uning o‘ziga xosligini va mohiyatini anglash bilan bog‘liqdir. Inson boshqa mahluqotdan farq qilib, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatiga egadir. Shu tufayli ilmga intilish, go‘zallik yaratishga, har tomonlama barkamol bo‘lishga urinish insoniyatga xos bo‘lgan boqiy fazilatlardir. Har bir sog‘lom fikrli odam insoniyatning umrboqiyligini idrok etadi va o‘zidan oilasiga, farzandlariga, insoniyatga nimadir qoldirib ketishni istaydi. Shundan kelib chiqib, umrining maqsadi va mazmunini belgilaydi. Xuddi shu narsa uning e’tiqodini ifodalaydi. E’tiqod jur’atni, mardlikni, fidoyilikni talab qiladi.

Inson iymonliliginining mezonlari. Endi iymonlilikning ba’zi kategoriylarini qisqa izohlashga o‘tamiz. Ularning mazmuni, mohiyati va amaliy ahamiyatini chuqur anglab olmoqlik va o‘zimizning kundalik xatti-harakatimizda amal qilmoqlik bizni har damda yuksak insoniylikka, komillikka tomon eltadi, demakki, iymonimiz mustahkamlana boradi. Iymonning boshi – taqvo. Taqvo – har noto‘g‘ri ishga qo‘l urishda Allohdan qo‘rqish, yomon ishlardan saqlanish. Allohdan qo‘rvuvchi banda oilada, jamiyatda halol yashaydi, haromga qo‘l urmaydi, oxiratda javob berishini o‘ylab, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, to‘g‘ri bo‘ladi, poraxo‘rlik qilmaydi, qasamxo‘r bo‘lmaydi, birovni aldamaydi, yolg‘on gapirmaydi, kishilarga, vataniga xiyonat qilmaydi va boshqalar. Sharm-hayo ham iymonlilik belgisi sanaladi. Sharm – bu har bir odamning nojo‘ya, yomon xatti-harakatlardan o‘zini tiya olishi, uyalish hissi. Hadisi shariflarda ayttilishicha, odam, eng avvalo o‘zidan uyalishi kerak. Nojo‘ya, yomon qilmishi, xatti-harakati uchun o‘zidan uyalgan odam o‘zgaga ham

bunday harakatni ravo ko‘rmaydi. O‘zidan uyalmagan odamda sharm bo‘lmaydi. Demak, sharm odamning o‘z nojo‘ya harakati uchun o‘z vijdoni, diyonati oldida javob berish hissi, desak bo‘ladi.

Hayo – bu uyat demakdir. Hayosiz, behayo deyilganda, uyatsiz ish qilganda xijolat chekmaydigan, odob-axloqsiz kishi tushuniladi. Hayo erkak kishiga nisbatan ayollarda tabiatan ko‘proq bo‘ladi. Erkak kishi bemalol aytadigan ba’zi so‘zlarni, ayollar turli andisha va uyalish tufayli ayta olmaydilar, hayo ularga yo‘l bermaydi. Hayoli bo‘lish, bu faqat uyatli so‘zni aytmaslikda emas. U bundan ham ko‘ra kengroq ma’no va mazmunga ega. Sharm-hayoli bo‘lish insonni tubanlashib ketishdan saqlaydi. O‘z nojo‘ya xatti-harakatidan uyalish hissi faqat odamlarga xos xususiyat. Farzandlarimizni sharm-hayoli qilib tarbiyalash oiladan boshlanadi. U milliy tarbiyaning muhim jihatini tashkil etadi.

Iymonli bo‘lishning belgilaridan biri or-nomus hisoblanadi. Or qilish odamning o‘ziga nomunosib yoki ep ko‘rmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg‘usidir. Or yana biror narsadan hazar qilishni ham bildiradi.

Oriyat esa or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg‘usidir. Odatda oriyatli odamlar o‘zлari va oilalarining, tug‘ishganlarining izzat-nafsi, qadri, hurmatini yuksak tutib, boshqalar tomonidan toptalishi, haqorat qilinishi va hurmatsizlanishiga loqayd qarab turmaydi, turolmaydi.

Nomus – bu iffat, bokiralik ma’nolaridan tashqari kishining o‘z mavqeini saqlash, ulug‘lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg‘usini, oila va ajdodlar sha’niga dog‘ tushirmaslik kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ko‘pincha, biror kishini, uning oila a’zolarini, ajdodlarini nohaq haqoratlasalar-da, u kishi bunga beparvo, loqayd tursa, undaylarga qarata senda or-nomus, oriyat bormi, deb xitob qilinadi. Bizning ota-bobolarimiz, xalqimiz qadimdan or-nomusli, oriyatli bo‘lib kelgan, shuning uchun ular o‘z yurtini, uning tuprog‘ini, onalari va farzandlarining bosqinchilar tomonidan toptalishini o‘zлari uchun or deb bilganlar. Ko‘rinadiki, or-nomus, oriyat mohiyatida vatanparvarlik, xalqparvarlik sifatlari yashirinib yotadi.

Iymonli bo‘lishning yana bir belgisi odamning diyonatli, vijdonli bo‘lishidir. «Dyonat» va «vijdon» bir-biriga yaqin tushunchalar. Diyona va vijdon odamlardagi insof tuyg‘usiga hamohangdir. Diyona va vijdon kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe’l-atvori uchun avvalo o‘zi oldida, qolaversa, oila, jamoat, jamiyat va vatan oldida ma’naviy mas’uliyat his etishidir. Vijdonli, diyonatli kishi nohaq,adolatsiz ishlardan g‘azabga keladi, ularga qarshilik bildiradi, o‘z yaxshi faoliyatidan qanoatlanib

xursand bo'lsa, yomonlaridan norozi bo'lib, ruhan eziladi, vijdon azobiga uchraydi. O'zini bilgan odamga vijdon azobidan og'irroq jazo yo'q.

Mehr-shafqatlilik ham iymonning belgilaridan biridir. Yuqoridagilar kabi mehr-shafqat ham xalqimizga xos xususiyat sanaladi. Mehr-shafqat odatda yetim-yesir, qarovsiz qolgan qariyalar, g'ariblarga, nogironlarga nisbatan moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish tuyg'usi, desak bo'ladi. Bizning mustaqil respublikamiz rahbariyati ota-bobolarimiz udumlarini davom ettirib, bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ota-onasiz, qarovsiz qolgan bolalar va hech kimi yo'q qariyalar, shuningdek nogironlarga nisbatan yuksak mehr-shafqatlilik namunalarini ko'rsatayotir.

3. Ichki ishlar idoralari xodimlarini Vatanga sadoqatli, iymon-e'tiqodli etib tarbiyalashning dolzarbli

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, odamlarda, ayniqsa yosh avlodda poklik va halollikni shakllantirish vazifasi dolzarblashmoqda. Insonning insonligi uning pokligi va halolligi bilan «o'lchanadi». Shuning uchun ota-bobolarimiz hamisha pok va halol bo'lishga da'vat etib kelganlar, halol bilan haromni farqlashni nasihat qilganlar. Bu musulmon odami, xususan o'zbek xalqi axloq-odob qonuniyatining asosini, boshqacha aytganda, iymonning negizini tashkil etadi. Poklik va halollik esa iymonning asosiy belgilaridan biridir. Poklik va haloliksiz iymonli bo'lish mumkin emas. Iymonli bo'lishning o'zi esa insonning pokligi va halolligiga yo'g'rilgandir. Pok va halol bo'limgan odamdan ezgulik chiqmaydi, unda mehru shafqat, oriyat, nomus, sharm va hayo bo'lmaydi. Ko'rindiki, iymonning barcha belgilari asosida poklik va halollik yotar ekan. Mana shuning uchun ham ota-bobolarimiz poklik va halollikka alohida e'tibor bergenlar.

Halol bu insonlar uchun ruxsat qilingan yaxshi, ijobiy ishlar, xatti-harakatlar majmuidir, mehnat evaziga topilgan narsalar, shuningdek pok va toza oziq-ovqatlar sirasidir. Halollikning yanada kengroq ma'nodagi turlari bu turmushda, o'zaro muomala-munosabatda, jamoa orasida, savdo-sotiqda, do'stlar o'rtasidagi halollik kabilardir. Yuragi pok va toza, halol yo'ldan yurgan insonlar hamisha xotirjam bo'ladi, ko'ngli ravshan, doimo sihat-salomat yuradi. Xorazmlik qomusiy alloma Mahmud az-Zamahshariy bu haqda shunday deb nasihat qiladi: «Halol va pokiza kishi doimo xotirjamu tinchlikdadir, birovga xiyonatu yomonlik qiladigan kishi esa halokatga giriftordir».

Hayot, asosan oiladan boshlanadi. O'zbek xalqida «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bor. Demak, ota-onasiz pok va halol bo'lsa,

farzandi ham shu ruhda kamol topadi. Farzanddag'i yaxshi fe'l va amallar halol luqmadandir.

Xulosa shuki, poklik va halollik iymonli bo'lishning asosiy shartidir. Insondagi yaxshi yoki yomon illatlar uning iymoniga, ya'ni pokligi va halolligiga bog'liq. Inson iymonining pokligiga doimo shayton raxna solib, uni yo'ldan adashtirmoqchi, noshar'iy yo'llarga solmoqchi, halollik, poklik yo'ldan urmoqchi bo'lib, qalbida g'ulg'ula uyg'otishga harakat qiladi. Shuni esda yaxshi saqlashimiz kerakki, poklik va halollik yonida doimo uni shu yo'ldan ozdirmoqchi bo'lgan shaytoniy vasvasa hamroh bo'lib yuradi. Iymon yo'ldan ozgina toyilishga moyillik bo'lsa, o'sha yerda darrov shaytoniy hissiyot bosh ko'taradi va oxir-oqibat inson qalbini zabt etishga intiladi. Shuning uchun doimo iymon, poklik va halollik yo'lida hushyor turishimiz kerak. Bu, ayniqsa bozor munosabatlariga o'tish davrida nihoyatda zarur.

Yuqorida iymonli odamning asosiy belgilari to'g'risida fikr yuritdik. Ularning har birini inson uchun bir bezak, deb bilmoq kerak. Shu o'rinda inson uchun nihoyatda zarur bo'lgan boshqa bir bezak to'g'risida to'xtab o'tmaslikning iloji yo'q. Busiz inson barkamol bo'la olmaydi. U ham bo'lsa kamtarlik belgisidir. Kamtarlik odamni bezaydi, obro'sini oshiradi, do'stalarini ko'paytiradi.

Kamtarlik – inson ichki ma'naviy dunyosining namoyon bo'lishidir. Agar insonning qonida, qalbida yumshoqlik, saxovat, odob-andisha, sharm-hayo, or-nomus, oriyat bo'lmasa, ming harakat qilmasin, baribir, odamlar ko'ziga kamtar bo'lib ko'rma olmaydi.

O'zbek xalqi urf-odatida, milliy qadriyatlarimizda takabburlik qiluvchilar, firibgarlar, maqtanchoqlar, manmanlar keskin qoralanadi. «Kamtarga kamol, manmanga zavol», degan hikmat bejizga aytilgan emas.

Tarixchi Xondamir «Axloqul Muxsimiy» kitobida: «Boshingga takabburlik havosini keltirma. Chunki takabburlik bilan hech kim biror joyga yetgan emas. Go'zallar zulfi kabi shikastlikni (kamtarlikni) odat qil, bu bilan har nafasda minglab ko'ngilni ovlaysan», – deb uqtirgan edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida, shu jumladan ichki ishlar idoralari tizimida ham tub islohotlar amalgalashdi. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «Islohotlar natijasida ichki ishlar organlarining fuqarolarni va jamiyatni terrorchilik, qo'poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko'rinishlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlaydigan tizim shakllanishi zarur. Ichki ishlar

organlari shaxs huquqlari va erkinliklarini, jamoat tartibi va fuqarolar xavfsizligini himoya qilishning ishonchli garovi bo‘lishi lozim»¹.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning ishonchli garovi sifatida yurt tinchligi va osoyishtaligining o‘rni beqiyos hisoblanadi va shu sababli tinchlik hamda osoyishtalikni ta’minlash oldimizda turgan kechiktirib bo‘lmas vazifalarimizdan biri. Yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash ichki ishlar idoralari xodimlarining bugungi eng muhim, dolzarb vazifasidir. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolar, davlat organlari, jamoatchilikning ham mashaqqatli, sharafli burchidir.

Ichki ishlar idoralarining o‘z funksional vazifalarini amalga oshirib, yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdagi ishtiroki muhim amaliy ahamiyatga ega.

Bugun ko‘p qutbli dunyo maydonidagi globallashuv jarayonlarining ta’siri tobora ortib borayotgan bir paytda mamlakat xavfsizligini ta’minlash fuqarolarni, jamiyatni har xil buzg‘unchi mafkuralardan himoyalash eng muhim vazifadir. Darhaqiqat, agar dunyo siyosiy maydonida yuz berayotgan o‘zgarishlar, voqeа va jarayonlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdid solayotgan xavf-xatarning tobora ortib borayotganining guvohi bo‘lishimiz mumkin va ularni quyidagilarda ko‘ramiz: birinchidan, buyuk millatchilik shovinizmi ta’sirining ortib borayotganligi, ya’ni ayrim g‘arb davlatlari o‘zining agressiv tashqi siyosatini «beminnat yordam», «demokratiyani himoya qilish va ta’minlash» kabi niqoblangan bahonalar bilan xaspo‘shab, rivojlanayotgan mamlakatlarga, o‘zining manfaatini ifodalaydigan boshqa mamlakatlarga ta’sir qilayotganini; ikkinchidan, mafkuraviy tahdidlar yordamida mamlakat ichki siyosatidagi islohotlarni obro‘sizlantirishga urinish bo‘layotganligi; uchinchidan, terrorchilik guruhlari tomonidan mamlakatimizga bir qator terror harakatlarining amalga oshirganligidan bilishimiz mumkinki, terrorizm ham tinchlik va osoyishtaligimizga jiddiy xavf solmoqda; to‘rtinchidan, mintaqaviy mojarolar, shu jumladan hamon Afg‘onistonda terrorchi tolbonlarning faoliyat yuritayotganligi; beshinchidan, mamlakatimizda ham Vatan xoinlari tomonidan amaldagi siyosatimizga qarshi chiqishlarning mavjudligi.

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 403–404.

Ichki ishlar idoralarining yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdagi ishtiroki asosan ichki xavf-xatarni, ya'ni mamlakat ichidagi har xil g'ayriqonuniy va zararli tahdidlarni bartaraf etish, ularning oldini olishda namoyon bo'ladi. Ichki ishlar idoralarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuniga e'tibor beradigan bo'lsak, so'nggi yillarda profilaktika xizmati faoliyatini isloh qilishga alohida e'tibor berilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Profilaktika xizmatlarining yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdagi o'rni nihoyatda ahamiyatli hisoblanadi va quyidagi yo'naliishlarda amalga oshiriladi:

– bevosita fuqarolar, jamoatchilik bilan muloqotda, ularning yaxshi va yomon kunlarida ham hamnafas bo'lib, aholi o'rtasida jinoyatlarning oldini olish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarini amalga oshiradi;

– profilaktika inspektorlari o'zining xizmat hududlarida kriminogen vaziyatni o'rganadi, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash, sodir etilayotgan huquqbazarliklarni bartaraf etish, diniy ekstremistik xususiyatdagi tashkilotlar va guruhlar tuzilishining oldini olib, ular faoliyatiga chek qo'yadi;

– huquqbazarlikka moyilligi bor fuqarolar bilan profilaktik mazmungagi ta'sir choralarini amalga oshiradilar, zotan, yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash, huquqbazarliklarning oldini olish katta ahamiyatga ega;

– aholi o'rtasida har xil tushuntirish ishlarini, umumiyl Profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

– yurt tinchligi va farovonligini ta'minlash uchun keng hamkorlikni yo'lda qo'yib, bu hamkorlik subyektlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Ta'kidlash lozimki, yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda samarador hamkorlikni tashkil etish lozim. Yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash, avvalo, mahalladan boshlanadi, mahallada osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash bevosita profilaktika inspektorining funksional vazifasi hisoblanadi. Profilaktika inspektorlari va aholi o'rtasidagi mustahkam aloqaning mavjudligi mahallada osoyishtalikni ta'minlashda samarali omil hisoblanar ekan. Aholi o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlarda «Siz yashash joyingizdagiprofilaktika inspektorini bilasizmi?» degan savolga 89,7 foiz aholi istiqomat qiladigan hududi profilaktika inspektorlarini yaxshi tanishlarini qayd etishgan bo'lsa, 10,3 foiz aholi profilaktika inspektorini tanimasligini aytgan. «Siz yashash joyingizdagichki ishlar idoralari profilaktika inspektorlari bilan qay yo'sinda tanishgansiz yoki uni qanday bilib olgansiz?» degan savolga so'rovda ishtirok etganlarning 42,7 foizi

profilaktika inspektorlari o‘zini tanishtirish maqsadida ataylab bizning uymizga tashrif buyurgan; 27,0 foizi militsiya tayanch punktida uni tanishtirishgani; 13,0 foizi tasodifan, hovlida, yashash joyi hududida; 5,6 foizi profilaktika inspektorlariga muayyan masalani hal qilish yuzasidan murojaat qilganda; 9,15 foizi profilaktika inspektorlari meni huzuriga muammoli masalani hal qilish uchun chaqirganda, deb javob bergen bo‘lsalar, ularning 2,55 foizi profilaktika inspektorlari bilan boshqa holatlarda tanishganlar. Bundan shu narsa ko‘rinib turibdiki, profilaktika inspektorlari aholi bilan bevosita muloqotda bo‘lishlari oqibatida ular bilan hamkorlik qilishlari uchun obyektiv va subyektiv jihatdan qulay imkoniyatga ega bo‘ladilar.

Ichki ishlar idoralari xodimlarining yurt tinchligi va xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatining yo‘nalishlarini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

birinchidan, aholi istiqomat qiladigan hududlarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash ishlarini olib boradi;

ikkinchidan, aholi o‘rtasida jinoyatlarning oldini olish, huquqiy madaniyatni oshirish tadbirlarini amalga oshiradilar. Bunday tarbiyaviy ishlarni olib borishda suhbat, savol-javoblardan foydalanish ko‘proq ijobjiy natijalar beradi.

Ichki ishlar idoralarining xodimlari o‘z faoliyatlarida turli tadbirlarni amalga oshirib, aholining mafkuraviy immunitetini kuchaytirib, milliy g‘oyani shakllantirishda salmoqli hissalarini qo‘shadilar.

Fuqarolik jamiyatiga xos bo‘lgan jarayonlardan biri ijtimoiy-ommaviy faollik hisoblanadi va bunda fuqarolar tomonidan turli xil ommaviy tadbirlar o‘tkazilishini misol sifatida keltirish mumkin. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash O‘zbekiston Respublikasi IIVning «Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish vaqtida xavfsizlikni ta’minlash va jamoat tartibini saqlash to‘g‘risida»gi buyrug‘iga binoan ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash bo‘yicha ichki ishlar idoralarining faoliyati takomillashtirildi.

Shunday qilib, mamlakatimizning ichki ishlar idoralari tizimida amalga oshirilgan islohotlar ichki ishlar idoralarining yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashdagi mas’uliyatini va ishtirokini yanada oshirish bilan birga, davlat ijroiya hokimiyyati tarkibidagi milliy xavfsizlikni ta’minlovchi ishonchli tizimlardan biriga aylandi.

Yurt tinchligi va osoyishtaligini ta’minlashda ichki ishlar idoralarining ishtiroki tizimdagi xodimlarning kasbiy, ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik va boshqa zaruriy xislatlari hamda qobiliyatları bilan mustahkam mantiqiy

bog‘liqdir. O‘z xizmat vazifasini bajarishda murakkab va og‘ir to‘sqliarni yengib o‘tib, kunni kun demay, tunni tun demay, qishda ham, jaziramada ham sobitlik bilan Vatan, xalq oldidagi mashaqqatli, shu bilan birga sharaflı burchini bajarayotgan xodimlarga ana shu fazilatlar kuch beradi. Yurt tinchligi va osoyishtaligi, unda yashovchi fuqarolarning hamjihatligi, birdamligi bilan uzviy chambarchas bog‘liqdir. Ichki ishlar idoralarining xodimlari o‘z faoliyatida aholining turli ijtimoiy qatlamlari o‘rtasida hamkorlikni ta‘minlashga katta hissa qo‘shadilar, bunda ular bir hududda istiqomat qiluvchi turli millatlarning hamjihatligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradilar. Millatlar o‘rtasidagi totuvlik umumiylar barqarorlik sharti, uni ta‘minlashda ichki ishlar idoralarining o‘rni beqiyos. Chunki, mustaqillikka tahdid soluvchi omillar xilma-xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ma’lumki, hozirgi davlatlar asosan ikki tur – polietnik (ko‘pelatli) va monoetnik (bir elatli) davlatlarga bo‘linadi. Sayyoramizda o‘zining betakror madaniy va ma’naviy qadriyatlariga ega 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Ammo hozirgi zamonning hal qilinishi mushkul bo‘lgan muammolaridan biri dunyoda yashayotgan etnoslarning ko‘pchiligi o‘z milliy davlatchiligiga ega emaslidir. Dunyo siyosiy xaritasida atigi ikki yuzga yaqin davlat borligi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

Shu sababli ko‘pmillatli mamlakatlarda o‘z davlatlariga nom bergen asosiy millat bilan bu mamlakatlarda istiqomat qiluvchi etnik ozchilik o‘rtasida o‘zaro munosabatlar ichki siyosiy barqarorlik va milliy xavfsizlikning hal qiluvchi shartlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Korrupsiya va jinoyatchilik. Har bir davlat tarixida yangi ijtimoiy sifat holatiga o‘tish, afsuski, korrupsiya va jinoyatchilik kabi jirkanch hodisalar bilan birga yuz bergen. Jinoyatchilikning o‘sishi nafaqat islohotlar yo‘liga jiddiy to‘sinq, balki o‘tish davrida belgilangan maqsadlarga erishishga ham bevosita tahdid qiladi. Korrupsiya va jinoyatchilik, birinchidan, siyosiy jihatdan olganda, korrupsiya amalga oshirilayotgan islohotlarga qarshilik ko‘rsatib, o‘z umrini yashab bo‘lgan, yangi iqtisodiy munosabatlarni o‘ziga qarshi tahdid deb bilgan holda, ularning rivojlanishini sekinlashtirib qo‘yishga harakat qiladigan ma’muriy-buyruqbozlik tizimi bilan xufiyona iqtisodiyotning manfaatlari obyektiv ravishda birlashib ketadi. Korrupsiya domiga ilingan amaldorlar shaxsiy boylik orttirish maqsadi va urug‘-aymoqlarining manfaatlarini davlat manfaatidan ustun qo‘yadi. Bu esa

mamlakatning siyosiy-iqtisodiy yo‘liga hamda aholining aksariyat qismiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazadi.

Ikkinchidan, jinoyatchilik va korrupsiyaning avj olishi davlatning konstitutsiyaviy asoslarini yemiradi, fuqarolar huquq va erkinliklarining jiddiy buzilishiga olib keladi. «Qonunlar va farmonlarni qabul qilishdan maqsad ularni chetlab o‘tishdir» degan mutlaqo noto‘g‘ri qoida jamiyatning eng oddiy huquqiy tartibot va jamoat tartibini saqlab turish qobiliyatidan mahrum bo‘lishiga olib boradi.

Uchinchidan, jinoyatchilik va korrupsiya jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini yemiradi. Jamiyat a’zolarining fuqarolik mavqeini yo‘qqa chiqaradi. Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga salbiy munosabat vujudga kelishi uchun sharoit yaratadi. Islohotlar g‘oyasini obro‘sizlantiradi va eski zamonlar, jumladan «qudratli markazning kuchli qo‘li»ni qo‘msash hissini tug‘diradi.

To‘rtinchidan, «pul hokimiyatga intiladi», degan ibora bor. Lekin pul jinoiy yo‘l bilan topilsa-yu, uning egalari jamiyatning hokimiyat tuzilmalariga chiqib olsalar, ularning qanday boshqarishlarini tasavvur qilish qiyin emas.

Beshinchidan, nopol yo‘l bilan boylik orttirganlar jazodan qutulib qolish va o‘zlarining jinoiy sarmoyalalarini himoyalash uchun har qanday xatti-harakat qilishga tayyor turadilar. Bunday kimsalar vaziyatni beqarorlashtirishga, ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqarishga shaylanadilar. Bunday paytda ular uchun ehtiroslarni junbushga keltirish, olomonni qo‘zg‘atish va uning orqasiga yashirinib olishdan qulayi yo‘q.

Oltinchidan, jinoiy usullar bilan boylik va mo‘may pul orttirgan kimsalarning yangi huquq himoyachilarini va hatto demokratiya uchun jafo chekkan kurashchilar sifatida siyosatga kirib olishga harakat qilayotganidan dalolat beruvchi misollar, afsuski, bizda ham uchrab turadi.

Yettingchidan, korrupsiyachilarining xatti-harakatlari nafaqat mamlakatimizning halol fuqarolarini tadbirkorlikdan chetlatadi, balki chet ellik hamkorlarda ishonchsizlik uyg‘otadi va ularni cho‘chitib qo‘yadi.

Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar singari O‘zbekiston Respublikasi ham bundan xoli emas. Korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurash muammolariga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas. Bu borada keng tarqalgan va umum e’tirof etilgan fikr, ya’ni totalitarizmdan demokratiya va bozor munosabatlariga o‘tishdek murakkab davr mohiyatan siyosiy, iqtisodiy va madaniy tuzilmalarni sindirib tashlashni

anglatadi. Bunda, axloq-odob me'yorlariga salbiy ta'sir etadi, jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi muqarrar, degan xulosani eslatib o'tish mumkin.

Har bir mamlakat yuqoridagi jarayonning shakllari va sur'atlarini mustaqil belgilamoqda. Uni jinoyatchilar dunyosining halokatli ta'siridan himoya qilishga intilmoqda. Bu o'rinda gap o'g'rilik, talon-toroj, odam o'ldirish va shaxsga nisbatan zo'ravonlik kabi jinoyatlar haqida borayotgani yo'q. O'tish davrida yangi iqtisodiy mexanizmlar shakllantirilayotgan bir paytda aholining assosiy ko'pchiligi bozor sharoitida yashashni endigina o'rganayotganidan va uning obyektiv qonunlarini payqay boshlaganidan foydalanib, amalga oshirilayotgan iqtisodiy jinoyatlar toifasi katta xavf tug'diradi.

Mahalliychilik va urug'-aymoqchilik munosabatlari. Ko'pchilik lu-g'atlarda berilgan ta'riflarga ko'ra, urug'-aymoqchilik feodal jamiyatlarga xos hodisa. U qon-qarindoshlik aloqalari bilan bog'langan odamlarning birligidir. O'sha davrda urug' jamoasi o'z boshlig'inining nomi bilan atalardi. Boshliq esa o'z a'zolari uchun eng obro'li odam hisoblangan. Aynan u urug'-aymoq a'zolarini himoyalagan, ularga homiylik qilgan va yordam bergen.

Zamonlar o'tdi, jamiyatda sivilizatsiyalashuv amalga oshdi, odamlar o'rtasidagi munosabatlar o'zgardi. O'zgardi-yu, izsiz yo'qolib ketmadi. Hozirgi jamiyat yoxud uning ijtimoiy-madaniy hodisalarida ham uzoq o'tmishning aniq izlari namoyon bo'ladi. Urug' jamoalari shular sirasiga kiradi.

Bugungi dunyoda haqiqiy ma'nodagi urug'-aymoqqa bo'lingan jamiyatni topish mushkul. Lekin u shakli o'zgargan, «yangilangan» holda ba'zan mavjud bo'ladi. Ayni vaqtida mamlakatlar bilan qondoshlik, jumladan yurtdoshlik, hududiy yaqinlik rishtalari vujudga keldi. U yoki bu joydan chiqqan, o'sha hududdan tashqarida, mamlakatning boshqa yerlarida o'mashib qolgan kishilar yurtdoshlariga yordam bersalar, buning nimasi yomon, degan savol tug'ilishi ham mumkin.

Bu hodisalar yashovchanligi va hozirgi sharoitda ular muttasil o'z-o'zidan paydo bo'lib turishining sabablari nimada yoki ular bizning mintaqamiz sharoitlarida qanday namoyon bo'lmoqda?

Urug'-aymoqchilikdan maqsad – o'z qarindoshlarini davlat hokimiyati pillapoyalarida mumkin qadar yuqori ko'tarish. Urug'-aymoqchilikni ajratib turuvchi belgi uning a'zolarining bir joyda tug'ilganligidir.

Xullas, ichki ishlar idoralari xodimlarini Vatanga sadoqatli, iymon va e'tiqodli etib tarbiyalashda har birimizni iymon, poklik va halollik, or-nomus, sharm va hayo, kamtarlik, qo'yingki insonni bezovchi go'zal xulq-odob, axloq tark etmasin.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zini o'zi anglash deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy o'zlikni anglashni mustaqillik uchun kurashning muhim omili deb hisoblaysizmi?
3. Huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik jamiyatimizga nima uchun zarur?
4. Vatan deganda nimani tushunasiz?
5. «Vatanni sevmoq iymondandir», «Vatan sajdagoh kabi muqaddas» iboralarining mohiyatini izohlang.
6. Vatanparvarlikning asosiy namoyon bo'lish jihatlari qanday?
7. Iymon deganda nimani tushunasiz?
8. Diniy va dunyoviy iymonni qanday tushunasiz?
9. Insoniylikning muhim shartlari nimalardan iborat?
10. Nima uchun poklik va halollik iymonli bo'lishning asosiy sharti sanaladi?

7-mavzu.
ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINING
MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI

**1. Ichki ishlar idoralari xodimlarining ma'naviyatini
yuksaltirish – davr talabi**

Bugun ma'naviyat ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu masalaga doim e'tibor berib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi, ma'ruza va asarlarida yuksak ma'naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta'kidlanmoqda. «Biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma'naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog'lik chuqur ildiz otgani bilan baholaymiz»¹, – deb uqtiradi Islom Karimov.

Ma'naviyati buyuk xalqni qul qilish, abadiy istibdod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Ma'naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun mustaqillikni mustahkamlash zarur bo'ladi. Kelajagi buyuk davlat, muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma'naviyat tufayli vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma'naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma'naviyat va ma'rifatga doimo katta e'tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o'zligini tanib, o'z tarixini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifalarini anglab olmoqda.

Inson ma'naviyatini yuksaltirmsdan turib, xalqimiz hayoti va turmushining yuksalishi hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyat-larga erishish qiyin. Yurtboshimiz Islom Karimov «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» asarida ta'kidlaganidek: «Xalqning ma'naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o'ziga xosligi, qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitcha hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir»². Haqiqatan, faqat ma'naviy erkin, ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erisha

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 274.

² Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 274.

oladi. Boshqacha aytganda, faqat ma'naviy sog'lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo'lishi mumkin¹.

Ushbu masalalarga daxldor holda ichki ishlar idoralarining xodimlarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish ham muhimdir.

Ma'naviy tarbiya sohasida ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'yish niyatda xatarli. Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday nozik, ahamiyatli jabhasiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalar-da kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o'zibo'larchilik va lo'ttibozlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma'naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko'lamli madaniy, tarixiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma'naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo'lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo'lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma'naviy bo'shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo'shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Bunga keyingi vaqtarda yuz bergan mudhish voqealar yaqqol misol bo'la oladi. Shu sababli tarixiy burilish davrlarida obyektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, tahlil qilib, ularga to'g'ri munosabatda bo'lish lozim. Mamlakatimiz rahbariyati buni to'g'ri anglab, bunday holatning yuzaga qalqib chiqishining oldini faqat mustaqillik tafakkuri, ma'naviyatini shakllantirish, maqsad, vazifa, vositalari, yo'llarini izlab topish, hayotga joriy etish orqali hal etish mumkinligini ta'kidlab kelmoqda. Zotan, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. Shuning uchun ham Yurtboshimiz «Yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori» degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyilga aylandi.

Ichki ishlar idoralarining xodimlari ma'naviyatli va e'tiqodli bo'lsalar, o'z maslagi, Vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyordirlar.

O'zbekiston bozor munosabatlari, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni sari ildam borayotgan davrda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati tobora o'sib bormoqda, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ydi. Shu ma'noda Islom

¹ Qarang: O'sha manba. – B.280.

Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» nomli ma’ruzasidagi quyidagi fikrlariga e’tiborni qaratmoq lozim: «Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymone’tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirishdir. Ya’ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»¹. Bozor munosabatlarda ham yuksak ma’naviyatli va axloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishchan ichki ishlar idoralari xodimlari zarur. Bundan xulosa shuki, hech kechiktirmay, ikkilanmay ma’naviy-ma’rifiy tarbiya masalasi haqida o‘ylash, uni to‘g‘ri yo‘lga solish vazifasini amalga oshirish lozim bo‘ladi. Bunda biz ma’rifatparvar Abdulla Avloniyning: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir», – degan o‘gitiga amal qilishimiz zarur.

Endilikda ma’naviy va ma’rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko‘tarildi. Chunki Prezidentimiz ta’kidlaganidek, taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Yurtdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat ma’rifatli insonning «ikki qanotidir». Butun ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog‘imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davrining talabidir.

Ichki ishlar idoralarining xodimlarini to‘g‘rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka, qo‘yingki, yuksak axloqlilikka yo‘llash bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi – iymoni, e’tiqodi va axloqiy fazilatlari, qo‘yingki, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayanilganda yaratiladi. Boshqacha aytganda, ma’naviy barkamol insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. Shuning uchun ma’naviy barkamol insonni, sog‘lom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. Bu masalada Yurtboshimizning quyidagi sabog‘i ibratlidir: «Biz sog‘lom avlodni

¹ Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон хаёт – пировард мақсадимиз. Т. 8. – Т., 2000. – Б. 341.

tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi deganda, faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz». Bu fikrlardan anglanib turibdiki, sharqona odob-axloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvori, axloq-odobi bilan bevosita aloqador. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Sog‘lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma’naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqan pok, ma’rifatli farzandlarni, avlodni tushunamiz. Bunday kishilar o‘zlariga xalqimizga xos eng ardoqli fazilatlar – iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlar va g‘oyalarni singdirgan bo‘lishlari lozim.

Agar ichki ishlar idoralarining xodimlari ma’naviy barkamol bo‘lsalar, shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydilar, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganda, qaddi bukilmaydi, ba’zan uyuşhtirilgan tuhmatu fitnalar ularning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma’naviy barkamol inson ma’naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. Yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma’naviy-axloqiy barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-axloqiy barkamollikning asosiy qirralariga quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas, butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla-ko‘yi, qishloq doshlari va butun mamlakat xalqi farovonligi haqida qayg‘urishi; tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo‘lganligi singari, o‘zi ham ularga kerakli bo‘lishga intilishi; odob-axloqi, fe’l-atvorini yoqimli qilishni insoniy burch deb hisoblashi; ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo‘lib qolgan madaniy merosni qadrlashi; milliy qadriyatlarni e’zozlashi va ularga sodiq bo‘lib qolishi; vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi; o‘zaro muomala-munosabatda o‘rnak bo‘lishi, birovning og‘irini yengil qilishni odat qilishi; umumxalq ma’qullagan va hukumat tomonidan qonuniy qabul qilingan Konstitutsiyani hurmat qilishi va unga sadoqat namunalarini

amalda ko‘rsatishi; Vatanini himoya qilishi, boshqacha aytganda, harbiy vatanparvarlik tuyg‘ulari bilan yashashi; diyonat vaadolat, mehr-shafqat va ezgulikni himoya qilishi; va’daga vafoli bo‘lishi va h.k.

Ichki ishlar idoralari xodimlari ma’naviy-ma’rifiy barkamolligining mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g‘urur bo‘lmash ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo‘sh urmaydi.

Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Vatan istiqboli va istiqloli haqida qayg‘urish;
- xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va himoya qilish;
- butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini, zarur bo‘lsa, jonini ham yurt istiqboli, xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalar.

Mustaqillik bu – bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma’naviyatdir. Shu ma’naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim vazifa va burchdir.

Ma’naviy-ma’rifiy barkamollikning qirralaridan biri milliy g‘ururdir. Milliy g‘urur bu milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining asrlar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-axloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.

O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi.

Ma’naviy barkamollikka erishmay, komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, ichki ishlar idoralari xodimlarining ma’naviy barkamollikka intilishi komil inson darajasiga erishish uchun intilishidir. Inson komillikka butun umri davomida erishib boradi. Sog‘lom avlod, ma’naviy barkamol, komil inson darajama-daraja yuksala boradi. Komil inson bo‘lishning aniq chegarasi yo‘q. Xalq, mamlakat tarixida katta ma’naviy-axloqiy tarbiya rolini o‘ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta’limot va amaliyot sanaladi.

Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim to‘la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu fazilatlarning ifodachisi.

Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab hushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, qalblariga, qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar.

Yaxshi sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko'tarila oladi. Komil inson insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Insonlar komillikka axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar. Komillikning belgisi haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komil bo'ladi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mu-sulmon Sharqi axloqi tarixida ko'p pandnomा kitoblar yaratilgan. Shular dan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston», Amir Temurning «Temur tuzuklari», Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul qulub», Husayn Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» va boshqa asarlar. Bu asarlarda odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi yuksak insoniy fazilatlar ulug'langan.

Alisher Navoiyning «Nasoyim ul muhabbat» asarida komil insonga xos sharqona fazilatlar sanab o'tilgan. Ularga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan rizq topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, shirin, muloyim tilli bo'lish, rahmdil, saxiy, mard bo'lish, halimlik, xushxulqlik, shukronalik bilan kun o'tkazish, sabrlilik, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rmaslik va boshqalar.

Shu tariqa, o'tmishda komil insonga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har bir odamning orzusi deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lган. U insonni ezmilik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih, nojo'ya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlari sharoitidagi taraqqiyotida iymonli bo'lish, halollik va poklik, vijdonlilik va diyonatlilik nechog'lik zarurligi hammamizga ayon. Shuning uchun ham Prezidentimiz ma'naviy barkamol

inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, Vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelayotir. Prezidentimizning: «Farzandlarimiz bizdan ko‘ra bilimli, kuchli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart»¹, – degan ta’kidi buning isbotidir.

Insonning shakllanganlik darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilar: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma’naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur va boshqalar.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini teran his etishi darkor. Ichki ishlar idoralarining har bir xodimi «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?», deb emas, balki «Men o‘zim Vatanimga, xalqimga nima berdim?», deb o‘ylashi va yaratuvchanlik ruhi bilan yashashi kerak.

2. «Ichki ishlar idoralari xodimi» – yuksak ishonch va mas’uliyatni anglatuvchi tushuncha

Dunyoda davom etayotgan jinoyatchilik fuqarolarning huquq va erkinliklariga, shuningdek davlat va jamoatlik manfaatlariga ham jiddiy xavf solmoqda. Shuning uchun mamlakatimizda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab Prezidentimiz Islom Karimov boshchiligidida inson huquq va erkinliklarini ta’minlovchi asosiy davlat idoralaridan bo‘lgan ichki ishlar faoliyatiga jiddiy e’tibor berilmoqda: «Xalq nonini tuya qilayotganlarga nisbatan keskin choralar ko‘rilmayapti. Zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarmasa, bu idoraning nima keragi bor? Poraxo‘rlik uchunmi? Oddiy fuqaroni himoya qilish uchun emasmi? Tabiiy savol tug‘iladi: miliitsiya o‘z burchini bajarmasa, bojxona xodimlari poraxo‘r bo‘lsa, prokuror zaif, o‘yinch bo‘lsa, hokimlarning qulog‘i kar, ko‘zi ko‘r bo‘lsa, oddiy fuqaro kimga boradi? Uni kim himoya qiladi? Uning g‘amini, tashvishini kim chekadi? Qaniadolat, qani haqiqat? Shu ishni bajarmasa yelkasiga pogon taqqanlar nega kerak? Nima uchun ularga otning kallasidek oylik berib qo‘yibmiz? Nima uchun shuncha sharoit yaratib berdik? Odamlarni himoya qilish uchun emasmi?»². Demak, ichki

¹ Каримов И. А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Т. 7. – Т., 1999. – Б. 290.

² Qarang: Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Т., 1996. – Б. 52.

ishlar idoralari xodimlari xalq ishonchini qozonishda yuksak ishonch va mas’uliyatni unutmasliklari kerak.

Shuning uchun fuqarolarni ichki ishlar idoralariga xizmatga olish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda fuqarolarni ichki ishlar idoralariga xizmatga olishda yuklatilgan vazifani vijdonan va sidqidildan ado etuvchi, jonkuyar fuqarolarni saralab olishga asosiy e’tibor qaratiladi.

Ichki ishlar idoralari xodimining kasbiy tayyorgarligiga quyidagilar kiradi:

- doimiy ravishda kasbiy bilimi va mahoratini oshirib borish;
- kasbiga sadoqat ruhini shakllantirish va boshqalar.

Ichki ishlar idoralari xodimlari quyidagi vazifalarni bajarishga mas’uldirlar:

- jamoat joylarida huquqiy tartibotni ta’minalash;
- fuqarolarning xavfsizligini ta’minalash, jinoyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- jinoyat sodir etib, odil suddan qochib yurganlarni aniqlash, qo‘lga olish;
- fuqarolarning hayoti, sog‘ligi, huquq va erkinligini turli xil qonunga zid harakatlardan himoya qilish;
- favqulodda holatlarda (tabiiy ofatlar, suv toshqini, zilzila va boshqa holatlар) fuqarolarga yordam ko‘rsatish.

Ichki ishlar idoralari xodimlari yuksak ishonch va mas’uliyatni his etishlarida ularning ma’naviy fazilatlar sohibi ekanligi muhimdir. Shunday fazilatlardan biri o‘z xizmat burchiga halol munosabatda bo‘lishdir. Xizmat burchi ichki ishlar idorasini xodimining o‘ziga nisbatan yuksak talabni ifoda etadi. Xizmat burchi fuqarolarning barcha konstitutsiyaviy majburiyatlarini mujassamlashtiradi. Ayni paytda xizmat va mansab vazifalarini bajarishni ham qat’iy qilib qo‘yadi.

Mamlakatimizda ichki ishlar idoralari xodimlari mustaqillik yillaridan boshlab o‘z xizmat burchlarini bajarishga vijdonan yondashib kelmoqdalar. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, general-leytenant B. A. Matlyubov quyidagi fikrni bildiradi: «O‘z oromidan, huzur-halovatidan, hatto o‘z jonidan ham kechib, Vatanimizda tinchlik va osoyishtalikdek bebaho boylikni himoya qilib turgan ichki ishlar xodimlarining jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minalash borasidagi mashaqqatli, ammo sharafli xizmatlari alohida e’tirofga loyiq»¹.

¹ Qarang: Postda. – 2009. – 25-oktabr.

Xizmat burchi – faqat sof axloqiy emas, balki huquq normalari vositasida mustahkamlanadigan keng qamrovli tushunchadir. «Buning uchun nimalar zarur?», degan savolga eng avvalo, yuksak ma’naviy fazilatlar zarur¹, deb javob berish lozim.

Ichki ishlar idoralarining xodimlarida mujassam bo‘lishi kerak bo‘lgan fazilatlar – halollik va rostgo‘ylik, iymonlilik, sezgirlik va e’tiborlilik, qat’iylik va intizomlilik, kamtarlik va o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lish, o‘z ishiga mas’uliyatlilik kabilar.

Halollik ana shunday ma’naviy fazilatlardan eng muhimidir. Halol – arabcha so‘z bo‘lib, ruxsat etilgan, yo‘l qo‘yilgan, qonuniy, asosli, to‘g‘ri, vijdonli ma’nolarida, diniy mazmuniga ko‘ra, shariat hukmiga muvofiq yesa, ichsa, foydalansa bo‘ladigan, harom emas, degan ma’nolarga ham ega.

Halol bilan haromni farqlash, harom-xarishdan jirkanish, haromxo‘rlikni eng katta gunoh va axloqsizlik deb bilish, faqat o‘z mehnati evaziga tirikchilik qilish – Sharq falsafasining eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Halollik iymonlilikning asosiy shartidir. Insonning yaxshi yoki yomon harakatlari uning iymoniga, ya’ni pokligi va halolligiga bog‘liq. Prezident Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida quyidagi fikrlarni yozadi: «Lo‘nda qilib aytganda, bu o‘rinda gap bir-biriga qaramaqarshi bo‘lgan, bir-birini inkor qiladigan ikki xil hayotiy qarash haqida bormoqda. Birinchisi – o‘z nonini halol mehnat bilan topadigan, xolis va ezgu ishlar bilan el-yurtga naf yetkazadigan, tiriklik mazmunini teran anglab, nafaqat bugungi hayot lazzatlari, balki oxirat haqida, uning obod bo‘lishi haqida o‘ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar»². Demak, ichki ishlar idoralari xodimlari o‘z xizmat faoliyatida halollikni unutmasliklari lozim bo‘ladi.

Insonning haqiqiy insonligi uning halolligida ko‘rinadi. Shu bois, ajdodlarimiz insonlarni hamisha halol bo‘lishga da’vat etib kelganlar, halol bilan haromni farqlash to‘g‘risida nasihatlar qilganlar. Bu xususan o‘zbek xalqiga xos axloq-odob qonuniyatining asosini, boshqacha aytganda, iymonning asosini tashkil etadi.

Ichki ishlar idoralari xodimining xizmatga nisbatan mas’uliyatida zarur bo‘lgan fazilatlardan biri iymonlilikdir. Iymon ham arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosи *ishonchdir*. Qur’oni karim va hadisi shariflar orqali Allohning mavjudligi, jannat, do‘zax, qiyomat kabilar haqida berilgan

¹ Qarang: *Таджиханов У., Ахмедова С.* Ички ишлар органларида бошқарувни ташкил этиш асослари. – Т., 2001. – Б. 28.

² *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2011. – Б. 22.

xabarlarga ishonch – iymondir. Ma’naviy-axloqiy fazilat sifatida iymon faqat odamzodga xos ruhiy hodisadir. Iymon kishi ma’naviyati, axloqining o‘q ildizi, poydevori, negizidir.

Yer yuzida diniy iymonning bir talay turlari bo‘lib, ularning asosiysi to‘rtta: buddaviy iymon, iudaviy iymon, isoviy iymon, islomiy iymon. Bu iymon turlari farqlansa-da, ammo mohiyatan birdir. Diniy iymon bilan birga inson tajribasi, bilimi tufayli yuzaga kelgan dunyoviy iymon ham bor. Dunyoviy iymonning o‘zagi odamiylikdan iboratdir. «Odam bo‘lish oson, odamiy bo‘lish qiyin», «Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l», «O‘zingga ravo ko‘rmaganni boshqaga ravo ko‘rma», «Yomon o‘z g‘amida, yaxshi – el g‘amida» singari hikmatlarda ajdodlarimiz ardoqlagan insoniylik qadriyatlarining mohiyati aks etgan.

Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashining 2012-yil 16-mart kuni bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zlab: «Hayotiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, odamlar kimgadir, nimagadir ishonchini yo‘qotsa, keyin uni tiklash albatta qiyin bo‘ladi. Huquq-tartibot organlarida ishlaydigan odamlarning o‘zini tutishi, xizmat va muomala madaniyati haqida men bu o‘rinda bejiz so‘z yuritayotganim yo‘q. Nega deganda, forma kiyib, gerdayib yurishdek sovet davridan qolgan salbiy holatlar hali ham, afsuski, yo‘q emas. Ichki ishlar, prokuratura va xavfsizlik idoralari xizmatchilari o‘z vazifasini bajaryapti, buni albatta e’tirof etish kerak. Ayni vaqtida shuni ham esdan chiqarmasligimiz lozimki, bugungi kunda huquq-tartibot idoralari xodimlariga nisbatan boshqalarga qaraganda bir necha barobar qattiq talab qo‘yilmoqda. Chunki ular avvalo davlat, hokimiyat nomidan ish olib boradi va bu mas’uliyatni esdan chiqarishga hech kimning haqi yo‘q¹, – deb ta’kidladi.

Xulosa qilib aytganda, ichki ishlar idoralari xodimining ma’naviy barkamolligi o‘z burchiga yuksak e’tiqod bilan yondashuvga, halol mehnat qilishga va xizmatdoshlarining mehnatiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, intizomlilikka, o‘z bilim saviyasini oshirishga undaydi.

3. Prezident Islom Karimov ichki ishlar idoralari xodimlarining ma’naviy fazilatlarini yuksaltirish xususida

Vatanimiz istiqlolga erishgan kundan boshlab davlatimiz rahbari Islom Karimov rahnamoligida jamiyatimiz barqarorligi, fuqarolar tinchligi va osoyishtaligini ta’minlash, qonunchilik va huquq-tartibotni mustah-

¹ <http://tashkent.uz/>

kamlashning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan ichki ishlar idoralari tizimini chuqur isloh qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalgalashdi.

Chunki Islom Karimov respublika rahbarligiga kelgan paytda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy halokat yoqasida edi. «Islom Karimov hokimiyat boshqaruvini qo‘lga olgan paytda O‘zbekiston halokat yoqasiga kelib qolgan edi. Endi hech kim fojiali voqealar oqimini ortga qaytara olmaydiganga o‘xshardi. U hokimiyat tepasiga mamlakatni balo-qazolardan saqlab qoluvchi kishi sifatida keldi»¹.

Birinchi navbatda e’tibor jamiyatda tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim omillardan hisoblangan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, narkotrafikka qarshi kurashni kuchaytirish, tezkor-qidiruv xizmatlari va tergov bo‘linmalarini mustahkamlash, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, post-patrul xizmati faoliyatini takomillashtirish, profilaktika xizmati rolini oshirish, shuningdek, respublikada yong‘in xavfsizligi tizimini qayta ko‘rib chiqishga qaratildi.

Yurtimizda 25-oktabr sanasining *Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni*, deb belgilangani barcha osoyishtalik posbonlariga yuksak e’tibor namunasini bo‘ldi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Islom Karimov ichki ishlar idoralari xodimlariga yo‘llagan bayram tabrigida ichki ishlar xizmati naqadar mas’uliyatli, shu bilan birga, g‘oyatda sharafli ekanligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Shuningdek, ichki ishlar idoralarining barcha xizmatlari hamjihatlikda harakat qilishi, huquqni muhofaza qilish idoralarining har bir xodimi o‘z burchini halol, vijdonan ado etishi zarurligini qayd etib, bir qancha vazifalar qo‘ydi. Ushbu vazifalarni bajarish ichki ishlar idoralarining har bir xodimiga jamiyatimizda barqarorlik va jamoat xavfsizligi, elu yurt osoyishtaligini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish borasida ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Haqiqatan ichki ishlar idoralarining xodimlari qiyin, o‘ta murakkab sharoitlarda ham yuksak ma’naviy fazilatlarga ega ekanligini ko‘rsatib, o‘z xizmat burchiga sodiq qolmoqdalar. Bu borada Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrni bildirgan edi: «Sizning Andijondagi voqealar bo‘yicha efirga bergen shoshilinch ma’lumotingizga kelsak, go‘yoki huquq-tartibot idoralarining barcha xodimlari tumtaraqay qochib ketdi, degan fikrga men qo‘silmayman. Bu borada siz nohaqsiz. Hech kim hech qayoqqa qochib ketgani yo‘q. Andijon viloyati va shahar militsiyasi hamda xavfsizlik xizmati xodimlari o‘zlarini mardona tutdi, men faqat shuni ayta

¹ Qarang: Левитин Л. Ўзбекистон тарихий бурилиш палласида. – Т., 2001. – Б. 36.

olaman. Hech kim qo‘rqishni xayoliga ham keltirgani yo‘q. Hamma juftakni rostlab qochib qoldi, shaharda to‘la boshboshdoqlik hukm surdi, deyishga hech qanday asos yo‘q. Kelgusida e’tiborga olib qo‘yishingiz uchun aytyapman: bundan keyin ham har qaysi inson o‘z burchini bajaradi»¹. Prezidentimiz tomonidan berilgan baho ichki ishlar idoralarining xodimlarida vatanparvarlik, xizmat burchiga sadoqat tuyg‘ulari yuqori ekanligining e’tirofidir.

Yurtboshimizning tabrigidagi vazifalarni bajarishga mas’uliyat bilan yondashilib, ichki ishlar sohasida ko‘pgina yutuqlar qo‘lga kiritildi. Birinchi galda, yoshlar o‘rtasida olib boriladigan profilaktik ishlar samaradorligi oshirildi, jinoyatlarni zudlik bilan ochish va sodir etilgan jinoyat uchun jazo muqarrarligini ta’minlovchi tezkor-qidiruv va tergov tizimi takomillashtirildi.

Yuksak professionalizm, xushmuomalalik, odamlar orasiga kirib borish, yoshlar qalbiga yo‘l topa bilish, oila va maktab o‘rtasida mustahkam aloqa o‘rnatish – har bir profilaktika inspektorining asosiy xususiyatiga aylandi. Ular faoliyati birinchi navbatda huquqbuzarliklarning oldini olish, sog‘lom va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashga ko‘maklashish, yoshlarni turli salbiy ta’sirlardan asrashga qaratildi.

Transchegaraviy jinoyatlar, uyushgan jinoyatchilik va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, ularni yetkazib berish va tarqatish manbalariga, odam savdosidek jirkanch jinoyatga qarshi kurashda javobgar bo‘lgan tuzilmalarning faoliyatini muvofiqlashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Tizimda kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, shaxsiy tarkibni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ishlari kuchaytirilib, avvalo, ichki ishlar xodimi degan nomga noloyiq kadrlardan xalos bo‘lishga erishilyapti. Xodimlarning ma’naviy shuuri va dunyoqarashini yuksaltirishga ham jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida: «Binobarin, ma’naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o‘z-o‘zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog‘lom avlod kelajagini ta’minalash yo‘lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin»², – deb ta’kidlagani bejiz emas, albatta. Chunki, ichki ishlar idoralarining ma’naviyati yuksak

¹ Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б. 360.

² Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., 2010. – Б.12.

xodimlari hozirgi murakkab zamonda oldilariga qo‘yilgan vazifalarni og‘ishmay uddalay oladilar.

Prezident Islom Karimov shu asarida yana ta’kidlaganidek, «Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir». Demak, ma’naviyat – insonni ruhiy poklikka yetaklaydigan, qalbini iymon-e’tiqod nurlari bilan charog‘on qiladigan va yuksaltiradigan beqiyos kuch. Insonning jamiyatdagi o‘rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma’naviy fazilatlari bilan belgilanadi.

Prezident Islom Karimov o‘zining deyarli barcha asarlarida insondagi ma’naviy fazilatlar borasida alohida to‘xtalib o‘tgan. Ular ilm-ma’rifatli, ustozlarga ehtiromli, mehnatsevar, mustahkam irodali, iymoni butun, oriyatli, vatanparvar, sadoqatli, mard va jasur, adolatparvar, odil, tanti, halol, fidoyi, saxovatli, mehr-muruvvatli, mehmondo‘s, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatli, diyonatli va boshqa fazilatlar sohibi bo‘lishga intilish zarurligi to‘g‘risidagi fikrlardir.

Prezidentimizning insonga xos ma’naviy fazilatlarga alohida e’tibor berishining sabablaridan biri jamiyatimizda fazilatsiz kishilarning borligidir: «Bizning jamiyatda qonun boshqaruvning asosiy va ko‘p qirrali vositasiga aylanishi zarur. Bunday sharoitda huquqni muhofaza etish organlari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Ularning kasb mahorati va axloqiy sifatlariga bo‘lgan talab keskin oshadi. Shundan kelib chiqqan holda, sud, prokuratura, militsiya to‘g‘risidagi qonunlarni takomillashtirib borish zarurati tobora ko‘zga tashlanmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari to‘g‘risida qonun qabul qilishni ham o‘ylab ko‘rish lozim. Qonunda bu organlarda kimning ishlashga haqi bor, u qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak, uning javobgarligi va mansab pillapoyasidan ko‘tarilish shartlari o‘z aksini topishi kerak. Mazkur organlarga qo‘li egri, poraxo‘r, vijdonsiz kimsalar kirib qolishini bartaraf etadigan tizimni qonun yo‘li bilan belgilab qo‘yish maqsadga muvofiqdir»¹.

Ichki ishlar idoralari xodimlari ma’naviy fazilatlaridan biri adolatlilik, to‘g‘riligidir. Muqaddas hadisi sharifda «Dunyoda birgina to‘g‘ri va diyonatli odam topilar ekan, hali qiyomat bo‘lmaydi», deyilgan. To‘g‘rilik – dunyoning posboni, diyonat borligi – insoniyatning mavjudligi demakdir. Buni ajdodlarimiz o‘z hayotlari va faoliyatlarida ibrat sifatida

¹ Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б.14.

ko'rsatib ketganlar. Mutafakkir shoir bobomiz Alisher Navoiy hazratlari ma'naviy merosida ham to'g'rilik, rostgo'ylik, odillik tushunchalari keng o'rin egallagan. U butun hayoti va faoliyatini insoniyatning ma'naviyati, baxt-saodati, xalqning osoyishtaligi, mamlakat farovonligi, obodonchilik ishlari, mehr-muruvvat, ilm-fan, san'at va adabiyotning ravnaqiga bag'ishlangan.

Prezidentimiz bu haqda quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat qurmoqchimiz. Adolat va haqiqatga intilish esa xalqimiz tabiatining eng muhim fazilatlaridan biridir. O'tmishda oliv adolat g'oyasi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talab va bahoning asosi bo'lgan. U davlatchilik negizlarini belgilab, islomiy qoidalar va shariat mezonlarining poydevorini tashkil etgan. Biz tariximizdagi ana shu jihatlarni hisobga olmasak, qudratli, erkin, demokratik davlat qura olmaymiz.

Adolat va haqiqat g'oyasi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini qamrab olmog'i darkor. Adolat va haqiqat g'oyasi qonunchilik faoliyatimizning zamini, bosh yo'nalishi bo'lmog'i shart. Davlatchilik va fuqarolik munosabatlari, mehnat va uy-joy, nafaqa va soliq, tabiatni muhofaza qilish va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, qo'yingki, hayotimizning hamma jabhalari ana shu zaminga tayanishi zarur»¹.

Ichki ishlar idoralari xodimining yana bir fazilati – bu vatanparvarlikdir.

Insoniyatning buyuk farzandlari, ulug' mutafakkirlar o'z ijod va amaliy faoliyatlarida Vatanga bo'lgan yuksak muhabbatlarini ibrat sifatida namoyish etib ketganlar va bu hanuz zamondoshlarimiz faoliyatida davom etib kelmoqda. Ularning bosib o'tgan hayot yo'llarini o'rganar ekanmiz, vatanparvarlikning el-yurt tashvishi va manfaatlari uchun qayg'urish tuyg'usi bilan hamohang ekanligi, insonning kamoli Vatanning yuksalishi bilan bog'liqligini anglaymiz.

Ota-bobolarimiz Vatanni sevmoq iymondandir, deb beziz uqtirishmagan. Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaosi aniq bo'ladi. Vatani borligini his etgan inson har qanday sinovga, har qanday mashaqqatga doimo tayyor turadi. To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi singari xalq qahramonlarining Vatan ozodligi yo'lidagi jasoratlari, mardligi va jonbozligi yuqorida fikrlarimizning isbotidir.

Vatandan begonalashish esa yurt taqdiriga loqaydlik va befarqlikdir. Prezidentimizning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida

¹ Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Т., 1996. – Б. 10–11.

befarqlik haqida shunday fikrni o‘qiymiz: «Dushmanlardan qo‘rqma – nari borsa, ular seni o‘ldirishi mumkin. Do‘stlardan qo‘rqma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo‘rq – ular seni o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham. Faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

Shunday ekan, insonda Vataniga, uni o‘rab turgan atrofga nisbatan daxldorlik, mas’uliyat hissi shakllangan bo‘lmasa, uni komil inson sirasiga kiritib bo‘lmaydi. Inson kamoloti, yuksak ma’naviyati uning Vataniga bo‘lgan mehr-muhabbati va sadoqati bilan o‘lchanadi.

Yana muhim ma’naviy fazilatlardan biri sadoqatdir. Sadoqat so‘zining lug‘aviy ma’nosi samimiylit, chin do‘stlik, vafodorlik bo‘lib, insonga xos eng ezgu ma’naviy-axloqiy xislatni ifoda etadigan tushunchadir. Prezidentimiz sadoqat so‘ziga urg‘u berib, quyidagi fikrni ta’kidlaydi: «Huquqni muhofaza etuvchi idoralar – militsiya, sud, prokuratura xodimlari saflarini malakali, Vatanga va o‘z burchiga sadoqatli, insofli, yosh, iqtidorli va zamon talabiga javob beradigan kadrlar bilan to‘ldirish ishlari kuchaytirilishi lozim»¹.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ichki ishlar idoralarining xodimlari yuksak ishonch va mas’uliyatni chin dildan his etib, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni vijdonan uddalab, ko‘zlangan natijalarga erishib, «osoyishtalik posboni» degan sharafli nomni oqlab kelmoqdalar.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Mas’uliyat» tushunchasining mohiyatini yoritib bering.
2. Prezident Islom Karimov asarlarida ichki ishlar idoralarining xodimlariga qanday talablar qo‘yilgan?
3. Prezident Islom Karimovning Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni munosabati bilan yo‘llagan bayram tabrigida qanday fikrlar bayon etilgan?
4. Komil insonga xos fazilatlarni ta’riflab bering.
5. Ichki ishlar idoralarining xodimi qanday fazilatlar sohibi bo‘lishi kerak?

¹ Каримов И. А. Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. –Т., 1996. – Б. 285.

8-mavzu.
MA’NAVIYAT, DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK
JAMIYATI

1. Ma’naviyat va demokratiya

«O‘zbek modeli»ning asosiy yo‘nalishlaridan biri davlat va jamiyat qurilishidir. Shu bois davlat qurilishi, demokratlashtirish va jamiyatda institutsional o‘zgartirishlar qilish o‘zbek modelining asosiy vazifalaridan biriga aylangan. Prezident Islom Karimov 2010-yil 10-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi» nomli ma’ruzasida: «... biz o‘z oldimizga qo‘ygan uzoq muddatli strategik maqsadlar, ya’ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishini ta’minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash borasidagi sa’y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir»¹, – deb ta’kidladi. Tabiiyki, tub islohotlar ijtimoiy ongni sifat jihatdan o‘zgartirmoqda, aholi faolligi keskin o‘smoqda.

O‘tmishda totalitarizm insonga boshqaruvning obyekti sifatida qaragan. Demokratiyada esa, aksincha, insonga boshqaruvning subyekti sifatida qaraydi. Demokratik jamiyatda insonning o‘zi turli fuqarolik jamiyati institutlarida ishtirok etib, davlat institutlari faoliyati ustidan nazorat olib boruvchi subyektga aylanadi.

Totalitar jamiyatda insonda rejimga nisbatan sadoqat shakllanadi. Yoppasiga o‘rnatilgan nazorat va jazo olishdan qo‘rquv insondag'i tanqidiy rujni so‘ndiradi, uni konformistga, moslashuvchi kishiga aylantirib qo‘yadi. Ko‘pchilik loqaydlikka berilib, bunday holga ko‘nikib qoladi. Totalitarizm mohiyatiga ko‘ra fuqaroning jamiyat a’zosi sifatida ma’naviy qashshoqlanishiga olib keladi. Unga hech qanday muqobil fikr, hech qanday tolerantlik (fikr va qarashlarga nisbatan bag‘rikenglik) tabiatan mos kelmaydi. U alohida kishining fikri bilan hisoblashmaydi. Shu bois totalitarizm fuqaro va uning faol hayoti shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.

¹ Каримов И. А. Демократик ислоҳотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. Т. 19. – Т., 2011. – Б. 35–36.

Demokratiya – inson qadr-qimmati, aql-zakovatini, jamiyatni boshqarish iqtidori va huquqini tan olishi, shaxs va jamiyatning yuksak siyosiy madaniyati va o‘zaro mas’ulligi bilan belgilanadi. Demokratiya – bu tolerantlik, jamiyat hayotining u yoki bu masalalariga oid fuqaro fikrini eshitishdir. Shunday qilib, demokratiya erkin inson, haqiqiy fuqaro, huquqiy fuqarolik jamiyat shakllanishiga xizmat qiladi. Konstitutsiyamizga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Xalqning saviyasi, siyosiy madaniyati, o‘z haq-huquqlarini, tub manfaatlarini anglash darajasi, xullas, ma’naviy yetukligi uning davlat qurilishida qanchalik faol ishtirok etishini, jamoat tashkilotlari orqali davlat idoralari ishini nazorat qila olishini belgilaydi.

Ma’naviyat ijtimoiy turmushning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Davlat qurilishi va jamiyatning siyosiy hayoti ham bundan istisno emas. Fuqarolarning hokimiyatga, siyosiy partiyalarga munosabatlari, jamoat tashkilotlarining o‘zaro va davlat bilan munosabatlari, fuqarolar erkinliklari ma’lum huquqiy makonda kechadi. Lekin ularning qanday tamoyillarga asoslanishi, fuqarolik huquqlarining qay darajada ta’milanishi nafaqat Konstitutsiyaga, huquqiy me’yorlarning demokratik xarakteriga, ayni paytda jamiyatning siyosiy madaniyatiga, undagi ma’naviy muhitga ham bog‘liq. Agar eng yaxshi, taraqqiyparvar qonunga ham jamiyat a’zolarining aksariyati rioya qilmasalar, undan foyda kam bo‘ladi.

Turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy partiyalar, ular tuzgan tashkilotlarning insonparvarlik, xalqchillik, taraqqiyparvarlik tamoyillari demokratiyaga mos bo‘lishi zarur. Aksincha, mutaassiblikka moyil, reaksiyon, shovinistik bo‘lishi totalitarizmni ifoda etadi. Shu bois ma’naviyat keng ma’nodagi siyosatga bevosita belgilovchi ta’sir ko‘rsatadi. Bu ma’noda ma’naviyat jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotining ko‘p xususiyatlarini, qiyofasini, milliy va umuminsoniy, ya’ni g‘oyaviy mazmunini, ijtimoiy omillari va mo‘ljallarini aniqlashga xizmat qiladi.

Qadimgi davrdan kelayotgan «haqiqat bahslarda tug‘iladi», degan naql to‘g‘riliqi sababli, bugun u eng e’zozli umuminsoniy qadriyatlardan, demokratiyani yuzaga keltiruvchi va rivojlantiruvchi tamoyillardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, so‘z va e’tiqod erkinligi, hurfikrlik, umuman ma’naviy erkinlik demokratiyaning axloqiy asosidir. Bu yerda, ma’naviyatning siyosiy mafkura va huquq, siyosiy madaniyat bilan bog‘liq jihatlarigina nazarda tutilayotgani yo‘q, Adabiyot va san’at, maishiy turmushning axloqiy, ma’naviy jihatlari, jamiyatda shakllangan keng ma’nodagi ma’naviy va siyosiy muhit ham demokratiya rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyoqarashi tor, axloqiy, estetik didi, turmush madaniyati past xalq demokratiyani rivojlantira olmaydi. Ilm-fan, adabiyot-san'at, xalq ta'limi, axloq, xullas, ma'naviyat qanchalik yuksalsa, jamiyatning aqliy va ruhiy salohiyati, ijodkorlik imkoniyatlari, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlari, binobarin o'zbek modeling salohiyati shunchalik o'sadi. Yuksak ma'naviyat jamiyatning o'z mavjudlik holatidan qoniqmaslik hissini, uni mudom takomillashtirishga intilishini ta'minlaydi. Ma'naviyat qanchalik yuksalsa, ijtimoiy munosabatlar shu qadar insoniylashadi, ezgulik va insonparvarlik, demokratik tamoyillar, inson huquqlari va erkinliklari qaror topadi.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning 14-sessiyasi-dagi «O'zbekiston XXI asr sari» nomli ma'rzasida islohotlar yangi bos-qichining asosiy ustuvor yo'naliшlarini belgilab berib, ularning birinchisi – siyosiy, iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, ikkinchisi – ma'naviyatni yuksaltirish ekanligini ta'kidlagan edi. Ijtimoiy taraqqiyotga intilayotgan, tubdan yangilanayotgan, siyosiy, iqtisodiy hayotini erkinlashtirishga jazm qilgan har qanday jamiyat ma'naviyati yuksak, ozod, erkin shaxsni shakllantirmog'i lozim.

Demokratiyaning, ijtimoiy taraqqiyotning ijodkori, amalga oshiruvchisi – bu insondir. Demokratiya – nafaqat xalq hokimiyyati, shuningdek, xalqning mamlakat kelajagi, o'z taqdiri oldidagi mas'uliyati hamdir. Demokratiyani oxlokratiya (oxlos – to'da, olomon) – olomon hokimiyatidan, ya'ni turli guruhlarning o'zboshimchaligidan, boshboshdoqligidan, tartib-qoidalarni, qonunni pisand qilmasdan hokimiyat idoralariga noo'rin talablar qo'yishidan, tazyiq o'tkazishdan farq qilishi lozim. Demokratiyaning oxlokratiyaga hech qanday aloqasi yo'q

Bir guruh jangarilar va ularning mafkurachilari, faollari butun xalq nomidan gapirishga va ish ko'rishga haqli emas. Bunday holat xalqaro huquq me'yorlariga ham zid va dunyoning biror joyida tan olinmaydi. Deylik, G'arb mamlakatlari buyuk davlatchilik shovinizmi ostida demokratiyani niqob qilib olib, aslida oxlokratiyaga yo'l ochishga, olomon yordamida «rangli inqiloblar»ni amalga oshirib, o'zlariga maqbul kelmaydigan davlat rahbarlarini almashadirishga urinmoqdalar.

Har bir fuqaro demokratiyaning mohiyatini to'g'ri anglab, uni nafaqat oxlokratiya va anarxiyadan, shuningdek, avtokratiya (rahbarning o'zgalar fikri bilan hisoblashmasdan, yolg'iz boshqarishi, boshqalarning unga qulluq qilishi) va volontarizmdan (shart-sharoit va obyektiv ijtimoiy qonunlarni mensimasdan, faqat o'z xohish-irodasiga tayanib, jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv usuli) ajrata bilishi kerak.

Demokratiya fuqarolardan nafaqat yuksak huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollikni, shuningdek, o‘z manfaatlarini davlat, jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtira olishni talab qiladi. Aks holda, kishilarning jamiyatga qo‘ygan talablari noto‘g‘ri bo‘lib, xudbinlik, egotsentrizm, manmanlik avj olishi mumkin. Biz shunday ijtimoiy munosabatlarga, qonun-tartibot va axloq tizimiga intilmog‘imiz zarurki, unda alohida shaxs va butun jamiyat manfaatlari, zarracha bo‘lsa-da, zarar ko‘rmasligi kerak.

Demokratiyaning rivojlanishi ma’naviy hayotni erkinlashtirishning omiliidir. Demokratiya tafakkur erkinligi, qarashlar rang-barangligrining qaror topishiga, ularning bir-birlarini o‘zaro boyitishiga ko‘maklashadi.

Tafakkur erkinligi voqelikka xolis, tanqidiy va ayni paytda ijodiy munosabatda bo‘lish, umuman ma’naviy bunyodkorlik yo‘liga g‘ov bo‘lgan ichki ijtimoiy qo‘rquvni, ichki «senzor»ni yengishning asosiy sharti va vositasidir. Mutelik psixologiyasidagi kishi konstruktiv-tanqidiy fikr yurita olmaydi. U o‘z taqdiridan, ijtimoiy holatidan norozi bo‘lishi, nafratlanishi mumkin. Uning faoliyati nari borsa istiqbolsiz, besamara radikalizm darajasiga ko‘tariladi. O‘zidagi qo‘rquvni, qullikni yenggan kishigina samarali ijodiy natijalarga erishadi.

Demokratiyanı rivojlantirib, umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish milliy nomukammallik tuyg‘usidan xolos bo‘lish, ijtimoiy ongning, davlat va nodavlat institutlarning ma’naviy ijodiy izlanishlariga, oqimlarga xolis munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunda turli byurokratik rasmiy va norasmiy institutlar, urf-odatlar, ijtimoiy ongda saqlanib qolgan xurofiy, patriarchal va boshqa qoloq tushunchalar ma’naviyatning erkin rivojlanishiga jiddiy xavf sololmaydi.

2. Ma’naviyat va huquqiy davlat

Demokratiya rivojlanishi huquqiy davlat vujudga kelishining muhim sharti va vositasidir. Birinchidan, aristokratiya (asilzodalar, zodagonlar) yoki oligarxiya (o‘ta katta sarmoya egalari) yoki harbiylar hokimiyati o‘rnatilsa, tabiiyki, u tor doiradagi kishilar manfaatlarini ifodalaydi. Shaklan u diktatura ko‘rinishini olmasligi mumkin. Biroq, keng omma xohish-irodasiga qulq solmaydi. O‘z bilganicha siyosat yuritadi. Ikkinchidan, demokratik tamoyillar – so‘z erkinligi, siyosiy partiyalarga birlashish, saylash va saylanish huquqi, umuman inson huquqlarining hurmat qilinishi, mulk shakllarining tenghuquqliligi va davlat tomonidan muhofaza etilishi – huquqiy davlat shakllanishi va rivojlanishi uchun zaruriy assosdir. Ularsiz huquqiy jamiyat to‘g‘risida gap ham bo‘lishi mumkin emas.

Huquqiy davlat – jamiyatning shunday siyosiy tashkilotidirki, unda demokratik me’yorlar, inson huquqlari, qonunning barchaga birdayligi va majburiylicha davlat tuzumining asl tayanchiga aylanadi. Huquqiy davlatda hokimiyat tarmoqlari bir-biridan ajratiladi va bir-biridan mustaqil bo‘ladi. Hokimiyat tarmoqlari faqat Konstitutsiya va qonunlarga tayanib ish tutadi. Hokimiyat tarmoqlarini birlashtiruvchi negiz – bu umummilliy manfaatga xizmat qilishdir. Mafkuraviy shaklda esa u milliy g‘oya sifatida hokimiyat tarmoqlarini birlashtiruvchi asos bo‘lishi mumkin. Uchta hokimiyat tarmog‘ini birlashtiradigan omil – bu milliy g‘oyadir.

Huquqiy davlatning muhim tamoyillaridan biri bu inson huquqlarining davlat huquqlaridan, xalqaro huquqning milliy huquqdan ustuvorligidir. Davlat chiqargan qonunlar xalqaro huquq me’yorlariga, umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarga mos bo‘lishi lozim. Faqat yuksak ma’naviyat, umuminsoniy qadriyatlar bilan boyigan mamlakatlarda bunday huquqiy amaliyot qaror topadi.

Milliy mahdudlikka moyil, manman, mutaassib va tajovuzkor mafkurani qurol qilgan mamlakat xalqaro huquq me’yorlarini, inson huquqlarini u yoki bu darajada inkor etadi, millatchilik domiga tushib qoladi. Bunday davlatda demokratiya rivojlanmaydi. Huquq me’yorlari va mehnat intizomi zo‘ravonlik yordamida ta’minlanadi. Huquqiy davlatda qonunga itoatgo‘ylik, mehnat intizomi shaxs madaniyatining ajralmas qismiga, e’tiqodga, axloqiy normaga aylanadi.

Demokratiya huquqiy davlatning uzviy xossasi, u vujudga kelishining asosiy sharti va vositasi bo‘lsa, o‘z navbatida huquqiy davlat demokratiya yanada yuksalishi, o‘sishi va mustahkamlanishining omilidir. Huquqiy davlat qaror topgan joyda demokratik institutlar mustaqil faoliyat ko‘rsatishi, alohida shaxsning va butun jamiyatning yaratuvchilik, ijodkorlik salohiyati, iqtisodiy va siyosiy tashabbuskorligi yuzaga chiqishi uchun barcha zarur imkoniyatlar vujudga keladi va ular obyektiv ravishda yuksalib boraveradi. Bu yuksalish yo‘lida sun’iy to’siq paydo bo‘lsa, qonun doirasida tezgina bartaraf qilinadi. Demokratiya, shaxs va jamiyat rivojlanishi uchun zarur imkoniyat yaratish huquqiy davlatning muhim xususiyatlaridan, belgilaridan biridir. Aynan huquqiy davlatda qarashlar, mafkuralar plyuralizmi kafolatlanadi.

Huquqiy davlatda chiqarilayotgan qonunlar, hukumat va mahalliy hokimiyat qarorlari, sudlar faoliyati mansabdor shaxslarning xohish-irodasiga yoki guruhbozlarning talabiga yoxud bir nufuzli kishining iltimosiga bog‘liq bo‘lmaydi.

G‘arbdagi huquqiy davlatlarda ham poraxo‘rlik, qalbakilik, qalloblik, jinoyatchilik va boshqa salbiy holatlar kam emas. Ma’naviy hayotda hatto aksilmadaniyat hodisalari – fahsh, zo‘ravonlik, dahshatni targ‘ib etuvchi kinofilmlar, videofilmlar, turli nashrlarga, garchi ular mavjud konstitutsiyaviy tuzumni kuch ishlatish orqali ag‘darib tashlashga da’vat etmasada, inson salomatligiga, tabiatga bevosita zarar yetkazmaydi, deb topilsa, bemalol ruxsat etiladi. Bu insonning ijod qilishi, axborot olishi, tadbirkorlik huquqi hisoblanadi. Hattoki, G‘arb mamlakatlarida bir jinsli nikohlarga ruxsat berilgan.

Bunday holatlar nafaqat G‘arb ma’naviyatining inqirozidan dalolat beradi, shuningdek madaniyat va aksilmadaniyat o‘rtasida chegara yo‘qolib borayotganini ko‘rsatadi.

G‘arb huquqiy davlatlari turmush tarzida bizga nomaqbul bir jihat bor: bu – odamlarning, jumladan, yaqin qarindoshlarning ham o‘zaro begonalashuvi, ular o‘rtasida mehr-oqibatning yo‘qligi. Biz G‘arbdan demokratik, huquqiy davlat tamoyillarini umumbashariy qadriyat sifatida qabul qilib, uni o‘zimizning eng yaxshi milliy qadriyatlarimizga payvand etishimiz, jamiyat a’zolari o‘rtasidagi iliq munosabatlarni, xayrixohlik, o‘zaro yordamni saqlab qolishimiz mumkin.

Har bir tarixiy davr har bir shaxsning muayyan xarakterini tarbiyalaydi. Unga o‘z taraqqiyoti darajasi va zaruriyatidan kelib chiqib ma’lum talablar qo‘yadi. Bu talablar jamiyat ma’naviyatida – axloqiy, huquqiy, estetik baholari, omillari, me’yorlari tizimida, ma’naviy muhitida, ijtimoiy mo‘ljallarida o‘z aksini topadi. Ta’lim va tarbiya tizimi ularga moslashadi, ular asosida yosh avlodni shakllantira boshlaydi. Shunday qilib, odamlarning dunyoqarashi, intilishlari, jamiyatga va olamga, o‘z-o‘ziga munosabati, davlat tuzumining qandayligi, rivojlanish tendensiyalari ko‘p jihatdan ma’naviyatga bog‘liq, Ma’naviyat qanday bo‘lsa, inson va davlat tuzumi shunday, deyish mumkin.

3. Ma’naviyat va fuqarolik jamiyati

Demokratik jamiyatda hukumat va parlamentning amaliy faoliyati, qabul qilinadigan qarorlari va qonunlari orqali ko‘pchilikning siyosiy irodasi ifoda etiladi. Ko‘pchilikning siyosiy irodasi ozchilik ustidan o‘zboshimchalikka aylanmasligi uchun huquqiy, demokratik davlatda Konstitutsiyaviy sud yoxud Oliy sud parlament va hukumat hujjatlarining Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirib boradi.

Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi va nazoratni amalga oshiruvchi boshqa organlar (xo‘jalik sudlari, prokuratura, davlat

inspeksiyalaridan tortib, to Oliy Majlis huzuridagi ombudsmangacha) ham o‘z vakolatlari doirasida turli ijtimoiy-siyosiy guruhlarning, etnik va boshqa madaniy-ma’naviy birliklarning manfaatlariga putur yetmaslik to‘g‘risida qayg‘uradilar, ularni qonun kuchi bilan himoya qiladi. Ko‘pchilik va ozchilik manfaatlarini muvozanatga keltirishga demokratik jamiyatda birinchi navbatda davlatning o‘zi mas’ul.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati rivojlantirilmoqda. Birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV sessiyasida va ikkinchi chaqiriq I va IX sessiyalarida, uchinchi chaqiriq Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma yig‘ilishida, Prezident Islom Karimovning ma’ruzalarida O‘zbekistonda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ma’naviy sohalarni erkinlashtirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish masalalari ko‘tarilgan. Hujjatlarda «davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzulmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e’tibor» qaratilishi bilan bir qatorda, «markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borish» belgilangan¹.

Uchinchi chaqiriq Oliy Majlis palatalarining qo‘shma yig‘ilishida Prezident Islom Karimov «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni hayotga joriy etishda «siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta’sirini tubdan kuchaytirish»² lozimligini alohida ta’kidladi.

Yangilanish jarayonida ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotda ba’zi bir eski yoki yangi paydo bo‘lgan tuzilmalar faollashib qoladi (masalan, ekstremistik, tajovuzkor diniy sektalar, mazhablar, siyosiy-ekstremistik, o‘ta millatchi yoki shovinistik guruhlar, separatistik guruhlar, uyushgan jinoyatchilik). Bular hammasi yig‘ilib ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazishi, salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jamiyatda, bir tomonidan, boshboshdoqlik, oxlokratiyaga moyillik kuchayadi, jinoyatchilik o‘sadi, ikkinchi tomondan, «kuchli hokimiyat»ga, avtoritar boshqaruvga intilish kayfiyati zo‘rayadi, shovinizm va aggressiv millatchilik, diniy va siyosiy ekstremizm uchun zamin yetila boshlaydi.

¹ Каримов И. А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. – Т., 2003. – Б. 29.

² Каримов И. А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. – Т., 2005. – Б.181.

«Kuchli davlat» izchil va bosqichma-bosqich isloh qilinishi, islohotlar davomida o‘z vazifasini cheklab borishi, ularning ko‘philigini asta-sekin mahalliy hokimiyat idoralari va o‘zini o‘zi boshqarish organlariga o‘tkazib borishi kerak. Kuchli davlatning asosiy tadrijiy takomillashish tamoyillari – bu nomarkazlashish va erkinlashtirishdir.

Demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatni mustahkamlab, davlat hokimiyati va amaldorlar faoliyati ustidan samarali nazorat o‘rnatish ijtimoiy taraqqiyot uchun juda muhimdir. Shu sababli taraqqiyotning o‘zbek modelida bu masalalarga islohotlarning hozirgi bosqichida alohida ahamiyat berilmoqda.

Fuqarolik jamiyatni erkin, ongli fuqarolarni taqozo etadi. U, shuningdek har qanday siyosiy tartibga moslashuvchan subutsiz konformistlarni ham inkor etadi. Fuqarolik jamiyatini qo‘rquvdan bechora holiga tushib qolgan, hokimiyat oldida o‘zini nomukammal sezadigan aholi bilan qurib bo‘lmaydi.

Fuqarolik jamiyatni – bu tolerantlik jamiyatidir. Jamiyatda har xil mafkuralar, ta’limotlar, diniy qarashlar mavjudligi fuqarolardan bir-birlarining e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lishlarini taqozo etadi. Ayniqsa, ko‘pmillatlari mamlakatlarda tolerantlik tinch-totuv hayot kechirishning muhim shartlaridan biridir. Tolerantlik tufayli ko‘pmillatlari, ko‘pkonfessiyali davlatlarda tinch-totuvlik, kelishuv va hamkorlik qaror topadi. Tolerantlik – demokratiya, madaniyatlar va xalqlar muloqotining zarur shartidir.

Tolerantlik o‘zga madaniyatlarga, boshqacha turmush tarziga qiziqish uyg‘otadi, oqibatda esa milliy madaniyatlarning o‘zaro aloqa qilishiga, bir-birini boyitishiga, xalqlarning bir-biriga yordam berishiga, hamkorlik qilishiga, davlatlarning jahon hamjamiyati bilan integratsiya bo‘lishiga xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatining ba’zi unsurlari, masalan, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish ancha ilgari paydo bo‘la boshlasa-da, uning asoslari faqat demokratiya rivojlanishi, huquqiy davlat qaror topishi jarayonida shakllanadi. Fuqarolik jamiyatni – nafaqat yetuk demokratiya mahsulidir, u shuningdek, nomukammallik tuyg‘usidan forig‘, erkin o‘sgan va qadr-qimmatini anglaydigan, erkin fikrlaydigan kishilar jamiyatidir. Demak, fuqarolik jamiyatni – ijtimoiy hayotni tashkil etish, tartibga solish va boshqarishda fuqarolar, ular tuzgan nodavlat, notijorat tashkilotlari keng ishtirok etadilar, davlatning ba’zi vazifalarini o‘z zimmalariga oladilar, jamiyatni boshqarishda nomarkazlashtirish va siyosatlashuvdan holi barqaror tendensiyaga aylanadi.

Ommaviy axborot vositalari erkinligining va ta'sirining hamda ular tomonidan nafaqat davlat, shuningdek, nodavlat, jamoat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilishning muttasil kuchayishi fuqarolik jamiyatini asoslarining rivojlanish qonuniyatlaridan biridir. Fuqarolik jamiyatida OAV erkin bo'ladi. Ularning ijtimoiy institut sifatidagi erkinligini davlat Konstitutsiyasi va qonunlari me'yorlasa, iste'mol qilinadigan ma'naviy mahsulot va xizmat turi sifatida esa axborot bozori belgilaydi.

Jamoat tashkilotlari davlatni, davlat esa jamoat tashkilotlarini nazorat etar ekan, ular bir-birining oldida mas'uldir. Bunday o'zaro mas'ullikka fuqarolar mas'ulligini ham qo'shsak, unda fuqarolik jamiyatini uch tomonlama mas'ullik jamiyatini, deyish mumkin. Haqiqatan, «fuqarolar – davlat – jamiyat» uzviy va mushtarak tizimni, bir butunlikni tashkil etadi. Undagi har bir tarkibiy qismning erkinligi va ravnaqi boshqa qismlarning erkin va samarali rivojlanishiga bog'liq. Bu ularning bir-biriga va o'zlariga nisbatan mas'uliyatli bo'lishini taqozo etadi.

Hokimiyat samaradorligini faqat boshqaruv apparati, sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari, armiya kuchi emas, shuningdek, ichki siyosiy barqarorlik, demokratik va ijtimoiy institutlar, fuqarolarning madaniy saviyasi va faolligi, davlat organlariga yordam berish ham belgilaydi.

Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – bu jamoatchilik fikrining davlat siyosatiga real ta'sir ko'rsata olishidir. Rivojlangan, yetuk fuqarolik jamiyatida jamoatchilik fikri, axloq va huquq kabi ijtimoiy institutga aylanadi. Parlament va hukumat, siyosiy partiyalar va nodavlat, notijorat tashkilotlari jamoatchilik fikrini hisobga oladilar, unga ochiq-chasiga zid ravishda faoliyat yurita olmaydilar. Jamoatchilik fikri fuqarolik jamiyatni yaxshi rivojlangan sharoitda baholash (aksiologik) vazifasi bilan bir qatorda tartibga solish (regulyativ) vazifasini ham bajara boshlaydi. Demak, fuqarolik jamiyati aholining yuksak siyosiy madaniyatini va faolligini, demokratik me'yorlarning ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalariga chuqur singib ketishini taqozo etadi, o'zi ham bunga xizmat qiladi.

«Fuqaroviylar erkinlik» juda keng, serqirra va murakkab tushuncha. U, tabiiyki, inson huquqlarini, konstitutsiyaviy erkinliklarini (shaxsning xavfsizligi, daxlsizligi, fikrlash, so'z, e'tiqod, vijdon, axborot izlash va olish, uni tarqatish erkinliklari, shaxsning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari) to'la o'z ichiga oladi. Ammo ular bilan cheklanib qolmaydi, shuningdek, mamlakat va jamiyat hayotiga beparvo, loqayd bo'lmaslik har bir hodisa va o'zgarishlarni o'ziga daxldor, mamlakat va jamiyat rivojlanishi uchun o'zini mas'ul deb bilishini ham anglatadi. Mas'ullik –

fuqaroviylar erkinlikning, erkinlik – fuqaroviylar mas’ullilikning mavjudlik shakllaridan biridir. Xullas, fuqarolik jamiyatini inson huquqlari va erkinliklarining eng oliy qadriyatlarga aylanishini, ularning maksimal darajada ta’minlanishini taqozo etadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Demokratiya deganda nimani tushunasiz?
2. Demokratik jamiyatning muhim elementlarini tushuntirib bering.
3. Demokratiyaning ma’naviyat bilan bog‘liqligini qanday izohlaysiz?
4. Huquqiy davlatning ma’naviy jihatlari nimalardan iborat?
5. Inson huquq va erkinliklari oliy qadriyat ekanligini tushuntiring.
6. Fuqarolik jamiyatining mohiyatini sharhlab bering.
7. Ma’naviyat va fuqarolik jamiyatining o‘zaro uyg‘unligi nimalarda namoyon bo‘ladi?
8. Ijtimoiy fikrning fuqarolik jamiyatini uchun ahamiyati qanday?
9. Jamoatchilik nazoratining jamiyatdagi ahamiyatini tushuntiring.

МУНДАРИЖА

SO‘ZBOSHI.....	3
----------------	---

I bo‘lim. «MA’NAVIYAT ASOSLARI» FANINING VUJUDGA KELISHI VA JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

1-mavzu. «MA’NAVIYAT ASOSLARI» FANINING PREDMETI, KATEGORIYALARI VA VAZIFALARI

Kirish.....	5
1. «Ma’naviyat asoslari» fanining predmeti va kategoriyalari.....	6
2. «Ma’naviyat asoslari» fanining ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o‘rni.....	9
3. «Ma’naviyat asoslari» fanining ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyatidagi ahamiyati.....	11
4. Prezident Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiysi va uning milliy mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati.....	13

2-mavzu. MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING MA’NAVIYAT HAQIDAGI TA’LIMOTLARI

1. Markaziy Osiyo qadimgi xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma yodgorliklarida ma’naviyat masalalari.....	19
2. Uyg‘onish davri ma’naviyati (IX–XIX asrlar).....	25
3. O‘zbekistonda ma’naviyat davlat siyosati darajasida.....	40

3-mavzu. MILLIY VA UMUMINSONIY MA’NAVIYAT DIALEKTIKASI

1. Milliy va umuminsoniy ma’naviyat tushunchalari.....	46
2. Terrorizm, egotsentrizm, odam savdosi, noqonuniy migratsiya ma’naviy qashshoqlik hodisalari.....	52
3. O‘zbekistonning millatlararo bag‘rikenglikni ta’minlash sohasidagi siyosati.....	57

4-mavzu. IQTISOD, SIYOSAT VA HUQUQ – MA’NAVIYATNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI SIFATIDA

1. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining ma’naviyat bilan alo-qadorligi.....	64
2. Siyosiy ma’naviyat – ma’naviy yetuklik shakli.....	69
3. Huquq va ma’naviyat, ularning farqi va umumiyligi.....	74
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining ma’naviy sabablari.....	78

II bo‘lim. MUSTAQILLIK VA MILLIY MA’NAVIYAT

5-mavzu. YUKSAK MA’NAVIYAT – YENGILMAS KUCH

1. O‘zbekistonda insonshunoslik fani (antropologiya)ning mustaqillik yillaridagi rivoji.....	84
2. Fozil inson, orif inson, komil inson, barkamol inson tushunchalarining Mazmuni.....	88
3. Fan – ma’naviyat gultoji.....	92

6-mavzu. VATANPARVARLIK, ADOLATLILIK, IYMON VA G‘URUR – YUKSAK MA’NAVIYAT POYDEVORI

1. «Vatan» va «vatanparvarlik» tushunchalarining mazmun-mohiyati.....	98
2. Iymon va e’tiqod – inson ruhiyatining qudrati. «Iymon» tushunchasi. Diniy va dunyoviy iymon, ularning mohiyati.....	107
3. Ichki ishlar idoralari xodimlarini Vatanga sadoqatli, iymon-e’tiqodli etib tarbiyalashning dolzarbligi.....	112

7-mavzu. ICHKI ISHLAR IDORALARI XODIMLARINING MA’-NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI

1. Ichki ishlar idoralari xodimlarining ma’naviyatini yuksaltirish – davr talabi.....	121
2. «Ichki ishlar idoralari xodimi» – yuksak ishonch va mas’uliyatni anglatuvchi tushuncha.....	127
3. Prezident Islom Karimov ichki ishlar idoralari xodimlarining ma’naviy fazilatlarini yuksaltirish xususida.....	130

8-mavzu. MA’NAVIYAT, DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATI

1. Ma’naviyat va demokratiya.....	136
2. Ma’naviyat va huquqiy davlat.....	139
3. Ma’naviyat va fuqarolik jamiyati.....	141

MA'NAVIYAT ASOSLARI

Ma'ruzalar kursi

**Muharrir M. S. Rahmonova
Texnik muharrir M. R. Isametova**

Bosishga ruxsat etildi 22.01.2013-y. Nashr-hisob tabag‘i 8,2
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
1000197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68.